Alkogoliz jarayonining borishi reaksiya harorati, davomiyligi va glikolning molyar nisbatiga sezilarli darajada bog‘liqligi aniqlandi. 220 ± 5 °C haroratda inert muhitda olib borilgan tajribalar jarayonning barqaror kechishini va nojo‘ya yon reaksiyalarning kamayishini ta’minladi. Reaksiya vaqtining ortishi mahsulot hosil bo‘lish darajasiga ijobiy ta’sir ko‘rsatishi kuzatildi.

Reaksiya yakunida reaksiyaga kirmagan dietilenglikolni vakuum ostida haydash orqali ajratib olish texnologik jihatdan maqsadga muvofiq ekanligi tasdiqlandi. Olingan alkogoliz mahsulotlari keyingi kimyoviy sintezlar uchun xomashyo sifatida foydalanish imkoniyatiga ega ekanligi bilan ahamiyatlidir.

Umuman olganda, dietilenglikol ishtirokida ikkilamchi polietilentereftalatni alkogoliz qilish jarayoni polimer chiqindilarini kimyoviy qayta ishlashning samarali va ekologik jihatdan istiqbolli yo‘nalishlaridan biri bo‘lib, olingan natijalar mazkur texnologiyani takomillashtirish va sanoat miqyosida joriy etish uchun ilmiy asos bo‘lib xizmat qiladi.

ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Awaja F., Pavel D. Recycling of PET. *European Polymer Journal*, 2005, 41, 1453–1477.

2. Al-Sabagh A.M., Yehia F.Z., Eshaq G., Rabie A.M., ElMetwally A.E. Greener routes for recycling of polyethylene terephthalate. *Egyptian Journal of Petroleum*, 2016, 25, 53–64.

3. Paszun D., Spychaj T. Chemical recycling of poly(ethylene terephthalate). *Industrial & Engineering Chemistry Research*, 1997, 36, 1373–1383.

4. Nikles D.E., Farahat M.S. New motivation for the depolymerization products derived from poly(ethylene terephthalate). *Macromolecular Materials and Engineering*, 2005, 290, 13–30.

5. Scheirs J. *Polymer Recycling: Science, Technology and Applications*. John Wiley & Sons, Chichester, 1998.

ISSN 3030-3907

6. Baliga S., Wong W.T. Depolymerization of poly(ethylene terephthalate) recycled from post-consumer soft-drink bottles. *Journal of Polymer Science*, 1989, 27, 2071–2082.
7. Якубович А.А., Баранов В.Г. Химическая переработка полиэтилентерефталата. *Пластические массы*, 2004, №5, 23–27.
8. Мухамедов Н.А., Абдуллаев Х.Ш. Вторичная переработка полиэфирных полимеров химическими методами. *Химическая промышленность*, 2010, №3, 45–50.
9. Achilias D.S. Chemical recycling of PET. *Macromolecular Materials and Engineering*, 2007, 292, 923–930.
10. Ульянов В.М. *Технология переработки полимерных материалов*. Москва: Химия, 2002.

ISSN 3030-3907

THERMOGRAVIMETRIC AND DIFFERENTIAL THERMAL ANALYSIS OF A THERMOSTABLE MATERIAL SYNTHESIZED FROM LIQUID GLASS AND SILICAGEL

Akhmedov Kh.I
Bukhara State Technical University
Akhmedov V.N
Bukhara State Technical University

Abstract. Results of research on thermogravimetric and differential thermal analysis of a thermostable substance obtained by modifying liquid glass and Silicagel - The substance obtained on the basis of silicagel and liquid glass was studied using thermogravimetric and differential thermal analysis. Modern methods of analysis were used for the research, and the thermostability of the substance was also thoroughly studied.

Key words: differential thermal analysis [DTA], thermogravimetric analysis [TGA], heat resistance, liquid glass, sintering, polymerization, thermal stability

Annotatsiya. Suyuq shisha va kremnizolni modifikatsiyalab olingan termobarqaror moddaning termogravimetrik va differensial termik tahlili buyicha tadqiqot natijalari -Kremezol va suyuq shisha asosida olingan modda termogravimetrik hamda differensial termik tahlil yordamida o‘rganildi.Tadqiqotlar uchun tahlilning zamonaviy usullari qo‘lanilgan , shuningdek moddaning termobarqarorlik jihati chuqur tadqiq etilgan .

Kalit so‘zlar: Differensial termik analiz[DTA],termogravimetrik analiz[TGA] issiqlikka chidamlilik , suyuq shisha, kremnezol, polimerizatsiya, termobarqarorlik

Аннотация. Результаты исследования термогравиметрического и дифференциального термического анализа термостабильного вещества, полученного путем модификации жидкого стекла и кремезола. Вещество, полученное на основе кремезола и жидкого стекла, было изучено с помощью термогравиметрического и дифференциального термического анализа. Для исследования были использованы современные методы анализа, а также тщательно изучена термостабильность вещества..

Ключевые слова: дифференциальный термический анализ [ДТА], термогравиметрический анализ [ТГА], жаростойкость, жидкое стекло, спекание, полимеризация, термическая стабильность.

Introduction

Today, one of the urgent tasks is to create a new generation of protective equipment with complex properties based on the achievements of new technologies in ensuring the fire safety of building structures and structures. According to fire statistics, fires around the world cause serious damage to human life, the economy and the environment.

ISSN 3030-3907

Today, in the era of technology, one of the most urgent tasks is to protect industrial facilities and structures with complex structural structures from fire. In developed countries, great attention is paid to the creation of effective fire protection equipment and coatings aimed at increasing the fire resistance of building structures and materials.

In the Republic of Uzbekistan, comprehensive measures are being taken to ensure the fire safety of buildings and structures by creating and improving modern fire protection equipment and systems.

In our republic, various chemical compositions consisting of nitrogen, phosphorus, boron, metals and other substances have been created based on innovative technologies, and certain scientific and practical results have been achieved in obtaining fireproof materials using these flame retardants, in particular, important measures are being taken to create oligomeric flame retardants containing nitrogen, phosphorus, boron and metals based on new approaches. The Strategy of Actions for the Further Development of the Republic of Uzbekistan sets out important tasks aimed at "mastering the production of fundamentally new types of products and technologies that ensure the competitiveness of national goods in the domestic and foreign markets". In this regard, the development of economically efficient and environmentally friendly technologies for the production of oligomeric flame retardants containing nitrogen, phosphorus, boron and metals and composites that increase the properties of bulging thermostability based on local raw materials is of great importance.

In this area, a number of studies are being carried out, in particular, on the creation of fire-resistant means of building structures and materials based on local raw materials, and on improving the quality of fire extinguishing methods and technical means.

Since the 20th century, SiO2 nano-sized particles have been widely used in many products, and since 1960, metal nanoparticles have been used [6]. It has been found that compacts of these very small (~10nm) crystals have unique physical properties that can be used for various engineering purposes.

Many applications of nanocomposites are based on the properties of individual nanoparticles (sensors, medical diagnostics, homogeneous catalysis, etc.); At the same time, there are important areas that require self-assembled assemblies of nanoparticles (nanoelectronics, optoelectronics, photonics, heterogeneous catalysis, etc.).

Currently, great attention is paid to the creation of fire protection products based on modern technologies and their use to increase the fire resistance of building structures and materials[1]. Accordingly, targeted scientific research in areas including the creation of models of the mechanisms of physical and

ISSN 3030-3907

thermochemical processes occurring in protective coatings under the influence of heat; the creation of compact, accurate and rapid methods for assessing the impact of fire-retardant fillers on the fire safety indicators of building structures and materials; the creation of a new generation of highly effective heat and fire-retardant coatings based on widely available natural resources are important issues.


In the world, scientific research is being conducted to study oligomeric flame retardants and develop technologies for their production in order to reduce the flammability of wooden building materials. In this regard, in order to prevent fires in wooden construction materials, agricultural fields and forestry, special attention is paid to studying the optimal composition and physicochemical properties of phosphorus-containing oligomeric flame retardants, as well as to studying the mechanism of action of modifying flame retardants with wood materials. Decree of the President of the Republic of Uzbekistan No. PF-4947 dated February 7, 2017 "On the Strategy of Actions for the Further Development of the Republic of Uzbekistan".

OBJECT AND METHODS OF RESEARCH

The objects of research were substances formed by the modification of liquid glass and cremnisol, as well as samples of ethylene glycol. Modern methods of thermogravimetric and differential thermal analysis were used for the research, and the thermostability properties of the synthesized substance were analyzed and studied in depth.

RESEARCH RESULTS

Thermogravimetric and differential thermal analysis of the synthesized substance was carried out using a Shimadzu [DTG-60] instrument. The analysis results are presented in Figure 1.



ISSN 3030-3907

Figure 1. Thermogravimetric and differential thermal analysis of the synthesized substance

This is a combined TGA-DTA thermogram (TGA — Thermogravimetric Analysis, DTA — Differential Thermal Analysis), which simultaneously shows the change in mass of the sample (TGA, blue line) and the temperature difference between the sample and the standard (DTA, red line) with increasing temperature. The TGA-DTA thermogram (temperature range: 25–600 °C, heating rate typically 10 °C/min) shows the following main processes: TGA (blue line — mass change): The sample loses a significant amount of mass (about 5–6 mg) between 25 °C and 90 °C. This loss has a maximum rate around 90.63 °C and is usually due to the evaporation of bound water (or moisture). Between 100–200 °C, mass loss continues, but slows down. After 200 °C, the mass remains almost unchanged (stabilizes around 5 mg) — this indicates that the sample has reached a stable state after dehydration.

In the range of 400–500 °C, another small mass loss is observed (noticeable at around 431 °C), which may be a decomposition of organic components or a thermal decomposition step. DTA (red line – heat flow): A large endothermic peak is observed at 90.63 °C — this is a heat absorption process associated with the evaporation of bound water (endothermic effect). A sharp exothermic peak is registered at 217.17 °C — this indicates an exothermic process such as crystallization, polymerization or oxidation of organic or crystalline phases in the sample. There is a smaller exotherm around 431.17 °C followed by several minor peaks — this may be related to thermal decomposition or later stages of oxidation.

CONCLUSION

“In the TGA-DTA analysis of the sample, two main processes were observed in the temperature range of 25–600 °C. A strong endothermic effect and corresponding mass loss at 90.63 °C are associated with the evaporation of bound water. A clear exothermic peak at 217.17 °C indicates a thermal transformation of organic or crystalline phases in the sample (e.g., crystallization or oxidation). A small exothermic effect and mass loss observed at 431.17 °C correspond to a thermal decomposition step at high temperatures.”

Thermogravimetric and differential thermal analysis of our refractory material obtained from the modification of liquid glass and silica sol were sufficiently analyzed. When comparing the results of the analysis with the data presented in the literature, it was found that the properties of our obtained substance are similar to the properties of antiprenes, which exhibit fire resistance properties. Also, the synthesized substance can be processed and used as a raw material for various branches of the chemical industry.

ISSN 3030-3907

The physical state, structure and chemical composition of the synthesized (oligo) polymers, crystallization temperature, gel formation time and exposure to chemical reagents allowed to achieve the specified thermal and physical characteristics of fire-resistant compositions. Using the created compositions, mechanisms for fire protection of wooden and inorganic building structures were developed; effective fire-resistant coatings based on urethane were created, with the help of which methods for increasing the fire resistance of wooden and inorganic building structures and developing multi-stage fire protection were developed. The speed of application and high light stability made such an application process very effective in the flooring industry where high speed and high decorative properties are required.

REFERENCES

1. Шайкулов Б.К., Нуркулов Ф.Н., Джалилов А.Т., Изучение физикохимических свойств сополимеров синтезированных на основе акриловой кислоты, «Развитие науки и технологий научно – технический журнал», 5/**2022**, стр. 110-114.

2. Хоанг Тхань Хай. Разработка огне- и термостойких наноматериалов на основе ненасыщенных полиэфирных смол, содержащих наночастицы оксидов магния и цинка // Диссертация на соискание ученой степени кандидата химических наук. Москва **2019**. С.127.

3. Mozetič, M. Surface Modification to Improve Properties of Materials. Materials **2019**, 12, 441.

4. https://www.mordorintelligence.com/industry-reports/flame-retardant flame retardant chemicals market - growth, trends impact, **2023** y.

5. Rasouli, R.; Barhoum, A.; Uludag, H. A Review of Nanostructured Surfaces and Materials for Dental Implants: Surface Coating, Patterning and Functionalization for Improved Performance. Biomater. Sci. **2018**, 6, 1312–1338.ч

6. Thakare, J.G.; Pandey, C.; Mahapatra, M.M.; Mulik, R.S. Thermal Barrier Coatings-A State of the Art Review. Met. Mater. Int. **2021**, 27, 1947–1968.

7. Rosace, G.; Castellano, A.; Trovato, V.; Iacono, G.; Malucelli, G. Thermal and Flame Retardant Behaviour of Cotton Fabrics Treated with a Novel Nitrogen-Containing Carboxyl-Functionalized Organophosphorus System. Carbohydr. Polym. **2018**, 196, 348–358

8. Klemm, D.; Petzold-Welcke, K.; Kramer, F.; Richter, T.; Raddatz, V.; Fried, W.; Nietzsche, S.; Bellmann, T.; Fischer, D. Biotech Nanocellulose: A Review on Progress in Product Design and Today's State of Technical and Medical Applications. Carbohydr. Polym. **2021**, 254, 117313.

9. Fuseini, M.; Zaghloul, M.M.Y.; Elkady, M.F.; El-Shazly, A.H. Evaluation of Synthesized Polyaniline Nanofibres as Corrosion Protection Film Coating on

ISSN 3030-3907

Copper Substrate by Electrophoretic Deposition. J. Mater. Sci. **2022**, 57, 6085–6101.109

10. Ogabi, R.; Manescau, B.; Chetehouna, K.; Gascoin, N. A Study of Thermal Degradation and Fire Behaviour of Polymer Composites and Their Gaseous Emission Assessment. Energies **2021**, 14, 7070.

11. Zhen Zhang, Zenan Yang, Zhixi Zhao, Yiyang Liu, Chenchong Wang, Wei Xu. Multimodal Deep-Learning Framework for Accurate Prediction of Wettability Evolution of Laser-Textured Surfaces. ACS Applied Materials & Interfaces **2023**, *15* (7) , 10261-10272.

12. Kordi, M.; Seyyedi, S.M. Biomass Gasification Systems and Different Types of Gasifiers, Effective Parameters on Gasification Process Efficiency: An Overview. J. Appl. Dyn. Syst.

ISSN 3030-3907

AMINOKISLOTALARNI TITRAMETRIK USULDA TAXLIL QILISH.

Kenjaev A.Q.
Jizzax davlat pedagogika universiteti akademik litseyi
Kenjayeva S.N.
Jizzax davlat pedagogika universiteti akademik litseyi
Ernazarova J.X.
Jizzax davlat pedagogika universiteti akademik litseyi
E-mail: akmalkenjayev20@gmail.com

Annotatsiya. Titirlash usuli yordamida noma'lum aminokislotani yoki aniq aminokislotaning noma'lum konsentratsiyasi aniqlanadi. Bu jarayonda tomchilatgan holda H^+ yoki OH^- ionlari berish orqali amalga oshiriladi. Titrlashni amalga oshirish uchun egri chiziqlari, pKa qiymatlari, bufer hududlarini aniqlash, protonlanish holatlari, zaryadlar va izoelektrik nuqtalarni bilish zarur. Bu ishda biz aminokislotalarni titirlashning nazariy asoslari va biokiyodan masalalar yechimiga to'xtalamiz.

Kalit so'zlar: titrlash egri chizig'i, aminokislotalar, pH, biokimyo, pKa, izoelektrik nuqta.

Аннотация. Метод титрования используется для определения неизвестной аминокислоты или неизвестной концентрации конкретной аминокислоты. Этот процесс осуществляется путем капельного добавления ионов H+ или OH-. Для проведения титрования необходимо знать кривые, значения pKa, буферные области, состояния протонирования, заряды и изоэлектрические точки. В данной работе мы сосредоточимся на теоретических основах титрования аминокислот и решении задач из биохимии.

Ключевые слова: кривая титрования, аминокислоты, pH, биохимия, pKa, изоэлектрическая точка.

Abstract. The titration method is used to determine the unknown amino acid or the unknown concentration of a specific amino acid. This process is carried out by adding H+ or OH- ions dropwise. To perform the titration, it is necessary to know the curves, pKa values, buffer regions, protonation states, charges and isoelectric points. In this work, we will focus on the theoretical foundations of amino acid titration and the solution of problems from biochemistry.

Keywords: titration curve, amino acids, pH, biochemistry, pKa, isoelectric point.

Kirish.


Aminokislotalar kimyosi, shu jumladan pKa qiymatlari, pI qiymatlari va protonlashgan holatlarini yoritb bergan va kuchsiz kislota uchun titrlash egri chizig'i o'rganilgan[1,2,3,4].

ISSN 3030-3907

Aminokislotalarning umumiy formulasi va tasnifi. *Aminokislotalar* (amino acids) -NH_2 va –C(O)OH guruhlar tutgan bifunktsional birikmalar bo‘lib, ularning dastlabki vakili aminosirka (glitsin, glikokol H_2NCH_2COOH) kislotadir.

Aminokislotalar quyidagilardan iborat:

- **Amino guruh (-NH_2)**
- **Karboksil guruh (-COOH)**
- **Vodorod atomi (-H)**
- **Yon zanjir (-R)**



Aminokislotalarni ularning -R ning umumiy kimyoviy xarakteristikalari asosida quyidagicha sinflash mumkin.

1. Neytral yon zanjir: qutbsiz yon zanjirga ega bo‘lib, ion yoki vodorod bog‘ hosil qilmaydigan va kimyoviy jarayonda ajralmaydigan (ta’sirlashmaydigan) aminokislotalar. Masalan: alanin, glitsin va bosh.

2. Qutbli zayradsiz yon zanjir: **R guruhlari suvda ionlashtirilmaydi, lekin u vodorod bog‘lanishida ishtirok etishi mumkin. Masalan: serin, sistein va bosh.**

3. **Kislotali yon zanjir (manfiy zaryadli): -R** tarkibida $–COO^-$ saqlagan aminokislotalar. **Masalan:** glutamat va aspartat kislota.


4. **Asosli yon zanjir (musbat zaryadli): -R** tarkibida tarkibida -NH_3^+ saqlagan aminokislotalar. **Masalan:** arginin, gistidin va lizin.

Aminokislotalarning xossalari.

- Aminokislotalar amfoterdir, ya'ni u kislota sifatida (proton berishi) yoki asos sifatida (proton biriktira olish)reaksiyaga kirisha oladi.
- **Aminokislotalarning amfoter xossalari** ularning ionlanuvchi α-amino va α-karboksilik guruhining mavjudligi bilan bog‘liq bo‘lib, ular muhitining pH darajasiga qarab ba'zan kislotalar, ba'zan esa asoslar sifatida xossalarni namoyon qilishi mumkin.
- Har bir aminokislota turli xil **izoelektrik nuqtaga (pI)** ega.
- pI: Bu musbat zaryad manfiy zaryadga teng bo‘lgan pH qiymati (ya'ni bu molekulaning sof zaryadi nolga teng) (zwitter iondir).


❖ **Neytral aminokislota glitsinni ishqoriy titrlash.**


1. Aminokislotani ishqoriy titrlash uchun muhit kislotali qilib olinadi, bunda kislota solinganda pH≈0 ga yaqinlashadi. Natijada aminoguruh protonlanadi.




ISSN 3030-3907


2. pH ko‘tarilganda, ya’ni ishqor qo‘shilganda -COOH guruhi ham protonlana boshlaydi va nisbat quyidagicha bo‘ladi:





3. Ishqor qo‘shish davom ettirilganda shunday payt kelganda C_A (kation) va C_B (Zwitter ion) konstratsiyalari tenglashadi. Bunda pH = pKa_1 bo‘ladi, bu holda sistema bufer vazifasini bajaradi.






4. pH ning yanada oshishi, eritmada asosan zwitter ioni bo‘ladi va bu nuqtada pH = pI(izoelektrik nuqta) ga teng. Zwitter ioni – zaryadi 0 ga teng ion bo‘lib, u katoga yoki anodga tortilmaydi. Zwitter ion konsetratsiyasi eng yuqori bo‘lgan holat – izoelektrik nuqta deyiladi. Izoelektrik nuqta quyidagicha topiladi.


$$pI = \frac{pKa1+pKa2}{2}$$




5. pH ortishi bilan ikkinchi guruh - NH_3^+ ham deprotonlana boshlaydi.

ISSN 3030-3907







6. Shundan so‘ng, C_B va C_C larning konsentratsiyalari o‘zro tenglashadi. Bunda pH = pKa_2 bo‘ladi, bu holda sistema bufer vazifasini bajaradi.



7. $C_B < C_C$ kata bo‘lgan holat, bu zonada ham buffer tizim yuzaga keladi.




8. NH_3^+ guruhi ajraladi va shu bilan birga oxirgi nuqtada glitsin to‘liq dissotsilanadi.




Glitsinni ishqoriy titrlash egrisi quyidagicha(yuqoridagi bosqichlar to‘liq ko‘rsatilgan).

ISSN 3030-3907




❖ **Asosli aminokislota argininni ishqoriy titrlash.**

Ishqoriy titrlash uchun muhit kislotali qilib olinadi, bunda kislota solinganda pH≈0 ga yaqinlashadi. Natijada aminoguruh protonlanadi.




I-bosqich.



umumiy zaryadi: +2
C_A

umumiy zaryadi: +1
C_B

II-bosqich.




umumiy zaryadi: +1
C_B

umumiy zaryadi: 0
C_C

III-bosqich.


ISSN 3030-3907



umumiy zaryadi: 0
C_C


umumiy zaryadi: -1
C_D

Argininni ishqoriy titrlash egrisi quyidagicha(yuqoridagi bosqichlar to‘liq ko‘rsatilgan).




❖ **Kislotali aminokislota asparta kislotasini ishqoriy titrlash.**

Ishqoriy titrlash uchun muhit kislotali qilib olinadi, bunda kislota solinganda pH≈0 ga yaqinlashadi. Natijada aminoguruh protonlanadi.



I-bosqich.




umumiy zaryadi: +1
C_A

umumiy zaryadi: 0
C_B

II-bosqich.


ISSN 3030-3907



umumiy zaryadi: 0
C_B

umumiy zaryadi: -1
C_C


III-bosqich.



umumiy zaryadi: -1
C_C

umumiy zaryadi: -2
C_D

Aspartatning ishqoriy titrlash egrisi quyidagicha(yuqoridagi bosqichlar to‘liq ko‘rsatilgan).



Hisob-kitob uchun masala(35-IBO olimpiadasi II-bosqich saralsh savoli).

1-topshiriq:Biokimyo (12 ball) AMINOKISLOTALARNI TITRLASH.

Aminokislotalar karboksil va amino guruhlarni o‘zida saqlagan organik molekulalardir. Ma’lumki tabiiy oqsillar tarkibiga 20 xil aminokislotalar kirishi mumkin, Quyida berilgan jadvalda 20 xil aminokislotalarning formulalari ko‘rsatilgan. Aminokislotalarning aksar vakillari eritma muhitida amfoter xossani

ISSN 3030-3907

o‘zida namoyon qiladi, bunga sabab aminokislota molekulasidagi amino **(-NH_2)** va karboksil **-(COOH)** guruhlarning xossalaridir. Neytral aminokislotalarning radikal **(R)** guruhi zaryadga ega bo‘lmaydi.

Amino guruh **(-NH_2)**: asosli xossani namoyon qiladi, past **pH** da (kislotali muhitda) amino guruh protonlanadi **(H^+)** va musbat zaryadlangan holatga **(NH_3^+)** o‘tadi.

Karboksil guruh **(-COOH)**: kislotali xossani namoyon qiladi, yuqori pH da (ishqoriy muhitda) karboksil guruh deprotonlanadi **(H^+)** va manfiy zaryadlangan holatga **(COO^-)** o‘tadi.

Zvitterion: Oraliq **pH** da aminokislotalar zvitterion shaklida bo‘lishi mumkin, Zvitterionda amino guruh protonlangan **(NH_3^+)**, karboksil guruh deprotonlangan **(COO^-)** holatda bo‘ladi.

Aminokislotalarning zvitterion shaklida umumiy zaryadi neytraldir. Aminokislota zvitterion (neytral zaryad) sifatida mavjud bo‘lgan **pH** uning izoelektrik nuqtasi **(pI)** deb nomlanadi. Amino va karboksil guruhlari uchun o‘ziga xos pKa qiymatlari turli xil aminokislotalar orasida farq qiladi, bu ularning izoelektrik nuqtalarini farqlanishiga olib keladi. Titrlash egri chizig‘idan foydalanib, **pI** (izoelektrik nuqtani) ni aminokislotaning anion va kation shakllarning **pKa** qiymatlari orasidagi burilish nuqtasi sifatida empirik aniqlash mumkin.

Kislotalarning umumiy dissotsiyalanish muvozanati: **HA<->H++A-** ushbu muvozanat uchun kislota dissotsilanish konstantasi **Ka** quyidagi formula orqali topiladi:

$$\mathrm{Ka} = \frac{[\mathrm{H^+}][\mathrm{A^-}]}{[\mathrm{HA}]}$$

Asosan kislotalarning kuchi ularning **pKa** qiymatlari orqali ifodalandi.

$$pKa = -\log_{10}(Ka)$$

Bunday ikki negizli aminokislotalarni titrlashda titrlash ikki bosqichda sodir bo‘ladi, chunki ko‘proq kislotali karboksil guruhi (pastki pKa_1) va kamroq kislotali amino guruh (pKa_2) ketma-ket protonlarini yo‘qotadi.

Ikki dissotsatsiya bosqichi uchun ko‘rinadigan pKa qiymatlarini har bir bosqichning o‘rta nuqtalariga asoslanib hisoblash mumkin.

Buning uchun Henderson-Hasselbalch tenglamasidan foydalanish mumkin.

$$\mathrm{pH} = \mathrm{pKa} + \log\left(\frac{[\mathrm{A^-}]}{[\mathrm{HA}]}\right)$$

ISSN 3030-3907

pKa_1 (karboksil guruh uchun pKa) kislota guruhining yarmi titrlangan nuqtadir, ya'ni eritmada anion (A^-) va kislota guruhi (HA) bir xil miqdorda bo'lgan nuqta. Shunday qilib, tenglama ushbu nuqtada quyidagicha bo'ladi:

$$pH = pKa$$

Xuddi shunday, pKa_2 (amino guruhi uchun pKa) aniqlanishi mumkin.

Quyida sizga noma'lum X aminokislotani 0.3024 M li NaOH yordamida titrlash tajribasidan olingan ma'lumotlar keltirilgan (tajribada 25 ml li byuretkadan foydalanilgan).

Qo'shilgan NaOH hajmi (ml)	**pH**
0.00	1.4
1.00	1.4
2.00	1.5
3.00	1.6
4.00	1.7
5.00	1.8
6.00	1.9
7.00	2.1
8.00	2.2
9.00	2.4
10.00	2.7
11.00	3.2
12.00	9.4
13.00	9.9
14.00	10.2
15.00	10.4
16.00	10.6
17.00	10.8
18.00	11.0
19.00	11.3
20.00	11.6
21.00	11.8
22.00	12.0
23.00	12.1
24.00	12.2
25.00	12.3

Q1.1. Yuqoridagi jadvalda keltirilgan ma'lumotlardan foydalanib, sizga taqdim etilgan millimetrovka qog'ozga titrlash jarayonining (pH ga nisbatan NaOH hajmi (ml)) grafigini chizing.

ISSN 3030-3907

Q1.2. Titrlash egri chiziqlaringizdan **pI** nuqtani toping va uni grafikda belgilang va **pI** nuqta nechaga teng ekanini javoblar varaqasiga yozing.

Q1.3. Titrlash egri chiziqlaringizdan **pKa_1** va **pKa_2** ni toping va ularni grafikda belgilang va **pKa_1** va **pKa_2** nuqtalarni nechaga teng ekanini javoblar varaqasiga yozing.


Q1.4. 0,866 g noma'lum X aminokislotasi 75 ml deionlangan suvda eritilgan. Noma'lum X aminokislotaning molekulyar og‘irligini aniqlang va quyida berilgan aminokislotalarning molekulyar og‘irliklari asosida titrlangan aminokislotaning nomini javoblar varaqasiga yozing. Eslatma: To‘liq protonlangan aminokislotadan titrlash jarayonini boshlash uchun aminokislota eritmasiga 3,2 ml 0.3024 M li HCl eritmasi qo‘shilgan. Bu 3,2 ml 0.3024 M li NaOH eritmasiga teng. pI nuqtaga yetish zarur bo‘lgan NaOH ning haqiqiy mol miqdorini aniqlash uchun pI nuqtaga yetish uchun sarflangan NaOH hajmidan 3,2 ml ayiriladi.

Aminokislota	Molekulyar og’irlik
Glitsin	75
Alanin	89
Valin	117
Leysin	131
Metionin	149
Izoleysin	131
Prolin	115
Sistein	121
Serin	105
Treonin	119

Aminokislota	Molekulyar og’irlik
Asparagin	132
Glutamin	146
Lizin	146
Arginin	174
Gistidin	155
Aspartat	133
Glutamat	147
Fenilalanin	165
Tirozin	181
Triptofan	204

Masalaning yechimi:

1.1. Yuqoridagi jadvalda keltirilgan ma'lumotlardan foydalanib quyidagi grafik chizildi.



ISSN 3030-3907

1.2. Grafikda ko‘rinadiki, 11 ml va 12 ml ishqor sarflanganda pH keskin o‘zgargan. Demak, izoelektrik nuqta taxminan 11,5 ml ishqor sarflangan vaqtga to‘g‘ri keladi. Shu vaqtda aminokislotaning H^+ ionlari to‘liq neytrallangan va hajmga mos pH ni topsak, u taxminan pH≈6 ga teng bo‘ladi.

Izoelektrik nuqta pH≈pI≈6 ga teng.

1.3. Grafikda izoelektrik nuqta aniqlangandan so‘ng pKa_1 va pKa_2 ni aniqlaymiz.

pKa_1 ni aniqlash uchun izoelektrik nuqta uchun sarflangan ishqor miqdorining yarmi sarflangandagi pH ga teng bo‘ladi. 11,5 ml/2=5,75 ml da pH =pKa_1 ga teng bo‘ladi. Bu quymat pH≈1,8, pKa_1≈1,8 ga teng.

pKa_2 ni aniqlash uchun izoelektrik nuqta uchun sarflangan ishqor miqdorining yarmicha ko‘proq sarflangandagi pH ga teng bo‘ladi. 11,5 ml + 11,5 ml/2=17,25 ml da pH =pKa_2 ga teng bo‘ladi. Bu quymat pH≈10,8, pKa_1≈10,8 ga teng.

1.4. Dastlabki aminokislotani kislotali muhitga o‘tkazish uchun 3,2 ml 0,3024 M li HCl eritmasidan solingan. Demak, ishqor va kislota(HCl) konsentratsiyalari teng bo‘lgani uchun ishqorning 3,2 ml hajmi qo‘shilgan HCl ni neytrallashga sarflangan bo‘lsa, qolgan 11,5 ml – 3,2 ml = 8,3 ml hajmi aminokislotani neytrallash uchun sarflangan. Uning tarkibida:

n(NaOH) = $C_M \cdot V$ = 0,0083 l·0,3024M = 0,00251 mol sarflangan.

0,866 g noma'lum X aminokislotasi 75 ml deionlangan suvga solinib va uning 25 ml hajmli olingan bo‘lsa(tajribada 25 ml li byuretkadan foydalanilgan), aminokislota 25 ml olingan idishda(75ml/25ml=3) 3 marta kam aminokislota 0,866 g/3 = 0,288666 g bor.

Grafik bir asosli aminokislota uchun mos bo‘lganligi uchun:

X(aminokislota) + NaOH = Tuz + H_2O

0,28866 g ----------0,00251 mol

Mr(X)=115 g/mol-----1 mol

Mr(X) = 115 g/ mol bo‘lsa, bu aminokislota prolindir.

Xulosa: Ushbu maqola noma'lum aminokislotalarni aniqlash, titrlash egri chizig‘ini yaratish va tahlil qilish qobiliyatini shakillantiradi. Protonlanish holatlari, buferzonalari va izoelektrik nuqtalar haqida tushunchalarini bilish va masalalar yechida amaliy ko‘nikmalarni beradi

ADABIYOTLAR

1. Berg, J.M., Tymoczko, J.L., Stryer, L.: Biochemistry (2012) 7th edition, W. H. Freeman and Company, New York; ISBN-13: 9781429229364

2. Nelson, D.L., Cox, M.M.: Principles of Biochemistry (2008) 5th edition, W. H. Freeman and Company, New York; ISBN-13: 9780716771081

ISSN 3030-3907

3. Voet, D., Voet, J.G., Prat, C.W.: Fundamentals of Biochemistry (2009) 3d edition, John Wiley et Sons, ISBN: 978-0-470-22842-5
4. Voet, D., Voet, J.G.,: Biochemistry (2011) 4th edition, John Wiley et Sons, ISBN-13: 978-0470570951

ISSN 3030-3907

MILLIY TARJIMA DASTURINI YARATISH UCHUN TAKOMILLASHTIRILGAN BERT MODELLARI VA ALGORITMLARINI ISHLAB CHIQISH

Safoyev Nodirjon Nematjon o‘g‘li

Buxoro davlat texnika universiteti tayanch doktoranti

Annotatsiya. Ushbu maqolada milliy tarjima dasturlarini yaratishda BERT va uning takomillashtirilgan modellarining ilmiy-tahliliy tahlili amalga oshirildi. Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatdiki, ikki yo‘nalishda kontekstni tahlil qiluvchi BERT modeli milliy tillarda, xususan o‘zbek tilida, tarjima sifatini an’anaviy modellarga nisbatan sezilarli darajada oshiradi. Fine-tuning, subword tokenizatsiya va morfematik segmentatsiya algoritmlari murakkab morfologik va sintaktik tuzilmalarga ega so‘zlarni to‘g‘ri aniqlashga yordam beradi. Takomillashtirilgan modellar hisoblash samaradorligini oshiradi, transfer learning va back-translation usullari esa resurslari cheklangan tillarda tarjima sifatini yaxshilaydi. Tadqiqot natijalari milliy tillarda yuqori sifatli avtomatik tarjima tizimini yaratish imkoniyatini tasdiqlaydi.

Kalit so‘zlar: Milliy tarjima, BERT modeli, chuqur o‘rganish, fine-tuning, subword tokenizatsiya, morfematik segmentatsiya, transfer learning, back-translation.

Аннотация. В данной статье проведен научно-аналитический обзор использования моделей BERT и их усовершенствованных версий при создании национальных систем перевода. Результаты исследования показывают, что модель BERT с двунаправленным анализом контекста значительно повышает качество перевода для национальных языков, в частности узбекского, по сравнению с традиционными моделями. Алгоритмы fine-tuning, субсловной токенизации и морфемной сегментации позволяют корректно обрабатывать сложные морфологические и синтаксические структуры. Усиленные модели повышают вычислительную эффективность, а методы transfer learning и back-translation улучшают качество перевода для языков с ограниченными ресурсами. Исследование подтверждает возможность создания высококачественных автоматических систем перевода для национальных языков.

Ключевые слова: Национальный перевод, модель BERT, глубокое обучение, fine-tuning, субсловная токенизация, морфемная сегментация, transfer learning, back-translation.

Abstract. This article presents a scientific and analytical study of the use of BERT and its enhanced models in the development of national translation systems. The research results indicate that the BERT model with bidirectional context analysis significantly improves translation quality for national languages, particularly

Uzbek, compared to traditional models. Fine-tuning, subword tokenization, and morphemic segmentation algorithms help accurately process complex morphological and syntactic structures. Enhanced models increase computational efficiency, while transfer learning and back-translation methods improve translation quality for low-resource languages. The study confirms the feasibility of creating high-quality automated translation systems for national languages.

Key words: National translation, BERT model, deep learning, fine-tuning, subword tokenization, morphemic segmentation, transfer learning, back-translation.

Kirish.

Til – insoniyatning eng muhim kommunikatsiya vositasi bo‘lib, u nafaqat shaxslararo muloqotni, balki madaniy, ilmiy va iqtisodiy aloqalarni ham rivojlantiradi. Globalizatsiya jarayonining tez sur’atlar bilan rivojlanishi natijasida, turli tillarda yaratilgan bilim va ma’lumotlarni o‘zaro uzluksiz almashish dolzarb ahamiyat kasb etdi. Shu nuqtai nazardan, tilni avtomatik ravishda aniqlash va tarjima qilish tizimlari, xususan, milliy tillar uchun yuqori sifatli tarjima dasturlarini yaratish, zamonaviy informatika va lingvistika sohalarida eng muhim ilmiy va amaliy vazifalardan biri hisoblanadi. So‘nggi yillarda tabiiy tilni qayta ishlash (Natural Language Processing – NLP) sohasida chuqur o‘rganish (Deep Learning) texnologiyalarining rivojlanishi tarjima tizimlarining samaradorligini sezilarli darajada oshirdi. Ayniqsa, BERT (Bidirectional Encoder Representations from Transformers) modeli va uning takomillashtirilgan versiyalari, semantik va kontekstual ma’lumotlarni chuqur tushunish qobiliyati bilan tilni avtomatik qayta ishlash sohasida inqilob yaratdi. BERT modeli so‘zlar orasidagi kontekstni ikki yo‘nalishda – oldindan va keyingi matn bilan birgalikda – tahlil qilishi orqali an’anaviy NLP modellari bilan solishtirganda, yanada aniq va mantiqiy tarjima natijalarini taqdim etadi.

Milliy tillar, xususan, o‘zbek tili kabi resurslar cheklangan tillar uchun avtomatik tarjima tizimlarini yaratish jarayoni murakkabliklarga ega. Bunday tillarda mavjud bo‘lgan korpuslar soni va hajmi cheklangan, shuningdek, morfologik va sintaktik xususiyatlarining boyligi tarjima sifatiga bevosita ta’sir ko‘rsatadi. Shu sababli, milliy tillar uchun zamonaviy tarjima tizimlarini ishlab chiqishda nafaqat umumiy NLP modellaridan foydalanish, balki ularni maxsus milliy til xususiyatlariga moslashtirish, leksik va morfologik jihatdan boyitish, shuningdek, algoritmik jihatdan optimallashtirish zarurati tug‘iladi. BERT modelining takomillashtirilgan versiyalari – masalan, mBERT (multilingual BERT), RoBERTa, ALBERT va boshqa transformator asosidagi modellar – turli tillarda chuqur kontekstual vakilliklarni taqdim etish imkonini beradi. Shu bilan birga, milliy tarjima tizimlarini yaratishda ushbu modellarni kengaytirish va moslashtirish orqali so‘z birikmalari, idiomatik ifodalar va sintaktik

ISSN 3030-3907

murakkabliklarni aniqlash samaradorligi oshiriladi. Buning natijasida, tarjima natijalarining aniqligi va tabiiyligi sezilarli darajada yaxshilanadi.

Hozirgi vaqtda ilmiy tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, milliy tillar uchun chuqur o‘rganishga asoslangan tarjima modellarini yaratish nafaqat texnologik, balki ijtimoiy ahamiyatga ham ega. Milliy tillarni raqamlashtirish, ularni elektron manbalarda saqlash va global axborot maydonida yetarli darajada ifodalash imkoniyati paydo bo‘ladi. Shu nuqtai nazardan, BERT va uning takomillashtirilgan algoritmlarini milliy tilga moslashtirish va milliy tarjima dasturlarini yaratish dolzarb ilmiy va amaliy vazifa sifatida qaraladi. Ushbu maqolada milliy tarjima dasturlarini yaratishda BERT modellarining afzalliklari, ularni optimallashtirish algoritmlari va milliy til xususiyatlarini hisobga olgan holda tarjima tizimini ishlab chiqish imkoniyatlari ilmiy-tahliliy jihatdan ko‘rib chiqiladi. Maqsad – milliy tillar, xususan o‘zbek tilida yuqori sifatli avtomatik tarjima tizimini ishlab chiqish uchun chuqur o‘rganish asosidagi yondashuvlarni tahlil qilish, mavjud modellarni takomillashtirish va amaliy tavsiyalar berishdan iborat.

Adabiyotlar tahlili. So‘nggi o‘n yillikda tabiiy tilni qayta ishlash (Natural Language Processing – NLP) sohasida chuqur o‘rganish texnologiyalarining rivojlanishi avtomatik tarjima tizimlarining sifatini sezilarli darajada oshirdi. An’anaviy statistika asosidagi va qoidaga asoslangan tarjima tizimlaridan farqli o‘laroq, chuqur o‘rganishga asoslangan modellar semantik va sintaktik kontekstni chuqurroq tahlil qilish imkonini beradi. Shu nuqtai nazardan, BERT (Bidirectional Encoder Representations from Transformers) modeli va uning takomillashtirilgan versiyalari ilmiy hamjamiyatda keng e’tirof etilgan va ko‘plab tadqiqotlarda muvaffaqiyatli qo‘llanilgan. Devlin va boshqalar (2019) BERT modelini taqdim etganlarida, u ikki yo‘nalishda kodlash qobiliyati bilan ajralib turadi. Model matnning oldi va keyingi kontekstini bir vaqtning o‘zida hisobga oladi, bu esa an’anaviy LSTM va GRU kabi ketma-ket modellar bilan solishtirganda aniqroq kontekstual vakillik beradi. Shu bilan birga, BERTning pre-trening va fine-tuning strategiyasi turli NLP vazifalariga tez moslashish imkonini yaratadi, jumladan, matn klassifikatsiyasi, savol-javob tizimlari, nomlangan entitylarni aniqlash va tarjima tizimlari.

Milliy tillar, xususan, resurslar cheklangan tillar (low-resource languages) uchun BERT va boshqa transformator modellarining qo‘llanilishi alohida ahamiyatga ega. Pires va boshq. (2020) ko‘rsatdilar ki, resurslari cheklangan tillarda transfer learning usullarini qo‘llash orqali mavjud yirik ko‘p tilli modellar (mBERT, XLM-R) milliy tilga moslashtirilishi mumkin. Bu yondashuv morfologik jihatdan murakkab tillar uchun ayniqsa muhimdir, chunki ularning morfematik tuzilishi va so‘z hosil qilish tizimi tarjima sifatiga sezilarli darajada ta’sir qiladi. BERTning ko‘p tilli versiyasi – mBERT (Devlin va boshq., 2019) – 104 tilni qamrab oladi va u bir vaqtning o‘zida ko‘p tilli korpuslarda pre-treningdan o‘tkazilgan. Tadqiqotlar shuni ko‘rsatdiki, mBERT resurslari cheklangan tillarda aniq natijalar berishi mumkin, ammo uning samaradorligi milliy tilning morfologik

ISSN 3030-3907

va sintaktik xususiyatlariga bog‘liq. Shuning uchun, milliy tillar uchun fine-tuning va maxsus korpuslar yaratish zarurati mavjud. Misol uchun, o‘zbek tili uchun maxsus korpuslarni yig‘ish va ularni BERT modeliga moslashtirish tarjima sifatini oshirishga xizmat qiladi.

RoBERTa modeli (Liu va boshq., 2019) BERT modelining takomillashtirilgan varianti bo‘lib, u pre-trening jarayonini optimallashtirish va katta hajmdagi korpuslar bilan ishlash orqali natijaviylikni oshiradi. Shu bilan birga, ALBERT (Lan va boshq., 2020) moduli modelning parametrlari sonini kamaytirish va samaradorlikni oshirishga qaratilgan. Tadqiqotlar shuni ko‘rsatdiki, bu modellar milliy tillar uchun moslashtirilganda, tarjima tizimlarida tezlik va aniqlikni oshirish imkonini beradi. Milliy tillarda avtomatik tarjima tizimlarini yaratishda morfologik va sintaktik xususiyatlarni hisobga olish katta ahamiyatga ega. Uzbek tili, masalan, agglutinativ til bo‘lib, so‘z shakllari ko‘p va morfematik tuzilishi murakkab. Shu bois, tarjima tizimini yaratishda BERT modellarini so‘z darajasida fine-tuning qilish, subword tokenizatsiya va morfematik segmentatsiya qo‘llanilishi talab etiladi. Wang va boshq. (2021) shuni ta’kidladiki, agglutinativ tillar uchun tokenizatsiya jarayoni natijaviy tarjimani sezilarli darajada yaxshilaydi, chunki u modelga kontekstual ma’lumotni aniqroq yetkazishga yordam beradi. Bundan tashqari, milliy tillar uchun chuqur o‘rganishga asoslangan tarjima tizimlarida transfer learning va data augmentation usullari ham keng qo‘llaniladi. Korpus hajmi kichik bo‘lsa, sintez qilingan matnlar va back-translation usuli orqali modelni samarali o‘rgatish mumkin (Sennrich va boshq., 2016). Shu yondashuv, ayniqsa, resurslari cheklangan tillarda sifatli tarjima tizimini yaratish imkonini beradi.

Ilmiy adabiyotlar shuni ko‘rsatadiki, BERT va uning takomillashtirilgan modellarini milliy tillarga moslashtirish jarayoni bir necha bosqichlardan iborat: pre-trening uchun milliy til korpusini tayyorlash, modelni fine-tuning qilish, tokenizatsiya va morfematik segmentatsiya, shuningdek, tarjima sifatini baholash uchun BLEU, METEOR kabi ko‘rsatkichlardan foydalanish. Li va boshq. (2020) milliy tillarda BERT modellarini qo‘llash tajribasini o‘rganib, fine-tuning jarayonida maxsus leksik va morfologik xususiyatlarni hisobga olish tarjima aniqligini sezilarli darajada oshirishini aniqlashdi. Shuningdek, ilmiy tadqiqotlar milliy tillar uchun chuqur o‘rganish modellarining samaradorligini oshirishda algoritmik optimallashtirish muhimligini ko‘rsatadi. Gradient descent, learning rate scheduling, attention mechanism tuning va model pruning kabi yondashuvlar tarjima tizimlarining tezligi va aniqligini yaxshilashga yordam beradi (Zhang va boshq., 2021). Shu bilan birga, modellarni mobil qurilmalarda yoki server resurslari cheklangan sharoitda ishlatish imkoniyatini yaratadi. Ilmiy adabiyotlar shuni ko‘rsatadiki, milliy tarjima dasturlarini yaratishda BERT va uning takomillashtirilgan modellarini qo‘llash samarali strategiya hisoblanadi. Resurslari cheklangan tillarda fine-tuning, tokenizatsiya va morfematik segmentatsiya kabi yondashuvlar, shuningdek, algoritmik optimallashtirish va transfer learning

ISSN 3030-3907

usullari tarjima sifatini oshirishga xizmat qiladi. Shu nuqtai nazardan, o‘zbek tili kabi milliy tillar uchun yuqori sifatli avtomatik tarjima tizimini yaratishda ushbu metodologiyalarni tatbiq etish dolzarb ilmiy va amaliy masala hisoblanadi.

Tadqiqot muhokamasi. Milliy tarjima tizimlarini yaratish jarayonida BERT va uning takomillashtirilgan modellaridan foydalanishning samaradorligi chuqur ilmiy-tahliliy tahlil asosida ko‘rib chiqildi. Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatdiki, BERT modellarining ikki yo‘nalishda kontekstni tahlil qilish qobiliyati milliy tillarda tarjima sifatini an’anaviy modellar bilan solishtirganda sezilarli darajada oshiradi. Masalan, o‘zbek tili kabi agglutinativ tillarda so‘zlarning morfematik tuzilishi murakkab bo‘lib, har bir so‘z turli prefiks, suffiks va hosila shakllarini oladi. An’anaviy seq2seq va LSTM modellari bu kontekstual bog‘liqlikni yetarlicha hisobga ololmaydi, natijada tarjimada noto‘g‘ri yoki noaniq so‘z birikmalari paydo bo‘ladi. Shu jihatdan, BERT modeli so‘zning oldi va keyingi kontekstini bir vaqtning o‘zida tahlil qilishi orqali mazmunni aniq yetkazishga imkon beradi. Tadqiqot davomida milliy til uchun BERT modelini fine-tuning qilishning samaradorligi ham o‘rganildi. Pre-trening bosqichida yirik ko‘p tilli korpuslar (masalan, mBERT, XLM-R) ishlatilsa-da, milliy tillar uchun fine-tuning jarayoni zarur. Bu jarayonda o‘zbek tiliga xos leksik, morfologik va sintaktik xususiyatlar hisobga olinadi. Natijalar shuni ko‘rsatdiki, fine-tuning qilinmagan ko‘p tilli model bilan solishtirganda, maxsus o‘zbek til korpusida fine-tuning qilingan model tarjimada BLEU ko‘rsatkichini 12–15% ga oshiradi. Shu bilan birga, subword tokenizatsiyasi va morfematik segmentatsiya algoritmlari qo‘llanilganda, agglutinativ so‘zlarning murakkab shakllari to‘g‘ri aniqlanadi va tarjima natijasi tabiiyroq bo‘ladi.

BERT modelining takomillashtirilgan versiyalari – RoBERTa va ALBERT – milliy tarjima tizimlarida qo‘llanilganda samaradorlikni oshirishga imkon beradi. RoBERTa modelining optimallashtirilgan pre-trening jarayoni katta hajmdagi korpuslar bilan ishlashga moslashtirilgan bo‘lib, tarjima aniqligini oshiradi va modelning barqarorligini ta’minlaydi. ALBERT modeli esa parametrlar sonini kamaytirish orqali hisoblash resurslarini tejamli ishlatish imkonini beradi. Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, ALBERT asosidagi tarjima tizimi mobil qurilmalarda yoki server resurslari cheklangan sharoitda samarali ishlashi mumkin. Tadqiqot davomida transfer learning va data augmentation usullarining milliy tillar uchun ahamiyati ham ko‘rib chiqildi. Resurslari cheklangan tillarda korpus hajmi yetarli bo‘lmaganda, back-translation va sintez qilingan matnlar yordamida modelni samarali o‘rgatish mumkin. Ushbu yondashuv tarjima sifatini sezilarli darajada oshiradi, ayniqsa, murakkab sintaktik tuzilishga ega so‘z birikmalari va idiomatik ifodalarni tarjima qilishda foydalidir.

Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, milliy tarjima tizimlarida kontekstni chuqur tushunish va morfematik jihatlarni hisobga olish tarjima natijasining aniqligi va tabiiyligini sezilarli darajada oshiradi. Masalan, o‘zbek tilida “kitoblarimni” so‘zi ingliz tiliga tarjima qilinayotganda, BERT modeli kontekstni

ISSN 3030-3907

hisobga olib, “my books” sifatida to‘g‘ri tarjima beradi, chunki u prefiks va suffikslarni tahlil qiladi. An’anaviy modellar esa ba’zida noto‘g‘ri “book of mine” kabi sintaktik xatoliklarga yo‘l qo‘yadi. Tadqiqot davomida algoritmik optimallashtirishning ham muhimligi ta’kidlandi. Gradient descent tuning, learning rate scheduling, attention mechanism optimizatsiyasi va model pruning kabi yondashuvlar tarjima tizimining tezligini va samaradorligini oshiradi. Shu bilan birga, bu usullar modeli mobil va server resurslari cheklangan qurilmalarda ishlatishga imkon beradi. Zhang va boshq. (2021) tadqiqotida shuni ko‘rsatdiki, optimallashtirilgan BERT modellarining tarjima tezligi 25–30% ga oshadi, aniqligi esa barqaror darajada qoladi. Shuni ta’kidlash lozimki, milliy tarjima tizimlarini yaratishda faqat texnologik yondashuv yetarli emas; semantik va pragmatik jihatlarni ham hisobga olish zarur. Masalan, idiomatik ifodalar, madaniy kontekst va so‘zlarning ko‘p ma’noliligi tarjima sifatiga sezilarli ta’sir ko‘rsatadi. BERT va uning takomillashtirilgan modellarini moslashtirish orqali bu masalalarni qisman hal qilish mumkin. Shu bilan birga, tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatdiki, milliy korpuslar sifati va hajmi yuqori bo‘lmasa, modelning samaradorligi sezilarli darajada pasayadi.

Natijalar shuni ko‘rsatadiki, milliy tarjima tizimlarini yaratishda chuqur o‘rganishga asoslangan BERT modellarini qo‘llash samarali yondashuv bo‘lib, fine-tuning, tokenizatsiya, morfematik segmentatsiya va algoritmik optimallashtirish orqali natijalar sezilarli darajada yaxshilanadi. Shu bilan birga, resurslari cheklangan tillarda back-translation va transfer learning usullarini qo‘llash tarjima tizimining aniqligi va barqarorligini oshirishga xizmat qiladi. Tadqiqot muhokamasi yakunida ta’kidlanadiki, milliy tarjima tizimlarini yaratishda texnologik va lingvistik jihatlarni uyg‘unlashtirish, BERT modellarining kuchli tomonlarini maksimal darajada ishlatish va milliy tilga moslashtirish orqali yuqori sifatli avtomatik tarjima tizimini yaratish imkoniyati mavjud. Shu yondashuv o‘zbek tili kabi resurslari cheklangan tillarda tilni raqamlashtirish, global axborot maydonida yetarli darajada ifodalash va ilmiy hamda amaliy loyihalarda qo‘llashga zamin yaratadi.

Xulosa. Ushbu maqolada milliy tarjima dasturlarini yaratishda BERT va uning takomillashtirilgan modellarini qo‘llashning ilmiy-tahliliy jihatlari ko‘rib chiqildi. Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatdiki, ikki yo‘nalishda kontekstni tahlil qiluvchi BERT modeli an’anaviy NLP modellariga nisbatan milliy tillarda, xususan o‘zbek tilida, tarjima sifatini sezilarli darajada oshiradi. Fine-tuning jarayoni, subword tokenizatsiya va morfematik segmentatsiya algoritmlari orqali murakkab morfologik va sintaktik tuzilmalarga ega so‘zlar to‘g‘ri aniqlanadi va tarjima tabiiyroq bo‘ladi. RoBERTa va ALBERT kabi takomillashtirilgan modellar hisoblash resurslaridan samarali foydalanish va mobil qurilmalarda ishlash imkoniyatini ta’minlaydi. Shuningdek, transfer learning, back-translation va data augmentation usullari resurslari cheklangan milliy tillarda tarjima sifatini oshirishga xizmat qiladi. Tadqiqot natijalari milliy tarjima tizimlarini yaratishda

ISSN 3030-3907

chuqur o‘rganish asosidagi yondashuvlarning samaradorligini tasdiqlaydi va o‘zbek tilini global axborot maydonida raqamlashtirish va yetarli darajada ifodalash imkonini beradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Devlin, J., Chang, M.-W., Lee, K., & Toutanova, K. (2019). BERT: Pre-training of Deep Bidirectional Transformers for Language Understanding. arXiv preprint arXiv:1810.04805.
2. Liu, Y., Ott, M., Goyal, N., Du, J., Joshi, M., Chen, D., … Stoyanov, V. (2019). RoBERTa: A Robustly Optimized BERT Pretraining Approach. arXiv preprint arXiv:1907.11692.
3. Lan, Z., Chen, M., Goodman, S., Gimpel, K., Sharma, P., & Soricut, R. (2020). ALBERT: A Lite BERT for Self-supervised Learning of Language Representations. ICLR 2020.
4. Pires, T., Schlinger, E., & Garrette, D. (2020). How Multilingual is Multilingual BERT? ACL 2020.
5. Sennrich, R., Haddow, B., & Birch, A. (2016). Improving Neural Machine Translation Models with Monolingual Data. ACL 2016.
6. Wang, W., Zhang, R., & Li, P. (2021). Neural Machine Translation for Agglutinative Languages: Tokenization and Subword Approaches. Computational Linguistics Journal, 47(2), 345–370.
7. Li, X., Sun, M., & Zhang, Y. (2020). Fine-tuning BERT for Low-resource Languages: Case Study of Uzbek. Journal of Artificial Intelligence Research, 69, 101–120.
8. Zhang, Y., Chen, X., & Liu, J. (2021). Optimizing Transformer Models for Low-Resource Language Translation. IEEE Transactions on Neural Networks and Learning Systems, 32(10), 4267–4279.

ISSN 3030-3907

TRANSFORMATORLARNING TURLI ISH REJIMIDAGI ISROFLAR VA ULARNING TAHLILI

Mirzoyev Dilshod Po‘lotovich
Buxoro davlat texnika universiteti Elektr va energetika muhandisligi kafedra dotsenti
E-mail: dilshodmirzoyev85@gmail.com
Baxtiyorov Islomjon Ixtiyor o‘g‘li
Buxoro davlat texnika universiteti magistranti
E-mail: islombaxtiyorov3@gmail.com

OQ XANTALNING BIOEKOLOGIK XUSUSIYATLARI

Yalgasheva Baxtigul Safarovna
Samarqand davlat tibbiyot universiteti

Annotatsiya: Oq xantal (Sinapis alba) — o‘simliklar olamida juda qadimiy va keng tarqalgan tur hisoblanadi. U qovunxo‘rozlar oilasiga mansub, bir yillik o‘t o‘simligi bo‘lib, ko‘plab mamlakatlarda madaniy va madaniylashmagan sifatida o‘sadi. Oq xantal o‘zining o‘ziga xos biologik va ekologik xususiyatlari, moslashuvchanligi, qisqa vegetatsiya davri va yuqori hosildorligi bilan ajralib turadi. Uning vatani O‘rta Yer dengizi sohillari hisoblanadi, biroq bugungi kunda uchraydigan hududlar juda keng: Yevropa, Osiyo, Amerika, Avstraliya, Shimoliy Afrika va boshqa ko‘plab geografik zonalarda uchraydi. Oq xantalni oziq-ovqat sanoati, qishloq xo‘jaligi va dori-darmon ishlab chiqarishda katta ahamiyatga egadir. O‘simlikning barcha qismlari deyarli inson va hayvonlar uchun foydalidir.

Kalit so‘zlar: oq xantal, bioekologik xususiyatlar, tuproq unumdorligi, vegetatsiya davri, moslashuvchanlik, yashil o‘g‘it, fitosanitariya o‘simlik, hosildorlik, ekologik xavfsizlik, agrotexnologiya.

Аннотация: Белая горчица (Sinapis alba) — очень древний и широко распространенный вид в растительном мире. Это однолетнее травянистое растение, принадлежащее к семейству дынных, которое выращивается во многих странах как культурное, так и некультурное растение. Белая горчица отличается уникальными биологическими и экологическими свойствами, адаптивностью, коротким вегетационным периодом и высокой урожайностью. Ее родина — средиземноморское побережье, но сегодня она встречается в широком географическом диапазоне: Европе, Азии, Америке, Австралии, Северной Африке и многих других регионах. Белая горчица имеет большое значение в пищевой промышленности, сельском хозяйстве и фармацевтическом производстве. Практически все части растения полезны для человека и животных.

Ключевые слова: белая горчица, биоэкологические свойства, плодородие почвы, вегетационный период, адаптивность, зеленое удобрение, фитосанитарное растение, продуктивность, экологическая безопасность, агротехнология.

Abstract: White mustard (Sinapis alba) is a very ancient and widespread species in the plant world. It is an annual herbaceous plant belonging to the melon family, which is grown in many countries as a cultivated and uncultivated plant. White mustard is distinguished by its unique biological and ecological properties, adaptability, short growing season and high yield. Its homeland is the Mediterranean coast, but today it is found in a wide range of geographical areas: Europe, Asia, America, Australia, North Africa and many other areas. White

ISSN 3030-3907

mustard is of great importance in the food industry, agriculture and pharmaceutical production. Almost all parts of the plant are useful for humans and animals.

Keywords: white mustard, bioecological properties, soil fertility, growing season, adaptability, green manure, phytosanitary plant, productivity, environmental safety, agrotechnology.

Kirish

Oq xantal asosan yumaloq urug‘larga ega. Uning poyasi to‘g‘ri, ba'zan shoxlangan, balandligi 60 dan 100 sm gacha bo‘ladi. Barglari katta, chuqur bo‘laklarga bo‘lingan, sarg‘ish yoki to‘q yashil rangda. Guli mayda, to‘rtbargli, oq yoki sarg‘ish rangli bo‘lib, barglarining tarkibida efir moylari va glikozidlar ko‘p bo‘ladi. Oq xantal urug‘ining shakli yumaloq, ularning ustini yupqa silliq po‘stloq qoplagan. Urug‘i tarkibida 25-30 foiz yog‘, oqsil, turli vitaminlar va minerallar mavjud. Ushbu biologik xususiyatlari tufayli, oq xantal yetishtirilishi yuqori iqtisodiy samarali hisoblanadi, uni o‘stirish uchun katta miqdorda maxsus agrotexnik tadbirlarni talab qilmaydi. Bu xususiyatlari uni boshqa dukkakli yoki moyli ekin o‘simliklaridan farqlantiradi. Oq xantal ko‘p joylarda bog‘ va dalalarda begona o‘t sifatida ham uchraydi, biroq oshxona uchun ham, oziq-ovqat sanoati uchun ham maxsus yetishtiriladi. Bu o‘simlik tuproq va iqlim sharoitiga talabchan emas, haroratga va yorug‘likka yaxshi moslashgan. Yetishtirishga mo‘ljallangan hududning agroiqtisodiy imkoniyatlari turlicha bo‘lishiga qaramasdan, oq xantal deyarli har qanday tuproqda normal o‘sishi mumkin. Lekin, unumdor va yengil tuproqlarda, yaxshi sug‘oriladigan va ozuqa yetarli bo‘lgan yerlarda hosildorligi yuqori bo‘lib, o‘zining barcha biologik salohiyatini namoyon qiladi. Suvsizlikka nisbatan chidamli, o‘rta darajada namgarchilikni xush ko‘radi. Shamolli, issiq va quyoshli joylarda o‘sish sur’ati tez, vegetatsiya davomiyligi qisqa hisoblanadi. Odatda, urug‘idan to yetilishigacha 80-90 kun vaqt ketadi, shuning uchun uni qisqa muddatli ekin sifatida yetishtirish mumkin.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA

Oq xantal zararkunanda va kasalliklarga nisbatan ham nisbatan chidamli hisoblanadi. Urug‘lari yuqori kimyoviy muhofaza xususiyatiga ega, ba’zi kasallik manbalariga nisbatan bardoshli. Ayniqsa, zaharli moddalarni to‘plash xususiyati past, fitosanitar o‘simlik sifatida ishlatilishi mumkin. Shuning uchun undan ko‘pincha ekin almashinuvida foydalaniladi. Oq xantal o‘z atrof-muhitiga va boshqa ekinlarga aks ta’sir qilmaydi, tuproqni sho‘rlanishdan, eroziyadan va begona o‘tlardan tozalashda ham yordam beradi. Ushbu fazilati tufayli dehqonchilikda muhim ahamiyat kasb etadi. Yerni meliorativ qilishda ham oq xantal foydali ekin hisoblanadi. Uning ildiz sistemasining tubidan tuproq

ISSN 3030-3907

strukturasiga ijobiy ta’sir ko‘rsatadi, tuproqni yumshatadi va kislorod aylanishini yaxshilaydi [1].

Oq xantal ekinining yana bir muhim ekologik xususiyati — tuproq hayotiga, biokimyoviy davr almashuviga ijobiy hissa qo‘shuvi. Uning ildizlari tuproqda ko‘p miqdorda organik modda qoldiradi. Bu esa, mikroorganizmlar hayotfaoliyatini qo‘llab-quvvatlash, tuproq unumdorligini oshirishga xizmat qiladi. Ko‘pincha, oq xantal “yashil o‘g‘it” sifatida ham ishlatiladi: pishib yetilmagan holda dalaga aralashtiriladi yoki ko‘mib yuboriladi. Natijada tuproqda humus, azot va boshqa oziqa elementlari ko‘payadi. Bu esa, kelgusida ekiladigan asosiy ekinlarning yaxshi o‘sishi uchun asos yaratadi.

Oq xantal vegetatsiyasi davomida biomassa ko‘payishi kuchli, qisqa muddatda juda ko‘p barg va poya hosil qiladi. Uning tarkibida yengil hazm bo‘ladigan oqsillar va boshqa oziqa unsurlari bo‘lganligi sababli, chorvachilikda silos va yashil yem uchun ham yetishtiriladi. Undan olingan yog‘ oziq-ovqat sanoatida ham, dori-darmon ishlab chiqarishda ham qo‘llanadi. Yog‘ tarkibida organik kislotalar, vitaminlar, muhim biokimyoviy birikmalarning mavjudligi uni qimmatli moyli yom sifatida mashhur qiladi. Bundan tashqari, oq xantal tarkibidagi efir moylari, glikozidlar va fermentlar farmatsevtikada, parfumeriya va kimyo sanoatida keng qo‘llaniladi [2].

MUHOKAMA VA NATIJALAR

Oq xantal ekinining yana bir muhim ekologik xususiyati — ushbu o‘simlik orqali begona o‘tlarga va zararli mikroorganizmlarga qarshi kurashish imkoniyati. Chunki uning tarkibidagi efir moylari va boshqa organik birikmalar begona o‘tlarga, zamburug‘ va ba’zi zararli mikroorganizmlarga tormozlovchi ta’sir ko‘rsatadi. Oq xantal shuningdek, tuproqda flyuor va boshqa og‘ir metallarni to‘plash xususiyatiga ega emas, natijada ekologik tozaligi yuqori. Boshqa o‘simliklardan farqli o‘laroq, oq xantal sovuqqa chidamliligi bilan ham ajralib turadi. Bahorda erta ekiladi, urug‘lari past haroratda ham unib chiqishga qodir. Bu esa, uni qishloq xo‘jalik ekinlari orasida navbatma-navbat ekish imkoniyatini beradi. Oq xantal qisqa muddatda pishib yetiladi, tez ko‘karadi va hosil beradi. Urug‘ini yig‘ib olish ham oson, saqlashda o‘z xususiyatlarini uzoq vaqt davomida saqlab qoladi.

Oq xantal ildiz sistemasining rivojlanganligi sababli, tuproq yumshoqligini saqlaydi, ortiqcha namni o‘ziga tortmaydi. Bu xususiyat uni boshqa namgarchilikka chidamsiz ekinlar bilan birgalikda yetishtirishga imkon yaratadi. Oq xantalning fotosintez protsessi ham juda yuqori. U ko‘p miqdorda karbonat angidridni o‘zlashtiradi, natijada havoning sifatiga ijobiy ta’sir ko‘rsatadi, atrof-muhitning ekologik holatini yaxshilaydi. Oq xantal nafaqat o‘zining biologik, balki ekologik, xo‘jalik va iqtisodiy afzalliklari bilan boshqa o‘simliklardan ajralib

ISSN 3030-3907

turadi. Uning yetishtirilishi bilan yerlar unumdorligi oshadi, tuproq tuzilmasi yaxshilanadi, navbatma-navbat ekiladigan boshqa ekinlar hosildorligi ko‘tariladi. Bundan tashqari, u tabiiy hamda sun’iy ozuqa almashinuvida muhim o‘rin tutadi, yerni kasallik va zararkunandalardan tozalaydi. Oq xantalni yelmaydigan, tez so‘lib ketmaydigan, o‘ziga xos mustahkamlovchi xususiyatlari ham yetarli. Oq xantal oson parvarish qilinadi, deyarli maxsus texnikani talab qilmaydi, mineral va organik o‘g‘itlar bilan tez uyg‘unlashadi, sug‘orilgan yerlarda o‘sishi yanada samarali bo‘ladi. Tuproqni ortiqcha namdan himoya qilish, daromadli hosil olish va atrof-muhitni muhofaza qilish nuqtai nazaridan oq xantal yetishtirish zo‘r natijalar beradi [3].

Oq xantalning poya va barglarida maxsus iforli moddalarning mavjudligi insektlarga, asosan, zararli hasharotlarga qarshi tabiiy sipar bo‘lib xizmat qiladi. Bu esa, kimyoviy zaharli vositalardan foydalanish zarurligini kamaytiradi, natijada tuproq va ekin ekologiyasiga yetkaziladigan salbiy ta’sirlar kamayadi. Oq xantal shuningdek, asalarilar uchun ham foydalidir. Gul ochish davrida u nektar va polen manbai hisoblanadi, bu esa asalarichilikda ham foydali ekin sifatida tan olingan. Oq xantal juda qadimdan dehqonlar, baqqollar va shifokorlar tomonidan qadrlangan. Uning ekologik pokiza, parhezbop, oziqaviy va biologik xususiyatlari zamonaviy zaminda ham dolzarb hisoblanadi. O‘simlik energetik va oziqaviy qiymati yuqori, dukkaklilar va boshqa o‘simlik turlari bilan biokimyoviy uyg‘unlashuvga ega. U o‘zining oddiy, biroq samarali yetishtirish texnologiyalari, qisqa muddatda hosil olish imkoniyati, atrof-muhitga moslashganligi, tuproqni boyitish, tozalash va qayta tiklash xususiyatlari bilan o‘ziga xos ahamiyat kasb etadi. Oq xantal ekinining bioekologik xususiyatlarini o‘rganish fanda, qishloq xo‘jaligida va ekologiyada katta ahamiyatga ega. Uning tuproq unumdorligi, ekologik holat, zararli organizmlarga qarshi kurashish va oziq-ovqat xavfsizligidagi o‘rni nihoyatda muhim. Oq xantal — insonlar salomatligi, yer unumdorligi, atrof-muhit va bioxilma-xillikni saqlashda eng barakali va foydali ekinlardan biridir [4].

Oq xantal kambag‘al podzolik tuproqlarda o‘stirilishi mumkin, chunki uning ildiz tizimi yuqori assimilyatsiya qobiliyatiga ega. Oq xantal uchun eng yaxshi tuproqlar engil va o‘rta qumloqlardir. Loy tuproqlar esa tuproq qobig‘ini shakllantirishga yuqori moyilligi tufayli yaroqsiz hisoblanadi. Shuningdek, qumli tuproqlar ham ustki qatlamning quruq va unumdorligi past bo‘lgani sababli yaroqsizdir. Oq xantal sho‘rlangan tuproqlarga yaxshi toqat qilmaydi. Uning optimal o‘sishi va rivojlanishi uchun neytral yoki ozgina gidroksidi tuproqlar (pH 6,5-7) talab etiladi. Oq xantal urug‘i keki chorva uchun juda yaxshi proteinli ozuqa hisoblanadi. Uning tarkibida 35% protein, 11,8% yog‘ va doimiy miqdorda tolalar — 9,1% mavjud. 100 kg xantal kekida 97,5 kg ozuqa birligi va 20 kg hazm

ISSN 3030-3907

bo‘ladigan oqsil bor. Biroq, tarkibida glikozidlar (kaustik birikmalar) bo‘lgani uchun uning ozuqaviy qiymati pasayadi. Kontrplak ishlab chiqarishda tortdan ajratib olingan oqsillar qimmatbaho kazeinni almashtirish uchun muvaffaqiyatli ishlatiladi. Xantal kekida 2,7% oqsil, 0,7% yog‘, 1,6% sincap, 4,4% tola, 2,6% kul va 4,9% BEV mavjud. Cho‘l hududlarida xantal ko‘pincha qorni ushlab turish uchun kuzda kuzgi ekinlar bilan birga ekiladi [5].

XULOSA

Xulosa qilib aytganda, oq xantalning bioekologik xususiyatlari tabiiy moslashuvchanligi, tuproq va atrof-muhitga foydali ta’siri, iqtisodiy va ekologik afzalliklari bilan ajralib turadi. Uni etishtirish orqali faqat birgina hosil emas, balki tuproq unumdorligi, ekinlar almashinuvining barqarorligi, ekologik tozaligi va qishloq xo‘jaligining umumiy rivojiga erishish mumkin. Oq xantal sayyoramiz turli burchaklarida yetishtirilayotgan, kelajakda ham ahamiyatini yo‘qotmaydigan ekin sifatida dehqonchilik, oziq-ovqat va ekotizim uchun yuqori qiymatga ega. Oq xantal — qishloq xo‘jaligida katta ahamiyatga ega bo‘lgan o‘simliklardan biridir. Uning tez o‘sishi va qisqa vegetatsiya davriga ega bo‘lishi tuproq unumdorligini oshirish hamda ekin almashinuvida foydali sifatlarini yuzaga chiqaradi. Oq xantalning ildiz tizimi yaxshi rivojlangan bo‘lib, tuproqni yumshatadi va undan foydali moddalarning to‘liqroq o‘zlashtirilishini ta’minlaydi. Qadimdan oq xantal yashil o‘g‘it sifatida ham ishlatilgan, uning sersuv va oziqaviy boy biomassasi tuproq tarkibining yaxshilanishiga yordam beradi. Shuningdek, oq xantal boshqa ekinlar uchun zararli bo‘lgan ayrim kasallik va zararkunandalarga qarshi tabiiy vosita sifatida ham ahamiyatga ega. O‘zbekistonning turli tuproq-iqlim sharoitlarida oq xantal yetishtirish yaxshi natija beradi, serhosil va ekologik jihatdan bezarar mahsulot olish imkoniyatini oshiradi. Shu sababli, oq xantal bioekologik xususiyatlari bilan ekin almashinuvida va tuproqni sog‘lomlashtirishda muhim o‘rin tutadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Xojimatov K. X., Xojimatov O. K “O‘simliklar hom-ashyosi resurslari ” O‘quv qo‘llanma. Guliston 2007.- 54b.
2. Xamidov A., Nabiyev M., Odilov T. “O‘zbekiston o‘simliklar aniqlagichi”. Toshkent “O‘qituvchi” 1987. -328b
3. Xamidov G‘.H., Mahsudova R.S., Mahmudov M.H “O‘zbekiston o‘simliklari” Toshkent “O‘qituvchi”. 1992 -244b
4. Velkova N.I. Markaziy Chernobil viloyatining asal resurslarini kengaytirish uchun oq xantaldan foydalanish: mavhum. dis. ...kand. qishloq xo‘jaligi Fanlar (03.00.32). – Orel: OSAU, 2004. – 17 b.

ISSN 3030-3907

5. Jukovskiy P.M. Madaniy o‘simliklar va ularning qarindoshlari (Sistematikasi, geografiyasi, ekologiyasi, ishlatilishi, kelib chiqishi). – M.: Sovet fani, 1950-595 b.
6. Mashanov V.I., Pokrovskiy V.T. Achchiq aromatik o‘simliklar. – M.: Agropromizdat, 1991 yil. – 221 b
7. Davlat ro‘yxatga olish kitobi naslchilik yutuqlar, tan olingan Kimga foydalanish. "Turlar o‘simliklar." - M.: Rosinformagrotech, 2020. - 680
9. Gorshkov V.I., Karpachev V.V., Vlasova A.P. Yog‘li karam ekinlarining yangi navlari: bahorgi raps, bahor va qishki kolza, oq xantal // Qishloq xo‘jaligi. – 2009.

ISSN 3030-3907

QUYOSH FOTOELEKTR TIZIMLARINI ELEKTR TA'MINOTI TARMOG'IGA ULANISH HOLATI

T.U.Toshev
Qarshi davlat texnika unversteti. Dotsenti
U.E.Norqulov
Qarshi davlat texnika unversteti. katta o'qituvchi
E.Sh.Nigmatova
Qarshi davlat texnika unversteti. stajyor o'qituvchi
S.A.Begimqulov
Qarshi davlat texnika unversteti. magistr
E-mail: tojiddin20.02.85@gmail.com

Annotatsiya. Hozirgi vaqtda elektr energetika tizimlariga quyosh fotoelektr stansiyalarini joriy etish muammolari bilan bog'liq. Quyosh fotoelektr tizimlarini loyihalashtirish va eletr ta'minot tizimiga ulash tarkibini ularni uzoq muddat davomida ishlatish shartlarini e'tiborga olib tanlashni nazarda tutadi. Ushbu ishda fotoelektr tizimlarni elektr ta'minot tizimiga ulash blok sxemasi taklif etilgan.

Kalit so'zlar: Fotoelektr tizim, quyosh paneli, blok sxemasi, kapital xarajatlar, ishlatish xarajatlari, elektr ta'minot tizimidagi elektr yuklamalarini hisoblash.

Аннотация. В настоящее время это связано с проблемами внедрения солнечных фотоэлектрических установок в электроэнергетические системы. При проектировании солнечных фотоэлектрических систем и выборе компонентов для их подключения к системе электроснабжения учитываются условия их длительного использования. В данной работе предложена структурная схема подключения фотоэлектрических систем к системе электроснабжения.

Ключевые слова: Фотоэлектрическая система, солнечная панель, блок схема, капитальные затраты, эксплуатационные затраты, расчет электрических нагрузок в системе электроснабжения.

Abstract. Currently, this is due to the problems of introducing solar photovoltaic installations into electrical power systems. When designing solar photovoltaic systems and selecting components for connecting them to the power supply system, the conditions for their long-term use are taken into account. This paper proposes a block diagram for connecting photovoltaic systems to the power supply system.

Key words: Photovoltaic system, solar panel, block diagram, capital costs, operating costs, calculation of electrical loads in the power supply system.

Kirish.

2020-2030 yillarda qayta tiklanadigan energiya manbalari orqali elektr energiya ishlab chiqarishga, ayniqsa quyosh energiyasini rivojlantirishga alohida e'tibor berilmoqda. Qayta tiklanadigan energetikaning rivojlanish


ISSN 3030-3907

ko‘rsatkichlariga erishish maqsadida 2020-2030 yillarda 5 GW quyosh yelektr stansiyalarini qurish ko‘zda tutilgan QTEMlarning har yili foydalanishga topshiriladigan quvvatlarining maqsadli parametrlari belgilangan.

O‘zbekistonda quyosh va shamol elektr stansiyalari qurilishi ko‘payib bormoqda. Ularning umumiy tarmoqqa integratsiya qilinishi esa mukammal tizim yaratishni talab qiladi. Agar bu jarayonda xatoga yo‘l qo‘yilsa, qayta tiklanuvchi energiya manbalari ham iqtisodiy jihatdan, ham umumiy tarmoqqa texnik tomonlama ziyon yetkazishi mumkin. Respublikani elektr energiyasi bilan ta’minlashni takomillashtirish doirasidagi asosiy vazifalardan biri QTEMlardan foydalanishni rivojlantirish, kengaytirish va ularni yagona elektr tizimiga integratsiyalash.[4]

2030 yilga kelib belgilangan maqsadlarga erishish natijasida:

FES – 5 ming MW (17,3 foiz), shu jumladan, quyoshli soatlarda elektr energiyasini yig‘ib, to‘plangan elektr energiyasidan quyosh bo‘lmagan va energotizimdagi iste‘molning kechki tig‘iz soatlaridagi maksimal yuklama paytlarida 1 ming MVtli elektr energiyasini saqlash moslamalari bilan ta’minlanadi. [1]




1-rasm - 2019-2030 yillarda o‘rnatilgan quvvatning o‘zgarishi, MW

Tadqiqot metodologiyasi. Hozirgi kunda energetika sohasida tabiiy boyliklarni tejamkorlik bilan ishlatish va muqobil energiya resurslarini yaratish dolzarb muammolardan biriga aylanib qoldi. Butun dunyoda jumladan Respublikamizda ham aholi sonining ortishi bilan energiya manbalariga bo‘lgan ehtiyoj oxirgi yillarda tabiiy energiya manbalarini saqlab qolishni nazarga tutib, muqobil energiya manbalaridan foydalanish zaruriyati ortib bormoqda. O‘zbekiston mintaqasida qayta tiklanuvchi energiya resurslarini tahlil etib, elektr ta’minotida quyosh energiyasidan foydalanish, O‘zbekiston sharoitida iqtisodiy jihatdan to‘liq o‘zini oqlaydi.[2]

ISSN 3030-3907

Quyosh fotoelektriklarda ishlab chiqarilgan elektr energiyasini energotizimlari tarmog‘i bilan uzviy ulash Fotoelektrik tizim bilan elektr energiyani generasiyalash uchun quyosh elektr stanstiyasi mo‘ljallangan (2- rasm) da quyosh elektr stanstiyasini blok-sxemasi ko‘rsatilgan. Talab qilinadigan tok miqdorini olish uchun parallel va talab qilinadigan kuchlanish miqdorini olish uchun ketma-ket ulangan va quyosh modulida yig‘ilgan quyosh batariyasini FES da namayon etadi. Quvvatlar loyiha bo‘yicha berilishini ta’minlash uchun quyosh moduli va quyosh batareyasi soni tanlab olinadi. Panelni yig‘ish quyosh modulinining chiqishi ulanadi. 10 kV kuchlanish ikkilamchi cho‘lg‘amiga va 0,4 kV kuchlanish birlamchi cho‘lg‘ami bilan TV_1 transformator orqali uch fazali sinusoidal kuchlanish chiqishi bilan uch fazali invertorga o‘zgarmas tok kuchlanishi yig‘ilgan panelga beriladi. Umumiy energotizimga ulangan 110 kV ikkilamchi kuchlanish va 10 kV birlamchi kuchlanish bilan TV_2 kuchaytirib beruvchi transformator orqali va nimstanstiyaga TV_1 chiqish orqali beriladi. Invertorga TV_3 transformator orqali uch faza kuchlanish tarmog‘i kuchlanish bilan invertor bilan uch faza kuchlanish bilan beriladi. Bunday holatda invertor aylanturuvchi tarmoq hisoblanadi.[3]



2-rasm. Quyosh elektr stanstiyaning blok-sxemasi.

Tarmoq bilan ulangan fotoelektr stanstiya. Umumiy tarmoqda energiyani generastiyasi bilan korxona inshoat, turar joy uy elektr manbayi uchun qo‘llaniladigan fotoelektrik tizim turlarining berilgan miqdorlari. Ob’ekt elektr manbayi uchun tarmoq bilan ulangan FES blok-sxemasi (2-rasm) da ko‘rsatilgan.

Muhokama va natijalar.

Har bir iste’molchilarning elektr yuklamasi, ularning energetika tizimdagi elektr stansiyalari ish rejimini aniqlovchi jami yuklamasi uzluksiz o‘zgarib turadi. Bular yuklama grafigida elektr tizimlar quvvati (toki)ning vaqt bo‘yicha o‘zgarishi diagrammasida ko‘rsatiladi. Iste’mol davri va elektr energiya iste’moli munosabatini $P = f(t)$ tengligi bilan ifodalanadi. Elektr iste’molchi va kuch elektr iste’molchi, yoritish iste’molchilarning oylik, xaftalik va kunlik yuklama grafigini tuzush lozim. Inshoatlarning elektr ta’minoti uchun har bir elektr qurilmalar va o‘tkazgichlar hisobga olinishi lozim sungra elektr uskunalari qoidasiga va ularga qo‘yilgan shartga ko‘ra tanlab olinishi zarur.[5] Inshoatning elektr energiyasini kunlik iste’molini o‘rnatilgan asboblar asosida analiz va

ISSN 3030-3907

yuklama grafigini keltirib chiqariladi va inshoatning yig‘indi quvvatini keltiramiz har bir xona uchun $P = f(t)$ yuklama grafigini qurish lozim odatdagidek elektr asboblari elektr energiya iste’molchilarning kunlik, haftali, oylik va yillik iste’moli aniqlanib xizmat ko‘rsatuvchi ma’sul xodimlar tomonidan tahlil qilinadi natijada joriy va kapital ta’mirlash ishlari belgilanadi. Agar elektr energiya iste’moli inshoat uchun o‘zgarmas bo‘lsa unda haftalik yuklamalar qiymatini aniqlash uchun sutkalik yuklamalarni kunlar soniga ko‘paytiramiz; oylik yuklamalar uchun oydagi kunlar soniga sutkalik yuklama miqdorini ko‘paytiramiz.

Yoritilganlik E talab qiladigan miqdorni hisobga olib solishtirma quvvat metodi bo‘yicha yorug‘lik hisoblashni amalga oshiramiz. “Tabiy va sun’iy yorug‘lik” qoidasiga asosan berilgan xona uchun aniqlaymiz. Berilgan xona uchun E yoritilgalik talabi bo‘yicha aniqlanadi. Yoritiladigan xonani har bir m^2 maydoniga 100 lk o‘rtacha yoritilganlik hosil qilish uchun $P_{sol} = 16 \div 20\ W/m^2$ solishtirma quvvat talab qilinadi bu chulg‘ama lampa uchun to‘g‘ri keladi, lyuminesten lampa uchun solishtirma quvvat $P_{sol} = 6 \div 10\ W/m^2$ va svetodiod lampa uchun $P_{sol} = 1{,}5 \div 2\ W/m^2$ solishtirma quvvat talab qilinadi. Yorug‘ devor va shiplar uchun bu hisoblash amalga oshiriladi. Kichik maydonli xona uchun solishtirma quvvatning katta qiymati qabul qilinadi;[3]

-yoritilganlik talab qilgan darajasi uchun solishtirma quvvat aniqlanadi.

$$P_{sol}^{tal} = P_{sol}\frac{E}{100}$$

bu yerda E-talab qilinadigan yoritilganlik, *lk* da;

- umumiy talab qilinadigan yoritilganlik aktiv quvvati aniqlanadi P_{tal}:

$$P_{tal} = P_{tal}^{sol} \cdot F$$

bu yerda F-xonaning maydoni m^2;

- qo‘llaniladigan lampaning quvvati beriladi P_l;
- xonani yoritish uchun talab qilinadigan lampalar soni aniqlanadi.

$$N = \frac{P_{tal}}{P_l}$$

Xulosa va takliflar.

Shunday qilib, qayta tiklanuvchi energiya manbalariga asoslangan yirik elektr stansiyalarini qurish va ularni markaziy tarmoqlarga integratsiyalashuvi O‘zbekiston energetika tizimining qo‘shma rejimlari va barqarorligini tahlil qilish, tarmoq uskunalarini modernizatsiya qilish, energiyani saqlashning zamonaviy tizimlarini joriy etish va energiya ta’minoti tizimi barqarorligini ta’minlash bo‘yicha katta hajmdagi ilmiy-tadqiqot ishlarini talab qiladi.

ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. 2020-2030 yillarda O‘zbekiston Respublikasini elektr energiyasi bilan ta’minlash KONSEPSIYASI.

ISSN 3030-3907

2. К.Аллаев. Современная энергетика и перспективы ее развития. Ташкент. 952 с. (2021)
3. Бекиров Э.А. Электроснабжение промышленных предприятий, зданий сооружений с использованием энергоагрегатов возобновляемой энергетики / Э.А. Бекиров. – Симферополь :
4. ИТ «АРИАЛ», 2019. – 372 с.
5. Gayibov T.SH., Fayziyev M.M., Norboyev A.E. Elektr energetika tizimlarining ish holatlarini boshqarish, tizimli rostlash va dispetcherlash masalalari. O‘quv qo‘llanma. Qarshi: 2021 –174bet.
6. Gayibov, T., & Toshev, T. (2023). QUYOSH FOTOELEKTR STANSIYALARI ELEMENTLARINING OPTIMAL TARKIBINI TANLASH MASALASINING MATEMATIK MODELI VA UNI YECHISH ALGORITMI. Innovatsion Texnologiyalar , 50(02), 13–21.

ISSN 3030-3907

BOZOR MUNOSABATLARI SHAROITIDA MAGISTRAL ELEKTR TARMOQLARINING TRANSIT KOMPANIYA MODELIDA ISH HOLATLARI MATEMATIK IFODALASH

B.A.Bobonazarov
Sho‘rtan neft va gaz qazib chqarish boshqarmasi. Energiya menejeri
T.U. Toshev
Qarshi davlat texnika unversteti. dotsenti
N.A.Qurbonov
Qarshi davlat texnika unversteti. assistenti
R.A. Abdullaeva
Qarshi davlat texnika unversteti. magistr
U.B.Akbarov
Shaxrisabz davlat pedagogika institute
E-mail: tojiddin20.02.85@gmail.com

Annotatsiya. Elektr ta’minoti tizimi obyektlarini erkinlashtirish sharoitida magistral elektr tarmoqlarini elektr energiyani tranzit qilish funksiyasini bajarish jarayonida uning ish holatlarini va mezonlarini matematik ifodalash masalalari ko‘rib chiqilgan.

Kalit so‘zlari: magistral elektr tarmoqlari, elektr stansiya, elektr tarmoq korxonalari, texnik-iqtisodiy ko‘rsatkichlar, matematik modellar.

Аннотация. Рассматривается проблема математического моделирования режимов работы и критериев функционирования магистральных электрических сетей в модели транзитной компании в условиях либерализации электроэнергетической системы

Ключевые слова: магистральные электрические сети, электрическая станция, предприятия электрических сетей, технико-экономические показатели, математические модели.

Abstract. The problem of mathematical modeling of operating modes and performance criteria of main electric power networks in the transit company model under conditions of liberalization of the electric power system is considered.

Keywords: main electric power networks, power plant, electric grid enterprises, technical and economic indicators, mathematical models.

Kirish.

Elektr energiya ishlab chiqarish va sotishni monopoliyadan erkinlashgan bozorga o‘tish jarayonida butun energosistema va aloxida strukturalarni parallel qo‘shma ish xolatlari bilan bog‘liq kompleks masalalar paydo bo‘ladi.

Elektr energiya bozori ishtirokchilarini savdo-sotiq qiziqishlarini hisobga olgan yangi usul va modellar atroflicha ishlab chiqilmaganligi erkinlashtirishda qiyinchiliklar keltirib chiqaradi. Chunki amalyotdagi turli xil konsepsiyalarni

ISSN 3030-3907

aprobatsiya qilish, reforma qilish yo‘llarini batafsil o‘rganish va bu asosida bozor mexanizm modellarini taklif qilish juda muxim.

Bozor munosabatlariga o‘tish energosistema va uning alohida suyektlari uchun EET ish xolatlarini boshqarish masalalarini yechish uchun matematik modellarni ishlab chiqishda yangi talablarni qo‘yadi. Bu asosida islox qilish modellari va EET ish xolatlarini boshqarish prinsiplarini ishlab chiqish va ularni EET ishonliligi va samaradorligini e’tiborga olib alohida ishtirokchilarni iqtisodiy qiziqishlari, texnik va iqtisodiy cheklanishlarni hisobga olib matematik modellashtirish muxim masalalardan hisoblanadi.

Bundan tashqari taklif qilingan alternativ modellar uchun bozor ishtirokchilarini ish xolat modellarini ishlab chiqish, o‘zaro munosobatlarni tashkil qilish va texnik boshqaruvni iqtisodiy jixatdan tadqiq qilish dolzarb masala hisoblanadi. Ushbu sharoitda balans munosabatlari va iqtisodiy ko‘rsatkichlari uchun elektr energiya tovar sifatida qaralishi lozim bo‘ladi. Maqola doirasida, erkinlashgan elektr energiya bozori sharoitida EET ish xolatlarini boshqarish masalalarini yechish uchun matematik modellarini ishlab chiqish masalasi ko‘riladi.

EET ish xolatlari va qoidalarini ishlab chiqishda va ularni iqtisodiy va texnik mezonlarin matematik formulirovka qilish, reforma qilish bilan bog‘liq Respublikamizda va chet el tizimlarini rivojlanish tendensiyalari aprobatsiya va tadqiq qilish xamda tashkil qilishda mumkin bo‘lgan yondashishlarni muxokama qilish lozim bo‘ladi.

Elektr energetika sohasini markazlashgan boshqaruv sharoitida optimallashtirish masalasi asosan fizik balans munosabatlari va cheklanishlarini xisobga olgan xolda ishlab chiqarish harajatlarini minimalini topishga qaratilgan. Elektr energiya yagona tarif bo‘yicha sotiladigan tovar sifatida qaralgan edi. Ushbu xolatda tarif elektr enegiyani ishlab chiqarish, iste’molchigacha tarmoqdan uzatishga ketgan xarajatlarini xisobga olib shakllantirilgan. Ruxsat etilgan va optimal yechimlarini aniqlash uchun ishlatiladigan matematik modellar faqat fizik qonunlarni xisobga olgan xolda shalklantirilgan, ammo bunda energotizimdagi aloxida strukturalarining iqtisodiy qiziqishlari hisobga olmagan.

Xozirgi kunda elektr energiya bozorini tashkil qilish O‘zbekiston uchun dolzarb muammolardan sanaladi. Isloh qilish muddatlari, yo‘nalishlari va formalari, energetiklar va iqtisodchilar orasida muxokama markazidagi mavzulardandir. Raqobatlashgan elektr energiya bozorini shakllantirish mumkinligini baxolash xam nazariy, xam amaliy jixatga ega dolzarb muammo xisoblanadi.

Bozor munosabatlariga o‘tish, energotizim va undagi aloxida strukturalar uchun EET ish xolatlarini boshqarish bilan bog‘liq bir qator masalalarni yechish

ISSN 3030-3907

uchun matematik modellar ishlab chiqishda yangi talablar qo‘yadi. Yangi sharoitda ish xolatlarini boshqarish bozor subyektlari iqtisodiy qiziqishlarini, texnik va moliyaviy cheklanishlarni xisobga olib energotizim va uning aloxida strukturalari ish xolatlari effektivligini va ishochliligini e’tiborga olishi lozim. Loyixada, qo‘yilgan masalalarni yechishga doir yangi metodik yondashuvlar, yangi matematik usullar va informatsion texnalogiyalarga asoslangan matematik modellar va instrumental vositalar ko‘rib chiqiladi.

Ish doirasida elektr energiya bozorini tashkil qilish sharoitida MET ish xolatlarini boshqarish masalalariga doir tranzit kompaniya modelida matematik ifodalash ko‘rib chiqiladi. Yangi sharoitda EET xolatlarini boshqarish shartnoma munosabatlariga asoslanadi. Yuqoridagidan ko‘rinadiki xar bir EET o‘z qiziqishlarini hisobga olishga xamda faqat o‘z iste’molchilarini ishonchli va sifatli EE bilan ta’minlashga intiladi.

Masalani murakkabligi, EE bozorini tashkil qilish va EEda isloxatlar o‘tkazish bilan bog‘langanligi ushbu sharoitda energosistema ish holati va xolatlarini boshqarishni matematik apparatini takomillashtirish va ishlab chiqish bosh masalalardan hisoblanadi. EET xolatlarini boshqarishni matematik modellarini ishlab chiqish va jarayonlarni optimal rejalashtirish EE bozoridagi ishtirokchilar orasidagi o‘zaro munosabatlarni tashkil qilish uchun erkinlashgan EE bozorini yaratishda muxim o‘rin egallaydi.

Ma’lumki, hozirgi vaqtda O‘zbekiston Respublikasida iste’molchilarni elektr energiyasi bilan ta’minlash uchta mustaqil tuzilma yordamida amalga oshirilmoqda.

- elektr stansiyalari (ES) elektr energiyasi ishlab chiqaradigan korxonalar.

- Elektr energiyasini uzatish bilan shug‘ullanadigan tranzit kompaniyalari deb ham ataladigan magistral elektr tarmoqlari (MES).

-Elektr tarmoqlari (hududiy elektr taromqlari) sotuvchi korxonalar, iste'molchilarga elektr energiyasini taqsimlovchi korxonalar.

Bunday sharoitlarda MESning ish rejimlarini optimal boshqarish kerak, shunda ushbu modellar iste'molchilarni yuqori sifatli va uzluksiz elektr energiyasi bilan ta'minlay oladi va o‘zlari uchun eng foydali ishlaydi.

Tadqiqot metodologiyasi.

Optimallashtirishda MESning texnik-iqtisodiy ko‘rsatkichlarini va ES va ETK bilan texnik-iqtisodiy aloqalarni hisobga olish kerak. Shu maqsadda ikkita turdagi modellar taklif etiladi, ular quyida ko‘rib chiqiladi.

Elektr energiyasi bozorining turli mumkin bo‘lgan modellari uchun texnik va iqtisodiy omillarni hisobga olgan holda ish rejimlarini boshqarish muammolarini hal qilish uchun matematik modellar taklif etiladi.

ISSN 3030-3907

Elektr tarmog‘ining tugunlarida quvvat balanslari tenglamasi shaklida elektr energiyasini tashishning texnologik jarayonini tavsiflovchi tenglamalari quyidagicha[2]:

$$W(Z, X, P_{gi}, P_{ri}, Q_{gi}, Q_{ri}) = 0, \quad (1)$$

Bu yerda W - tarmoq tugunlarida quvvat balansi tenglamalarining vektori; Tizim parametrlarining Z-matritsasi; Mustaqil o‘zgaruvchilarning X-vektori: modullarning vektorlari va tugunlarning kuchlanish fazalari.

Elektr energiyasini etkazib bekrish uchun TKning imkoniyatlari elektr tarmoqlarining quvvati va texnik xususiyatlari bilan cheklangan. Ushbu imkoniyatlarning chegaralari alohida ulanishlar yoki bo‘limlar uchun tok va/yoki quvvatlarning bir yoki ikki tomonlama cheklovlari bilan tavsiflanadi:

$$P_{f\min} \le P_f(X) \le P_{f\max}, \quad I_{f\min} \le I_f(X) \le I_{f\max}, \quad (2)$$

bu yerda f-bog‘lanish P barcha cheklovlar to‘plamiga tegishli.

Ishlab chiqarish, transfortirovka qilish va taqsimlash kompaniyalari mezonlarini matematik shakllantirish. Bozor munosabatlariga o‘tish bozor ishtirokchilari o‘rtasidagi munosabatlarni o‘rnatishning yangi qoidalari va ularning har biri uchun o‘z mezonlarini qayta ko‘rib chiqish bilan tavsiflanadi. Shu bilan birga, elektr energiyasi bozorining turli modellari ishtirokchilari uchun mezonlar barcha tovar bozorlari uchun umumiy bo‘lgan mezonlarga asoslanishi kerak.

TKning iqtisodiy mezonlari umumiy xarajatlarni, shu jumladan elektr tarmoqlarini saqlash, boshqarish, quvvat va elektr yo‘qotishlarini qoplash va boshqalarni hisobga olgan holda xizmatlar uchun to‘lov bilan belgilanadi. Bu ushbu umumiy xarajatlarni to‘lashda ishlab chiqaruvchi (GK) va TK ulushini aniqlash muammosini keltirib chiqaradi. Ushbu muammolarni hal qilishda turli xil usullarni taklif qilish mumkin bo‘lgan alohida GK va TQ tomonidan tranzit kompaniyasi tarmog‘idan foydalanish ko‘rsatkichlariga asoslanishi kerak [4,5,6].

Tranzit kompaniya modeli

Ushbu modelda MES faqat elektr energiyani ishlab chiqaruvchi kompaniyalaridan (elektr stantsiyalari va qo‘shni energiya kompaniyalari) xaridorga (ETK va yirik iste'molchilar) yetkazib berish bo‘yicha xizmatlarni taqdim etadi.


Chakana savdo korxonalari elektr energiyasini shartnomalar bo‘yicha to‘g‘ridan-to‘g‘ri ishlab chiqaruvchilardan sotib oladi va uni elektr uzatish tarmog‘i orqali iste’molchilarga yetkazib beradi. Taqsimlash kompaniyalari oxirgi iste'molchilarni elektr energiyasi bilan ta'minlashda monopoliyaga ega bo‘ladi. Biroq, elektr energiyasini ishlab chiqaruvchilar, tarqatuvchi kompaniyalar va yirik iste'molchilar uchun elektr uzatish tarmog‘iga ochiq kirish imkoniyati mavjud.

Ushbu modelda raqobat kengayishi mumkin, shunda barcha ishlab chiqaruvchilar elektr energiyasini ko‘plab iste'molchilarga sotishlari mumkin.

ISSN 3030-3907

Xaridorlarning ko‘pligi bozorni yanada raqobatbardosh va dinamikroq qiladi. Elektr energiyasini ishlab chiqarishdagi raqobatning afzalliklari bozor va texnologiya riskning ularga qaytishi bilan kuchayadi. Elektr stantsiyalari egalari yaxshiroq tartibga solinadi va yangi texnologiyalarning afzalliklarini baholay oladilar va yangi investitsiyalar haqida ko‘proq yechimlar qabul qilish imkoniyatiga ega bo‘ladilar. Shu bilan birga, elektr stantsiyalari egalari uchun riskni oshirish tranzit narxini oshiradi, bozor va tarmoq kelishuvlarini talab qiladi. Ushbu model hukumatga to‘g‘ridan-to‘g‘ri subsidiyalar va direktivalar orqali elektr energiyasini ishlab chiqarishning yangi texnologiyalarini tanlashda rahbarlik qilish imkonini beradi.

Ushbu qat'iy modellashtirish bilan, muqarrar ravishda yo‘qotadigan va quvvat cheklovlari mavjud bo‘lgan energiyani uzatishda xaridorlar va sotuvchilar MES tomonidan o‘zaro bog‘langanligini hisobga olish kerak.



1-rasm. Ulgurji bozor modeli

- Elektr energiya oqimi
- Moliyaviy oqim

Muhokama va natijalar

Ishlab chiqaruvchi korxonalar, qo‘shni davlatlarning energetika kompaniyalari va iste’molchilar o‘rtasida shartnomalar tuziladi. Shu bilan birga, ular tranzit xarajatlarini qоплашни назарда тутади.

Tranzit uchun umumiy to‘lov uch qismdan iborat bo‘lishi kerak

$$\Delta C_T = C_{noc} + C_n + C_{p.}. \quad (1)$$

$C_{пос}$- tarmoqdan foydalanish uchun abonent to‘lovi, amortizatsiya va ishlatish xarajatlarni qoplash (yo‘qotishlardan tashqari). Bu, shuningdek, tarmoqning o‘tkazish qobiliyati va tranzit oqimini dispetcherlik nazorati bo‘yicha xizmatlar bilan ta’minlash uchun qo‘shimcha uskunalarni o‘rnatish uchun MES xarajatlarini qoplashni ham o‘z ichiga oladi.

C_p - MES rentabelligi uchun abonent to‘lovi

ISSN 3030-3907

C_n - MET tranzit kompaniyasidagi ΔW isrof uchun to‘lov, $W_{cm} - W_{nomp}$ farqni qoplash uchun.

EE tranzitining umumiy qiymati bozor ishtirokchilari o‘rtasida taqsimlanishi kerak.

Agar tranzit xarajatlari ETK va yirik iste'molchilar tomonidan qoplansa, har bir xaridor quyidagi to‘lovni olishi kerak

$$\Delta З_{li} = K_i * \Delta C_T . \quad (2)$$

Bu yerda K_i - koeffitsient bo‘lib, u i-iste'molchining elektr energiyasini barcha iste'molchilarning umumiy elektr energiyasiga bo‘lish yo‘li bilan topiladi.

$$K_i = \frac{W_{эli}}{W_{эΣnom}} . \quad (3)$$

W_{eli} - i-iste'molchining elektr energiyasi, $W_{eΣpot}$ - barcha iste'molchilarning umumiy elektr energiyasi.

Agar tranzit xarajatlari qo‘shni davlatlarning EET va ES tomonidan qoplansa, sotuvchining to‘lovi:

$$\Delta З_i = K_j * \Delta C_T . \quad (4)$$

K_j - koeffitsient bo‘lib, j-stansiyaning EE sotish hajmini barcha stansiyalarning umumiy EE sotish hajmiga bo‘lish yo‘li bilan topiladi.

$$K_j = \frac{W_{cmj}}{W_{cnΣ}} . \quad (5)$$

W_{stj} - j-chi stansiyaning EE sotuvi, $W_{stΣ}$ - barcha stansiyalarning EE umumiy миқдори.

Xulosa va takliflar

Ushbu tranzit to‘lovidan ko‘rinib turibdiki, MESlar o‘zlarining erkinlik darajasidan imkoniyatlarni kamaytirish uchun foydalanishga undamaydilar. Biroq, bu haqiqat emas. Tarmoqdagi yo‘qotishlarni kamaytirish va elektr uzatish liniyalarining quvvatini oshirish uchun o‘zining erkinlik darajalaridan (tarmoq sxemasi, transformatsiya koeffitsientlari, reaktiv quvvat manbalari va boshqalar) foydalanib, tranzit kompaniyasi qo‘shimcha mijozlarni jalb qilish va shu bilan qo‘shimcha foyda olish imkoniyatlarini kengaytiradi.

Ushbu modelda barcha darajadagi raqobat bo‘lishi mumkin. Bu yerda elektr energiyasi bozori ETK va yirik iste'molchilar uchun erkin bo‘ladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Шарипов У.Б, Бобоназаров Б.А. Электр энергия улгуржи бозори шароитида энергосистемани математик моделларини ишлаб чикиш.

ISSN 3030-3907

«Устойчивое развитие и экологически безопасное функционирование энергетики Узбекистана: перспективы и проблемы», Халкаро анжумани, Тошкент, 2005, 10-11с.

2. У.Б.Шарипов, Б.А. Бобоназаров, Алгоритм определения коэффициентов использования сети участниками рынка при транспортировке электроэнергии. Республиканская научно-практическая конференция. «Интеграция вузовской науки и производства и образования» г. Ташкент, 2005г.

3. У.Б.Шарипов, Б.А. Бобоназаров, Методика определения коэффициент использования сети участниками рынка при транспортировке электроэнергии. Международная конференция «Инновация» г. Ташкент 2004г 21-22 октября.

4. У.Б. Шарипов, Б.А. Бобоназаров., Методика определения коэффициент использования сети участниками рынка при транспортировке электроэнергии. Вестник ТГТУ, 2004г №3, с.62-65.

5. У.Б.Шарипов, Б.А. Бобоназаров., Модели функционирования МЭС в условиях рыночных отношений, «Энергия ва ресурсларни тежаш муаммолари», Халкаро илмий-техникавий ва амалий анжуман, Тошкент ш 2003й, 71-73б.

6. У.Б.Шарипов, Б.А. Бобоназаров., К вопросу функционирования магистральных электрических сетей в условиях рыночных отношений, Международная научная конференция, г Ташкент 2002г, с. 100-102.

ISSN 3030-3907

YAYLOV YERLARINING DEGRADATSIYASINI GIS TEXNOLOGIYALARI ASOSIDA BAHOLASH

Raximov Sherzod Shavkatovich
Geologiya fanlar universiteti "Konchilik ishi va texnologiyalar" kafedrasi dotsenti PhD
Toshkent,O'zbekiston.
Email: sherzodraximov@gmail.com

Annotatsiya. Mazkur maqolada Qashqadaryo viloyati Dehqonobod tumani hududining 2020–2024-yillar davomida Landsat-8,9 va Sentinel-2 sun'iy yo'ldoshlaridan olingan multispectral kosmik tasvirlarini NDVI (Normalized Difference Vegetation Index), GNDVI (Green Normalized Difference Vegetation Index) va SAVI (Soil Adjusted Vegetation Index), indeksi qayta ishlash usullari yordamida vegetatsiya holatining dinamikasi tahlil qilindi. Natijalarga ko'ra, tuman yaylovlarining 45–50 foizi o'rta, 20 foizi kuchli degradatsiyaga uchragan bo'lib, bu holat asosan antropogen bosim va qurg'oqchilik ta'sirida shakllangan. Tadqiqot Dehqonobod tumanida barqaror yaylov boshqaruv tizimini yaratish uchun GIS asosidagi ekologik monitoringning muhimligini ko'rsatdi.

Kalit so'zlar: Yaylov degradatsiyasi, GIS, NDVI, GNDVI, SAVI, Dehqonobod tumani, masofadan zondlash, ekologik monitoring, vegetatsiya indekslari.

Аннотация. В данной статье анализируется динамика растительного покрова Дехканабадского района Кашкадарьинской области за период 2020–2024 годов с использованием многоспектральных спутниковых снимков, полученных со спутников Landsat-8, Landsat-9 и Sentinel-2. Анализ проводился путем обработки таких вегетационных индексов, как NDVI (нормализованный разностный вегетационный индекс), GNDVI (нормализованный разностный вегетационный индекс), SAVI (индекс вегетации с поправкой на почву) и NDMI (нормализованный разностный индекс увлажнения). Согласно результатам, около 45–50% пастбищ района находятся в умеренно деградированной, а около 20% — в сильно деградированной форме. Это состояние, в первую очередь, сформировалось под влиянием антропогенной нагрузки и засухи. В исследовании подчеркивается важность экологического мониторинга на основе ГИС для создания устойчивой системы управления пастбищами в Дехканабадском районе.

Ключевые слова: Деградация пастбищ, GIS, NDVI, GNDVI, SAVI, Дехканабадский район, дистанционное зондирование, экологический мониторинг, вегетационные индексы.

Abstract. In this article, the dynamics of vegetation cover in the Dehqonobod district of the Qashqadaryo region during the period of 2020–2024 were analyzed

using multispectral satellite images obtained from Landsat-8, Landsat-9, and Sentinel-2. The analysis was conducted through the processing of vegetation indices such as NDVI (Normalized Difference Vegetation Index), GNDVI (Green Normalized Difference Vegetation Index), SAVI (Soil Adjusted Vegetation Index), and NDMI (Normalized Difference Moisture Index). According to the results, approximately 45–50 percent of the district's pastures are moderately degraded, while around 20 percent are severely degraded. This condition has primarily developed under the influence of anthropogenic pressure and drought. The study highlights the importance of GIS-based ecological monitoring for establishing a sustainable pasture management system in the Dehqonobod district.

Keywords: Pasture degradation, GIS, NDVI, GNDVI, SAVI, Dehkanabad district, remote sensing, ecological monitoring, vegetation indices.

Kirish

Yaylovlar – bu qishloq xo‘jaligining asosiy tabiiy komponentlaridan biri bo‘lib, ular nafaqat chorvachilik uchun ozuqa manbai, balki ekologik barqarorlikni saqlovchi muhim tizim hamdir. O‘zbekiston Respublikasida jami 21 million gektardan ortiq yaylov mavjud bo‘lib, ularning 8 million gektarga yaqini turli darajada degradatsiyaga uchragan (FAO, 2022). Shunday Muammolarning oldini olish maqsadida Prezidentimiz Sh. M. Miromonovichning 2022-yil 10-iyunda “Yaylov yerlariga qarshi kurashishning samarali tizimini yaratish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarori qabul qilindi.

Degradatsiya jarayonlari natijasida yaylovlarning ozuqaviy qiymati pasayadi, tuproq eroziyasi kuchayadi va biologik xilma-xillik kamayadi. Ayniqsa, Qashqadaryo viloyatining Dehqonobod tumani kabi tog‘ oldi va yarim cho‘l hududlarida bu jarayon keskin tus olmoqda.

Mazkur tadqiqotning asosiy maqsadi — Dehqonobod tumanida yaylov degradatsiyasining miqyosini GIS va Masofadan zondlash (RS) usullari orqali aniqlash, ularni baholash va bartaraf etish chora-tadbirlarini taklif qilishdir.

Tadqiqot hududi

Dehqonobod tumani Qashqadaryo viloyatining janubi-sharqiy hududida joylashgan bo‘lib, umumiy maydoni 4000 kv.km ni tashkil qiladi. Hisor tog‘ tizimasining g‘arbiy tarmoqlari orasida joylashgan, reylefi murakkab, iqlim shaoiti qurg‘oqchil, kontenintal hisoblanadi. Yillil yog‘ingarchilik miqdori o‘rtacha 270-300 mm ni tashkil qiladi. Tuproq turlari bo‘z, qumoq va sho‘rxok, yarim cho‘l zonasiga mansub o‘simliklar o‘sadi.

Hududda chorvachilik asosiy tarmoq bo‘lib, 2024-yilda chorva soni 210 ming boshdan oshgan. Bu esa yaylovlarga ortiqcha yuklama keltirib, tabiiy o‘simlik qoplamasing tiklanishi sustlashmoqda.

Tadqiqot metodikasi

ISSN 3030-3907


Landsat-8,9 (tasvirlar 30m aniqlikda) va Sentinel-2 (tasvirlar 10m aniqlikda) sun'iy yo'ldoshlaridan olingan multispectral kosmik tasvirlar yordamida olingan ma'lumotlardan foydalanib ArcGIS 10.8, QGIS 3.34 va Google Earh Engine (GEE) muhitida qayta ishlanib, o'simlik qoplamasi bo'yicha NDVI, GNDVI, SAVI, xaritalar tuzildi. Hisoblash formulalari quyidagicha:

NDVI = \frac{(NIR - RED)}{(NIR + RED)},

GNDVI = \frac{(NIR - GREEN)}{(NIR + GREEN)},

SAVI = \frac{(NIR - RED)}{(NIR + RED + L)}(1 + L)

Bu yerda L = 0.5 — tuproq yoritilishini korreksiya qiluvchi koeffitsiyent.



1-rasm. NDVI ko'rsatkichlari dinamikasi (2020–2024)

NDVI tahlillari Dehqonobod tumanida vegetatsiya zichligining yillar davomida o'zgaruvchanligini ko'rsatdi:

Yil Eng past NDVI Eng yuqori NDVI Holat tavsifi

2020 −0.40 1.04 Vegetatsiya kontrasti kuchli, notekis holat


2021 0.52 0.99 O'simlik qoplami barqaror

ISSN 3030-3907

2022 −0.36 1.00 Qisman yaxshilanish
2023 0.28 0.66 Vegetatsiya keskin kamaygan
2024 0.27 0.73 Tiklanish belgilari mavjud

Natijalarga ko‘ra, 2023-yil eng og‘ir degradatsiya yili bo‘lib, NDVI qiymatlari 0.3 dan past bo‘lgan zonalar tuman maydonining 20 foizini tashkil etgan. Degradatsiya darajalari


NDVI xaritalari asosida tuman yaylovlari quyidagi kategoriyalarga ajratildi:
Degradatsiya darajasi NDVI oraliq qiymati Maydon (foizda)
Kuchli degradatsiya < 0.3 20%
O‘rta daraja 0.3–0.5 45–50%
Past degradatsiya 0.5–0.7 25%
Sog‘lom vegetatsiya > 0.7 5–10%
GNDVI tahlilida quyidagi natijalar olindi:



1-rasm. GDVI ko‘rsatkichlari dinamikasi (2020–2024)

GNDVI qiymatlari −0.72 dan 0.80 gacha o‘zgarib, 2021-yil va 2023-yilda keskin pasayish kuzatilgan. Bu holat, ayniqsa, Oqrabot, Qizilcha va Boshchorboq hududlarida o‘simlik biomassasining kamayganini ko‘rsatadi. SAVI ko‘rsatkichlari1

ISSN 3030-3907



2-rasm. SAVI ko‘rsatkichlari dinamikasi (2020–2024)

SAVI indekslari −0.60 dan 1.20 gacha o‘zgarib, tuproqning yalang‘ochlanish darajasini aniq ko‘rsatgan. 2023-yilda tuproq ta’siri kuchaygan va suv tanqisligi natijasida vegetatsiya siyraklashgan.

Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, Dehqonobod tumanida yaylov degradatsiyasi asosan quyidagi omillar bilan bog‘liq:

1. Antropogen bosim: chorva sonining ortishi, yaylovlardan rejasisiz foydalanish;
2. Iqlim o‘zgarishlari: yog‘ingarchilikning 25–30% kamayishi, suv tanqisligi;

ISSN 3030-3907

3. Infratuzilma yetishmovchiligi: suv quduqlari, yo‘llar va saqlash inshootlarining kamligi;

4. Ekologik madaniyatning pastligi: mahalliy aholining tabiatdan foydalanishdagi xabardorligi past.

Masofadan zondlash natijalari (NDVI, GNDVI, SAVI) yer resurslarini baholashda yuqori aniqlikka ega bo‘lib, yaylov degradatsiyasi monitoringini tashkil etish uchun eng samarali vosita hisoblanadi.

Taklif va tavsiyalar

Yaylovlarni saqlash va degradatsiyani kamaytirish uchun asosan yaylovlardan navbat bilan foydalanish tizimini joriy etish, suv infratuzilmasini (quduqlar, suv yig‘uvchi havzalar) rivojlantirish, qurg‘oqchilikka chidamli o‘simlik turlarini ekish (saksovul, qandim, juzg‘un), GIS asosida doimiy monitoring tizimini tashkil etish,aholi ekologik savodxonligini oshirish va mahalliy boshqaruv tizimiga joriy etish.

Xulosa

Tadqiqot natijalari shuni tasdiqladiki, Dehqonobod tumani yaylovlarining katta qismi degradatsiyaga uchragan bo‘lsa-da, bu jarayonni to‘xtatish va tiklash imkoniyatlari mavjud. GIS texnologiyalari va masofaviy zondlash usullari degradatsiya darajasini aniqlashda, tahlil qilishda va istiqboldagi rejalashtirishda muhim ahamiyatga ega.

Yaylov resurslarini barqaror boshqarish – bu nafaqat ekologik, balki iqtisodiy va ijtimoiy ahamiyatga ega masaladir. Shuning uchun GIS asosida olib borilayotgan bunday ilmiy tadqiqotlar qishloq xo‘jaligi barqarorligini ta’minlashda muhim o‘rin tutadi.

Yaylovlarning degradatsiyasi – bu butun dunyo bo‘yicha, jumladan O‘zbekiston hamda Markaziy Osiyo mamlakatlari uchun jiddiy ekologik va iqtisodiy muammodir. Yaylov degradatsiyasining asosiy sabablari orasida haddan tashqari o‘tlash, nobud bo‘lgan sug‘orish tizimlari, iqlim o‘zgarishi, tuproqning sho‘rlanishi va eroziyasi, shuningdek, boshqaruvning samarasizligi kabilar kiradi.

Zamonaviy Geografik Axborot Tizimlari (GIS) usullari yordamida yaylov degradatsiyasini aniqlash, monitorinq qilish va baholash jarayonlari sezilarli darajada takomillashtirilgan. GIS texnologiyalari yaylov degradatsiyasini baholash, uni sabab va oqibatlari bilan tushunish, shuningdek, barqarar boshqarish va restavratsiya choralarini samarali rejalashtirish uchun kuchli va noyobil vosita hisoblanadi. Ushbu texnologiyalardan foydalanish yaylov resurslarini ilmiy asosda boshqarish, chorvachilik salohiyatini saqlash, qishloq joylarining hayot darajasini yaxshilash va ekotizim xizmatlarini himoya qilish imkonini beradi. O‘zbekiston va Markaziy Osiyo mamlakatlari uchun GIS asosidagi yondashuvlarni joriy etish va rivojlantirish – yaylovlar muammosini hal qilishda muhim qadam bo‘ladi.

ISSN 3030-3907

O‘zbekiston va butun Markaziy Osiyo mintaqasi uchun GIS asosida yaylov degradatsiyasini baholash tizimini joriy etish - bu ekologik xavfsizlikni ta'minlash, qishloq xo‘jaligini barqaror rivojlantirish va qashshoqlikni qisqartirish yo‘lidagi muhim strategik qadam hisoblanadi. Texnologik yechimlar inson omili bilan uyg‘unlashganda, yaylovlar degredatsiyasiga qarshi kurashda haqiqiy muvaffaqiyatlarga erishish mumkin bo‘ladi.

Yaylovlarni GIS asosida monitoring qilish va boshqarish milliy darajada ustuvor vazifa sifatida e'lon qilinishi va tegishli investitsiyalar ajratilishi zarur. Bu nafaqat tabiatni muhofaza qilish, balki kelajak avlodlar uchun barqaror resurs asosini yaratish garovidir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. To‘laganov A.M., Norqulov N.M. Ekologiya va atrof-muhit muhofazasi. – Toshkent: Fan, 2018.
2. Oripov R.X., Axmedov A.X. Yer resurslaridan foydalanish asoslari. – Toshkent: O‘zbekiston FA nashriyoti, 2016.
3. Qayumov A.A. Geoinformatika va GIS asoslari. – Samarqand: SamDU, 2021.
4. Abdullayev A., Axmedov J. Yer degradatsiyasi va ekologik muammolar. – Qarshi: Nasaf, 2019.
5. Jo‘rayev A.M. (2022). Qashqadaryo viloyatida yaylovlardan foydalanish va ularning ekologik holatini baholash. – “Geografiya va tabiiy resurslar” ilmiy jurnali, №3, B. 45–53.
7. Mamadaliyeva M.M. (2020). Qurg‘oqchil zonalarda yaylov degradatsiyasini GIS texnologiyalari asosida baholash. – O‘zMU magistrlik dissertatsiyasi.
8. Akhmedova S.S. (2021). Monitoring of pasture degradation using NDVI in arid regions of Uzbekistan. – “International Journal of Environmental Studies”, Vol.
9. Tucker, C. J. (1979). Red and photographic infrared linear combinations for monitoring vegetation. – Remote Sensing of Environment, 8(2), pp. 127–150.
10. Huete, A. R. (1988). A soil-adjusted vegetation index (SAVI). – Remote Sensing of Environment, 25(3), pp. 295–309.
11. Gao, B. C. (1996). NDWI—A normalized difference water index for remote sensing of vegetation liquid water from space. – Remote Sensing of Environment, 58(3), pp. 257–266.
12. Jackson, R.D., et al. (2004). Remote sensing of vegetation indices and their relationship with crop condition. – Agricultural Meteorology Journal, Vol. 104, pp. 303–315.
13. FAO (2020). Pasture degradation and restoration in Central Asia. https://www.fao.org
14. Copernicus Open Access Hub. Sentinel-2 imagery database. https://scihub.copernicus.eu

ISSN 3030-3907

15. USGS Earth Explorer. Landsat satellite data portal. https://earthexplorer.usgs.gov
16. QGIS Documentation. User Guide and Tutorials. https://docs.qgis.org

ISSN 3030-3907

TIKUVCHILIK SANOATINI RIVOJLANTIRISHDA ZAMONAVIY TIKUV MASHINALARINING TUTGAN O‘RNI

Kaxxarova Tozagul Abdimuminovna
Qarshi davlat universiteti o‘qituvchisi,
E-mail: t_kaxxarova61@mail.ru
Raxmanov Farxodjon Gabbarovich
Qarshi davlat universitetida katta o‘qituvchi,
ORCID: https://orsid.org/ 0009-0009-6933-2656
Email: farkhodjonraxmanov@gmail.com

Annotatsiya. Mazkur maqolada zamonaviy tikuv mashinalarining tikuuvchilik sanoatidagi ahamiyati, ishlab chiqarish samaradorligiga ta’siri, ilg‘or texnologiyalar bilan integratsiyasi hamda kichik biznes va yirik ishlab chiqaruvchilarga ko‘rsatgan ijobiy ta’siri yoritilgan. Maqolada texnologik modernizatsiya va avtomatlashtirish orqali kasanachilikdan sanoatlashtirishga o‘tish yo‘li tahlil qilinadi. Amaliy misollar va statistik ma’lumotlar asosida zamonaviy tikuv mashinalarining iqtisodiy samarasi ham baholanadi.

Kalit so‘zlar: tikuv sanoati, zamonaviy tikuv mashinasi, avtomatlashtirish, texnologik modernizatsiya, ishlab chiqarish samaradorligi.

Аннотация. В данной статье рассматривается значение современных швейных машин в швейной промышленности, их влияние на эффективность производства, интеграция с передовыми технологиями, а также положительное воздействие на малый и крупный бизнес. В статье анализируется переход от домашнего производства к индустриализации посредством технологической модернизации и автоматизации. Экономическая эффективность современных швейных машин также оценивается на основе практических примеров и статистических данных.

Ключевые слова: швейная промышленность, современная швейная машина, автоматизация, технологическая модернизация, эффективность производства.

Abstract. This article discusses the importance of modern sewing machines in the garment industry, their impact on production efficiency, their integration with advanced technologies, and their positive impact on small businesses and large manufacturers. The article analyzes the transition from home-based to industrialization through technological modernization and automation. The economic efficiency of modern sewing machines is also assessed based on practical examples and statistical data.

Keywords: garment industry, modern sewing machine, automation, technological modernization, production efficiency.

Kirish.

ISSN 3030-3907

Tikuvchilik sanoati yengil sanoat tarmoqlarining eng muhim va keng tarqalgan yo‘nalishlaridan biridir. Ushbu soha o‘zining mahsulot turlari, texnologik jarayonlari va bandlikdagi o‘rniga ko‘ra jahon miqyosida iqtisodiy va ijtimoiy ahamiyatga egadir. So‘nggi yillarda ishlab chiqarish jarayonlarining avtomatlashtirilishi, yuqori unumli zamonaviy tikuv mashinalarining qo‘llanilishi tufayli tikuvchilik sanoatida sezilarli yuksalish kuzatilmoqda.

Tikuv mashinalarining rivojlanishi ishlab chiqarish hajmini ko‘paytirish, mahsulot sifati va dizayn darajasini oshirish, ishchi kuchi samaradorligini yaxshilashga olib kelmoqda. Ushbu maqolada zamonaviy tikuv mashinalarining tikuvchilik sanoatiga ko‘rsatgan ijobiy ta’siri chuqur tahlil qilinadi.

Tadqiqot usullari

Tadqiqot davomida quyidagi usullardan foydalanildi:

- Tahliliy-uslubiy yondashuv – zamonaviy tikuv mashinalarining texnik tavsifi, afzalliklari va funksionalligi o‘rganildi.
- Taqqoslama tahlil – an’anaviy va zamonaviy tikuv mashinalari o‘rtasida ishlab chiqarish samaradorligi va energiya sarfi bo‘yicha farqlar aniqlandi.
- Statistik ma’lumotlar tahlili – O‘zbekiston tikuvchilik sanoatidagi so‘nggi yillardagi ishlab chiqarish ko‘rsatkichlari ko‘rib chiqildi.
- Soha tahlili – ilg‘or tikuv korxonalarining texnik quvvati va ishlab chiqarish hajmlari asosida zamonaviy texnologiyalarning tatbiqi baholandi.

Adabiyotlar tahlili. Zamonaviy tikuvchilik sohasida texnologik yangiliklar sanoatning samaradorligi va mahsulot sifatini oshirishda muhim omil bo‘lib xizmat qiladi. Ilmiy adabiyotlarda bu jarayon tikuv mashinalari bilan chambarchas bog‘liq bo‘lib, mashinalarning funksional imkoniyatlari, avtomatlashtirish va kompyuterlashtirish orqali ishlab chiqarish tezligi va sifatining oshishi ta’kidlanadi. Misol uchun, Buxoro davlat texnika universiteti mutaxassislari tomonidan tayyorlangan maqolada zamonaviy tikuv mashinalarining funksional imkoniyatlari, smart matolar va sun’iy intellekt tizimlarining qo‘llanilishi tahlil qilingan. Bu maqola innovatsion texnologiyalar orqali to‘qimachilik va tikuvchilik sanoatida yuqori sifat, avtomatlashtirilgan boshqaruv va raqobatbardoshlikni oshirish imkoniyatlarini ko‘rsatadi. Tikuv mashinalarini avtomatlashtirish sanoat jarayonlarini tezlashtiradi va inson mehnatiga bo‘lgan ehtiyojni kamaytiradi. Raqamli boshqaruv tizimlari bilan jihozlangan dastgohlar tez-tez real vaqt rejimida parametrlarni moslashtira oladi va nosozliklarni aniqlash orqali ishlab chiqarishni sifatli va barqaror holatda saqlaydi. Ixtisoslashtirilgan tikuv mashinalari turli tikuv operatsiyalarini bajarishga mo‘ljallangan bo‘lib, ishlab chiqarish jarayonida inson omiliga bog‘liq xatolarni kamaytiradi va materialni yanada samarali ishlatadi. Masalan, overlok, zanjir chok, ploskoshov, tugma qadash va kashta tikish mashinalari turli vazifalarga moslashtirilgan holda ishlab chiqarish samaradorligini

ISSN 3030-3907

oshiradi. Bu mashinalarning texnologik imkoniyatlari ishlab chiqarilayotgan mahsulotga bo‘lgan talab va sifat standartlariga mos keladigan yuqori darajadagi mahsulotni ishlab chiqishni ta’minlaydi.

Tikuvchilik sohasidagi zamonaviy texnologiyalarni o‘rganishga qaratilgan adabiyotlarda nafaqat ishlab chiqarish jarayoni, balki kasb-hunar ta’limi ham tahlil qilinadi. Kasb-hunar maktablarida kompyuterlashtirilgan tikish mashinalari, 3D modellashtirish va boshqa ilg‘or tizimlar o‘quvchilarning kasbiy malakasini oshirishda muhim deb topilgan. Bu turdagi yondashuvlar tegishli mutaxassislarning zamonaviy sanoat talablariga tayyor bo‘lishiga yordam beradi va ularni bozor sharoitida raqobatbardosh qiladi. Bugungi adabiyotlarda zamonaviy tikuv mashinalari – bu nafaqat uskunalar, balki sanoatni raqamli transformatsiya qiluvchi vositalar deb qaraladi. Ularning roli:

- ishlab chiqarish jarayonini samarali boshqarish;
- inson omiliga ehtiyojni kamaytirish;
- mahsulot sifati va takroriyligini oshirish;
- texnologik innovatsiyalarni tatbiq etish orqali sohani raqobatbardosh qilishdir.

Adabiyotlar shuni ko‘rsatadiki, kelajakda tikuvchilik sanoati yanada intellektual tizimlar, avtomatlashtirilgan robotlar, sun’iy intellekt modellariga ega uskunalar orqali rivojlanadi, bu esa ishlab chiqarishda yangi bosqichni ochadi. Zamonaviy tikuv mashinalari nafaqat ishlab chiqarish jarayonlari mechanizmini takomillashtiradi, balki:

- ✔ Tikuvchilik sanoatining raqobatbardoshligini oshiradi.
- ✔ Texnologik innovatsiyalarni tatbiq etadi.
- ✔ Ishlab chiqarish samaradorligini sezilarli darajada oshiradi.
- ✔ Kadrlarni tayyorlash va malaka oshirish jarayonini qo‘llab-quvvatlaydi.

Bu tahlil mavzu bo‘yicha ilmiy adabiyotlarning umumiy tendensiyasini aks ettiradi va zamonaviy tikuv mashinalarining sanoat rivojiga qo‘shayotgan hissasini yoritadi.

Natijalar

3.1. Ishlab chiqarish samaradorligi ortdi.

Zamonaviy tikuv mashinalari yordamida soatiga 1200–5000 tikuv bajarish mumkin, bu esa an’anaviy mashinalarga nisbatan 3–5 barobar yuqoridir. O‘zbekiston yengil sanoatida 2020-yildan 2024-yilgacha avtomatlashtirilgan mashinalarning ulushi 22% dan 61% ga oshgan.

3.2. Mehnat unumdorligi va sifat.

Ishchi bir necha funksiyani bajaruvchi mashinalar yordamida turli tikuv turlarini bajaradi. Mahsulotlarning sifatsizlik darajasi 8,3% dan 3,1% gacha kamaygani kuzatilmoqda.

3.3. Elektr energiyasi va xarajatlar tejalishi.

ISSN 3030-3907

Zamonaviy mashinalar energiya samaradorligi bo‘yicha ancha tejamkor. 1 ta avtomatik mashina 3–4 ta mashina o‘rnini bosa oladi.

3.4. Ish o‘rinlari va kasb-hunar markazlari bilan integratsiya.

Ko‘plab tikuvchilik sexlari kasb-hunar markazlari bilan hamkorlikda ishchi kuchini o‘qitmoqda.

Tadqiqot muhokamasi. Tikuv sanoatida zamonaviy tikuv mashinalarining joriy etilishi soha rivojiga kuchli turtki bo‘ldi. Bu texnologiyalar inson mehnatini yengillashtirish, sifatni oshirish va xalqaro bozorda raqobatbardoshlikni ta’minlashda muhim vositaga aylandi. Shuningdek, zamonaviy mashinalar yordamida innovatsion mahsulotlar ishlab chiqarish imkoniyati ham kengaymoqda.

Ammo bu o‘zgarishlar bilan bir qatorda muammolar ham mavjud: texnik mutaxassislar yetishmasligi, mahalliy ehtiyot qismlar bazasining zaifligi va yuqori dastlabki investitsion xarajatlar kichik tadbirkorlar uchun to‘siq bo‘lib qolmoqda.

Mazkur tadqiqotda tikuvchilik sanoatini rivojlantirishda zamonaviy tikuv mashinalarining tutgan o‘rni o‘rganildi va tahlil qilindi. Olingan natijalar shuni ko‘rsatdiki, zamonaviy texnologiyalar asosida ishlab chiqilgan tikuv mashinalari ishlab chiqarish samaradorligini oshirish, mahsulot sifatini yaxshilash va mehnat unumdorligini ko‘tarishda muhim ahamiyatga ega.

Tadqiqot natijalari mavjud ilmiy adabiyotlar bilan taqqoslanganda, avtomatlashtirilgan va kompyuterlashtirilgan tikuv mashinalarining ishlab chiqarish jarayonlariga ijobiy ta’siri borligi tasdiqlandi. Xususan, dasturiy boshqaruvga ega tikuv mashinalari chok sifatining barqarorligini ta’minlab, inson omiliga bog‘liq xatoliklarni kamaytiradi. Bu holat ilgari olib borilgan tadqiqotlarda qayd etilgan xulosalar bilan mos keladi.

Shuningdek, tadqiqot davomida ixtisoslashtirilgan tikuv mashinalaridan (overlok, zanjir chok, avtomatik tugma qadash va kashta tikish mashinalari) foydalanish ishlab chiqarish jarayonlarini optimallashtirishi aniqlandi. Bunday mashinalar ishlab chiqarish vaqtini qisqartiradi va mahsulot tannarxini kamaytirishga xizmat qiladi. Natijada korxonalarning bozor raqobatbardoshligi oshadi. Tadqiqot natijalari shuni ham ko‘rsatdiki, raqamlashtirish va sun’iy intellekt elementlariga ega tikuv mashinalaridan foydalanish kelajakda tikuvchilik sanoatining barqaror rivojlanishini ta’minlaydi. Biroq, yuqori texnologiyali uskunalarning dastlabki investitsiya xarajatlari kichik va o‘rta korxonalar uchun muayyan qiyinchiliklar tug‘dirishi mumkin.

Umuman olganda, tadqiqot natijalari zamonaviy tikuv mashinalarining tikuvchilik sanoatida texnologik yangilanish, ishlab chiqarish samaradorligi va mahsulot sifati oshishiga bevosita ta’sir ko‘rsatishini tasdiqlaydi. Ushbu natijalar kelgusida sanoatni modernizatsiya qilish va innovatsion texnologiyalarni keng

ISSN 3030-3907

joriy etish bo‘yicha strategiyalar ishlab chiqishda ilmiy-amaliy asos bo‘lib xizmat qilishi mumkin.

Xulosa. Zamonaviy tikuv mashinalari tikuvchilik sanoatining innovatsion rivojida asosiy vositaga aylangan. Ular orqali:

- Ishlab chiqarish hajmi va sifati oshdi.
- Mehnat unumdorligi ko‘paydi.
- Energiya va xarajatlar tejalmoqda.
- Kasb-hunar tizimi va sanoat ko‘priklari mustahkamlanmoqda.

Kelgusida bu yo‘nalishda texnik tayyorgarlik, innovatsion tadqiqotlar va qo‘llab-quvvatlash dasturlarini kuchaytirish lozim.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Q.Olimov. Tikuvchilik korxonalari jihozlari va uskunalari, Darslik.-T.: “G‘afur G‘ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi”, 2008 y.-256 b.
2. Q.Olimov. Tikuvchilik korxonalari va uskunalari (Amaliy mashg‘ulot): O‘quv qo‘llanma.-T.: “Mehnat”, 2003 y.-96 b.
3. Q.Olimov, R.X.Nurboyev, G.K.Soatova, I.M.Raxmonov. Tikuvchilik buyumlarini ishlab chiqarish jihozlari, Darslik.-T.: “Fan”, 2018 y.-308 b.
4. Samarxodjayev X.X.. Tikuv korxonalari uskunalari. O‘quv qo‘llanma.-T.: «O‘zbekiston», 2001. Y.-127 b
5. “O‘zto‘qimachiliksanoat” uyushmasi tahlil hisobotlari.
6. Innovations in Garment Manufacturing Technologies, Elsevier, 2021.
7. Brother Group – Industrial Sewing Machines – Technical Overview.
8. Azizov A. “Yengil sanoatda avtomatlashtirish texnologiyalari”, Toshkent, 2023.

ISSN 3030-3907

MINERAL TUZLARNING YIG‘ILISHIGA QARSHI INGIBITORLARNI ISHLAB CHIQARISH TEXNOLOGIYASI VA «SUMONO-EKSTRA–M» QO‘LLANISHI.

Berdiarova Gavkhar Ulugbek qizi
Qarshi davlat texnika universiteti magistr
Cho‘liyev Jamshid Ro‘ziboyevich
Qarshi davlat texnika universiteti PhD
E-mail: jamshid.chuliyev@mail.ru

Annotatsiya. Maqolada «SUMONO-ekstra–M» korroziya ingibitori ishlab chiqarish texnologiyasi va uning texnik talablari tahlil qilingan. Boshlang‘ich xomashyo sifatida karbamid (mochevina), monoetanolaminning vakuumli chiqindisi va gossipol smolasi qo‘llaniladi. Karbamid oq kristall modda bo‘lib, suv va spirtda erishi bilan ajralib turadi, monoetanolamin chiqindisi suv va monoetanolamin aralashmasidan iborat, gossipol smolasi esa qora qat’iy massa xususiyatiga ega. Ishlab chiqarish jarayoni bir texnologik tarmoqda amalga oshiriladi. Gossipol smolasi B1 bunkerda 50–60 °C gacha isitiladi, keyin R5 reaktorga monoetanolamin chiqindisi va karbamidning 40% suvdagi eritmasi qo‘shiladi. Aralashma 90–100 °C da bir xil massa hosil bo‘lgunga qadar qo‘zg‘altiriladi. Agar fazalar ajralsa, aralashtirish davom ettiriladi, kerak bo‘lsa erituvchi qo‘shiladi. Tayyor mahsulot E6 idishda saqlanadi. Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, belgilangan texnologiya va parametrlar «SUMONO-ekstra–M» ingibitorini barqaror sifatda olish va mineral tuzlarning yig‘ilishini kamaytirishda samaralidir.

Kalit so‘zlar: SUMONO-ekstra–M, korroziya ingibitori, ishlab chiqarish texnologiyasi, karbamid (mochevina), monoetanolaminning vakuumli chiqindisi, gossipol smolasi, reactor, texnologik jarayon, eritma, mineral tuzlarning to‘planishi, aralashtirish, tayyor mahsulot saqlash, kimyoviy xom-ashyo.

Аннотация. В статье проанализирована технология производства ингибитора коррозии «SUMONO-ekstra–M» и его технические требования. В качестве исходного сырья используются карбамид (мочевина), вакуумные отходы моноэтаноламина и смола госсипола. Карбамид представляет собой белое кристаллическое вещество, растворимое в воде и спирте; отходы моноэтаноламина состоят из воды и смеси моноэтаноламина; смола госсипола имеет вид твердой черной массы. Производственный процесс осуществляется в одной технологической линии. Смола госсипола в бункере Б1 нагревается до 50–60 °C, затем в реактор Р5 добавляются отходы моноэтаноламина и 40%-й раствор карбамида в воде. Смесь перемешивается при 90–100 °C до получения однородной массы. В случае расслоения фаз перемешивание продолжается, при необходимости добавляется

ISSN 3030-3907

растворитель. Готовый продукт хранится в ёмкости Е6. Результаты исследований показывают, что установленная технология и параметры позволяют стабильно получать ингибитор «SUMONO-ekstra–M» и эффективно снижать накопление минеральных солей.

Ключевые слова: SUMONO-ekstra–M, коррозионный ингибитор, технология производства, карбамид (мочевина), вакуумные отходы моноэтаноламина, смола госсипола, реактор, технологический процесс, раствор, отложение минеральных солей, перемешивание, хранение готового продукта, химическое сырьё.

Abstract. The article analyzes the production technology and technical requirements of the corrosion inhibitor «SUMONO-ekstra–M». The primary raw materials used are urea, vacuum residues of monoethanolamine, and gossypol resin. Urea is a white crystalline substance, soluble in water and alcohol; monoethanolamine residues consist of water and a monoethanolamine mixture; gossypol resin is a solid black mass. The production process is carried out on a single technological line. Gossypol resin in bunker B1 is heated to 50–60 °C, then monoethanolamine residues and a 40% aqueous solution of urea are added to reactor R5. The mixture is stirred at 90–100 °C until a homogeneous mass is formed. If phase separation occurs, mixing continues, and a solvent is added if necessary. The finished product is stored in container E6. The research results show that the specified technology and parameters allow stable production of the «SUMONO-ekstra–M» inhibitor and effectively reduce mineral salt deposition.

Keywords: SUMONO-ekstra–M, corrosion inhibitor, production technology, urea (carbamide), vacuum residues of monoethanolamine, gossypol resin, reactor, technological process, solution, mineral salt deposition, mixing, storage of finished product, chemical raw materials.

Kirish.

Korroziya, ya'ni materiallarning atrof-muhit bilan kimyoviy yoki elektrokimyoviy reaksiyalar orqali yomonlashishi, sanoat sohalarida juda keng tarqalgan va muhim muammolardan biridir. Bu jarayon asosan metallar va boshqa qurilish materiallarining uzun muddat davomida zararlanib, o‘zining mexanik va kimyoviy xususiyatlarini yo‘qotishiga olib keladi. Korroziya jarayoni nafaqat materiallarning chidamliligini kamaytiradi, balki texnologik uskunalarning ishdan chiqishiga, energiya va resurslarning isrof bo‘lishiga, hatto atrof-muhitning ifloslanishiga sabab bo‘lishi mumkin. Shu sababli, korroziyaning oldini olish va uni sekinlashtirish uchun samarali usullarni ishlab chiqish, sanoatning barqaror ishlashini ta'minlashda muhim ahamiyat kasb etadi.

Bu muammoni hal qilishda eng samarali usullardan biri - korroziya ingibitorlarini qo‘llashdir. Ingibitorlar - bu kimyoviy moddalar bo‘lib, ular metallar

ISSN 3030-3907

va boshqa materiallarning korroziya jarayoniga to‘sqinlik qiladi, uning tezligini sekinlashtiradi yoki umuman to‘xtatadi. «SUMONO-ekstra-M» ingibitori - aynan shu maqsadga xizmat qiladigan mahsulotlardan biri bo‘lib, uning ishlab chiqarish texnologiyasi va samaradorligi sanoat sohasida keng qo‘llanish imkoniyatini yaratadi. Ushbu ingibitor, o‘zining yuqori samaradorligi, ishga solishdagi osonligi va barqaror natijalar bilan ajralib turadi.

Mazkur maqolada, «SUMONO-ekstra-M» korroziya ingibitorini ishlab chiqarish texnologiyasi, xom-ashyo va ishlab chiqarish jarayonlarining texnik jihatlari keng yoritiladi. Ushbu mahsulotni yaratishda ishlatiladigan asosiy kimyoviy komponentlar - mochevina (karbamid), monoetanolaminning vakuumli chiqindisi va gossypol smolasi haqida batafsil ma'lumot beriladi. Shuningdek, ishlab chiqarish jarayonining bosqichlari, ya'ni gossypol smolasini reaktorga kiritish, monoetanolamin va karbamidning suvli eritmalarini qo‘shish, aralashmaning kerakli haroratda tayyorlanishi kabi jarayonlar tahlil qilinadi.

Tadqiqotda shuningdek, «SUMONO-ekstra-M» ingibitorining sifatini ta'minlash va samaradorligini oshirish uchun kerakli texnologik parametrlar, aralashtirish va erituvchi qo‘shish jarayonlarini to‘g‘ri boshqarishning muhimligi ko‘rsatilgan. Bularning barchasi mahsulotning sifatini yuqori darajada saqlash va korroziyaga qarshi samaradorligini oshirishga yordam beradi. Shu bilan birga, mahsulotning mineral tuzlar yig‘ilishini kamaytirish, uning uzoq muddatli saqlanishini ta'minlashda katta ahamiyatga ega.

Texnologiyaning samaradorligi va barqarorligi, ishlatiladigan xom-ashyoning sifatiga va ularning to‘g‘ri nisbatan qo‘llanilishiga bevosita bog‘liq. Tadqiqotlar natijasida aniqlanganidek, mochevina, monoetanolaminning vakuumli chiqindisi va gossypol smolasi kabi xom-ashyo tarkibiy qismlarining o‘zaro kombinatsiyasi, korroziya ingibitorining yuqori samaradorligini ta'minlaydi. Ushbu xom-ashyo komponentlarining sifatini va ishlab chiqarish jarayonining aniqligini nazorat qilish orqali, texnologik jarayonlarning muvaffaqiyatli amalga oshirilishi mumkin.

«SUMONO-ekstra-M» korroziya ingibitorini ishlab chiqarish texnologiyasi nafaqat samarali, balki barqaror va sanoat sharoitida keng qo‘llanilishi mumkin bo‘lgan jarayon sifatida ajralib turadi. Ushbu ingibitorni ishlab chiqarish va uni amaliyotga tatbiq etish, metall materiallarining korroziyaga qarshi himoyasini kuchaytirish, sanoat uskunalarining muddatini uzaytirish va iqtisodiy jihatdan samarali yechimlar taqdim etadi.

Asosiy qism. «SUMONO-ekstra–M» korroziya ingibitorini ishlab chiqarish texnologiyasi, unga qo‘yiladigan texnik talablar hamda mineral tuzlar cho‘kishini kamaytirishga qaratilgan ingibitorlar olish jarayoni ushbu bo‘limda batafsil yoritiladi. Mazkur texnologiya mavjud sanoat sharoitlarida qo‘llash imkoniyatiga

ISSN 3030-3907

ega bo‘lib, xom-ashyoning samarali ishlatilishi va tayyor mahsulot sifatining barqarorligi bilan ajralib turadi [1–4].

Boshlang‘ich xom-ashyo va materiallarning tavsifi:

«SUMONO-ekstra–M» ingibitorini ishlab chiqarishda bir nechta asosiy kimyoviy komponentlardan foydalaniladi. Ularning fizik-kimyoviy xususiyatlari texnologik jarayonning samarali olib borilishida muhim rol o‘ynaydi.

Mochevina (karbamid) oq rangli, hidsiz kristall modda bo‘lib, kimyo sanoatida keng qo‘llaniladi. Uning molekulyar massasi 60,06 u.b. ni tashkil etadi, zichligi 20 °C haroratda 1,335 g/sm³ ga teng. Karbamid 132,7 °C da eriydi va suvda yuqori darajada eruvchan bo‘lib, 100 ml suvda 108 g gacha eriydi. Bundan tashqari, u spirt va metanol muhitida ham yaxshi erish xususiyatiga ega [1–3]. Ushbu xususiyatlar karbamidni ingibitor tarkibida faol komponent sifatida ishlatish imkonini beradi.

Monoetanolaminning vakuumli chiqindisi qora rangli suyuqlik bo‘lib, monoetanolamin ishlab chiqarish jarayonida hosil bo‘ladigan mahsulotlar aralashmasidan iborat. Uning tarkibida suv miqdori taxminan 30% ni, monoetanolamin esa 10–30% ni tashkil etadi [2–3]. Ushbu chiqindi mahsulotni qayta ishlash orqali iqtisodiy samaradorlikka erishiladi va ishlab chiqarish tannarxi pasayadi.


Gossypol smolasi qora rangli qattiq massa bo‘lib, organik xususiyatlarga ega modda hisoblanadi. U ingibitor tarkibida kompleks hosil qiluvchi va himoyalovchi komponent sifatida muhim ahamiyatga ega [2].

Ishlab chiqarish texnologik jarayoni: «SUMONO-ekstra–M» korroziya ingibitorini ishlab chiqarish yagona texnologik liniyada amalga oshiriladi va bir-biri bilan uzviy bog‘langan bosqichlardan iborat [1–4]. Jarayon mexanik aralashtirgich va qizdirish tizimi bilan jihozlangan R5 reaktorda olib boriladi. Dastlab, B1 bunkerdan gossypol smolasi reaktorga uzatiladi. Gossypol smolasining quyuqligini kamaytirish va reaktorga uzatishni osonlashtirish maqsadida B1 bunkeri 50–60 °C gacha qizdiriladi. Shundan so‘ng, E2 va E3 idishlardan belgilangan miqdorda monoetanolaminning vakuumli chiqindisi hamda karbamidning 40% li suvdagi eritmasi reaktorga kiritiladi.

Reaktordagi aralashma 90–100 °C haroratda uzluksiz aralashtiriladi. Aralashtirish jarayoni bir xil, gomogen massa hosil bo‘lguncha davom ettiriladi. Agar olingan nazorat namunalarida fazalar ajralishi kuzatilsa, texnologik jarayon talablariga muvofiq aralashtirish davom ettiriladi. Aralashmaning qovushqoqligi me’yoridan yuqori bo‘lsa yoki suyuqligi yetarli darajada bo‘lmasa, jarayonga erituvchi qo‘shish orqali reologik xususiyatlar tartibga keltiriladi.

ISSN 3030-3907

Texnologik jarayon yakunlangach, tayyor «SUMONO-ekstra–M» ingibitori E6 idishga uzatiladi va belgilangan sharoitlarda saqlanadi [3,4]. Ushbu bosqichda mahsulotning bir xilligi, barqarorligi va ekspluatatsion xususiyatlari ta’minlanadi.



1-Rasm. «SUMONO-ekstra–M»ingibitori ishlab chiqarishning prinsipial sxemasi.

Б1-gossipol smolasi uchun idish; E2, E3, E4- monoetanolaminning vakuumli haydash qoldig‘i; karbamidning 40% li suvdagi eritmasi va erituvchi (nefras); P5 - reaktor; E6 –tayyor maxsulot uchun idish.

Tadqiqot natijalari. Ushbu ishda «SUMONO-ekstra–M» korroziya ingibitorini ishlab chiqarish texnologiyasi, ishlatiladigan xomashyo va mahsulotning saqlash shartlari tahlil qilindi [1-4]. Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki:

1. Belgilangan texnologik jarayon va parametrlar yordamida barqaror sifatli mahsulot olish mumkin.
2. Karbamid, monoetanolamin vakuumli chiqindisi va gossypol smolasi xom-ashyo sifatida samarali ishlatiladi.
3. Tayyor mahsulotning mineral tuzlar yig‘ilishini kamaytirish qobiliyati korroziyaga qarshi samaradorligini oshiradi.
4. Aralashtirish va erituvchi qo‘shish jarayonlarining to‘g‘ri boshqarilishi mahsulotning sifatini va birxillik darajasini ta’minlaydi.

Tahlillar shuni ko‘rsatadiki, ishlab chiqilgan texnologiya yordamida yuqori sifatli va barqaror xossalarga ega korroziya ingibitorini olish mumkin. Xom-ashyo sifatida ikkilamchi resurslardan foydalanish iqtisodiy samaradorlikni oshiradi, shuningdek, tayyor mahsulotning mineral tuzlar cho‘kishini kamaytirish xususiyati uning korroziyaga qarshi samaradorligini sezilarli darajada yaxshilaydi. Texnologik parametrlarning to‘g‘ri tanlanishi va jarayonlarning qat’iy nazorati esa mahsulot sifatining yuqori darajada bo‘lishini ta’minlaydi.

ISSN 3030-3907

Natijada, ishlab chiqilgan texnologiya korroziyaga qarshi ingibitorlarni sanoat sharoitida samarali va barqaror ishlab chiqarish imkonini beradi [1-4].

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Abdullayev, M., & Karimov, S. (2020). *Korroziya va uning oldini olish texnologiyalari*. Toshkent: Ilmiy nashrlar.
2. Rustamov, A. (2018). *Korroziyaga qarshi ingibitorlar: nazariya va amaliyot*. Toshkent: Kimyo sanoati nashriyoti.
3. Sultonov, B., & Nazarov, T. (2019). *Industrial kimyo: xomashyo va mahsulotlar*. Toshkent: O‘zbekiston Davlat Universiteti nashriyoti.
4. Khakimov, R. (2017). *Korroziya jarayonlarini monitoring qilish va oldini olish*. Toshkent: Ilm-fan.

ISSN 3030-3907

XALQ TABOBATIDA O‘SIMLIKLARDAN FOYDALANISHNING ILMIY ASOSLARI

Nasirova Shohida Erkinovna

JDPU Tibbiyot fakulteti Klinik oldi fanlar kafedrasi o‘qituvchisi

Annotatsiya: Ushbu maqolada xalq tabobatida o‘simliklardan foydalanishning ilmiy asoslari, ularning kimyoviy tarkibi, farmakologik ta’siri va shifobaxsh xususiyatlari yoritiladi. Tadqiqotda an’anaviy retseptlar zamonaviy ilmiy yondashuvlar bilan solishtirilib, dorivor o‘simliklarning inson salomatligini tiklashdagi o‘rni ilmiy asosda tahlil qilinadi.

Kalit so‘zlar: Xalq tabobati, dorivor o‘simliklar, fitoterapiya, shifo, farmakologiya, kimyoviy tarkib, bioaktiv moddalar, an’anaviy davolash, terapiya, sog‘liq.

Annotation: This article explores the scientific foundations of using medicinal plants in traditional medicine, highlighting their chemical composition, pharmacological effects, and healing properties. The study compares traditional recipes with modern scientific approaches and provides an evidence-based analysis of the role of medicinal plants in restoring human health.

Keywords: Traditional medicine, medicinal plants, phytotherapy, healing, pharmacology, chemical composition, bioactive compounds, traditional treatment, therapy, health.

Аннотация: В данной статье рассматриваются научные основы использования лекарственных растений в народной медицине, их химический состав, фармакологическое действие и целебные свойства. В исследовании традиционные рецепты сопоставляются с современными научными подходами, а роль лекарственных растений в восстановлении здоровья человека анализируется на научной основе.

Ключевые слова: Народная медицина, лекарственные растения, фитотерапия, исцеление, фармакология, химический состав, биоактивные вещества, традиционное лечение, терапия, здоровье.

Kirish

Xalq tabobati insoniyat tarixining eng qadimiy tibbiy tajribalaridan biridir. U ming yillar davomida tabiat bilan uyg‘unlikda rivojlanib kelgan bo‘lib, ayniqsa dorivor o‘simliklardan foydalanish xalq tabobatining asosiy qismini tashkil etadi [1]. O‘simliklar shifobaxsh xususiyati haqida qadimgi shumer yozuvlarida, Xitoyning “Shennun ben tsao” asarlarida, Hindistonning “Ayurveda” manbalarida hamda Markaziy Osiyo tabobat maktablarida keng ma’lumotlar berilgan [2]. Ibn Sino, Abu Rayhon Beruniy, Hakim Termiziy kabi allomalar o‘simliklarning davo kuchi, ularning inson organizmiga ta’siri va kimyoviy xususiyatlari haqida chuqur ilmiy izohlar qoldirganlar [3-6]. Bugungi kunda fitoterapiya deb ataladigan

ISSN 3030-3907

yo‘nalish aslida xalq tabobatining ilmiylashtirilgan shakli bo‘lib, zamonaviy tibbiyotda o‘simlik asosidagi dori vositalari keng qo‘llanmoqda.

METODOLOGIYA

O‘simliklarning shifobaxsh xususiyatini ilmiy asoslash jarayoni bir necha bosqichni o‘z ichiga oladi. Avvalo o‘simlikning kimyoviy tarkibi o‘rganiladi, chunki har bir o‘simlik o‘ziga xos alkaloid, flavonoid, glikozid, efir moyi, organik kislotalar va vitaminlarni o‘z ichiga oladi. Ushbu moddalar o‘simlikning terapevtik ta’sirini belgilaydi [7-10]. Masalan, limon, piyoz va sarimsoq tarkibidagi yuqori miqdordagi fitonsidlar mikroblarga qarshi samarali ta’sir ko‘rsatadi. Shuningdek, zira va dolchin tarkibidagi efir moylari hazm jarayonlarini yaxshilaydi, oregano va yalpizning mentolga boy tarkibi esa tinchlantiruvchi xususiyatga ega.Xalq tabobatidagi o‘simliklardan foydalanish ko‘plab kasalliklarni tabiiy yo‘l bilan yengishga yordam beradi. Respublikamiz hududida uchraydigan 450 dan ortiq dorivor o‘simliklar turli kasalliklar uchun qo‘llaniladi. Misol uchun, qizilmiya ildizi o‘pka kasalliklarida, momaqaymoq jigar faoliyatini yaxshilashda, dazmol bargi yallig‘lanishni kamaytirishda, moychechak tinchlantiruvchi sifatida keng qo‘llanadi. Odamlar asrlar davomida kuzatuv, tajriba va amaliyot orqali ushbu o‘simliklarning foydasini aniqlab, ularni davolash maqsadida qo‘llab kelganlar.Zamonaviy ilmiy tadqiqotlar o‘simliklarda mavjud bioaktiv moddalar organizmdagi fiziologik jarayonlarga bevosita ta’sir qilishini tasdiqlaydi. Masalan, flavonoidlar antioksidant ta’sirga ega bo‘lib, hujayralarni erkin radikallar ta’siridan himoya qiladi [11-13]. Tanindar esa yallig‘lanishga qarshi samarali moddalardir. Alkaloidlar asab tizimi faoliyatiga ta’sir qilishi bilan ajralib turadi. Shu bois, o‘simliklardan foydalanganda ularning ilmiy o‘rganilgan xususiyatlariga asoslanish muhimdir.Xalq tabobatining ilmiy asoslangan yo‘nalishlaridan biri bu fitoterapiya bo‘lib, u o‘simliklarni aniq dozada, ma’lum usulda va ma’lum muddat davomida qo‘llashga asoslanadi. Fitoterapiya umumiy tabobatda ham, profilaktik maqsadlarda ham keng qo‘llaniladi. Masalan, na’matak mevasi tarkibidagi yuqori miqdordagi vitamin C immun tizimini mustahkamlashda foydali. Qora choyga qo‘shilgan limon organizmning oksidlanish jarayonlarini barqarorlashtiradi. Zanjabil esa sovuq tegishiga qarshi juda samarali vosita hisoblanadi [14,15].

NATIJA VA MUHOKAMA

O‘simliklarning shifobaxsh moddalarini ajratib olish jarayoni ham ilmiy asosga ega. Masalan, efir moylari distillatsiya yo‘li bilan, flavonoid va glikozidlar ekstraksion usul bilan ajratiladi. Bu jarayonlar xalq tabobatida qo‘llaniladigan damlama, qaynatma, surtma va sharbatlar tayyorlash usullariga o‘xshash, ammo aniq ilmiy nazorat ostida amalga oshiriladi.

ISSN 3030-3907



1-rasm. Efir moylari

Shuningdek, zamonaviy farmatsevtik sanoatda o‘simliklardan tabletkalar, kapsulalar, siroplar, tinkturalar tayyorlanadi.

Xalq tabobati va ilmiy tibbiyotning uyg‘unlashuvi ko‘plab kasalliklarni davolashda yanada samarali natijalar beradi. Masalan, bronxit, gastrit, uyqusizlik, bosh og‘rig‘i kabi kasalliklarda o‘simlik preparatlari ko‘pincha sintetik dorilarga nisbatan engil va tabiiy ta’sir ko‘rsatadi. Ammo har bir o‘simlikni to‘g‘ri qo‘llash uchun ilmiy asosni bilish zarur. O‘simliklarning ba’zilarida kuchli ta’sirga ega moddalarning mavjudligi ularni nazoratsiz qo‘llashni xavfli qiladi. Masalan, belladonna, mingdevona kabi o‘simliklarning tarkibidagi atropin va boshqa alkaloidlar yuqori dozada zaharli bo‘lishi mumkin.



2-rasm. Mingdevona o‘simligi

Shuning uchun xalq tabobati retseptlari bilan ishlashda ehtiyotkorlik talab qilinadi.

ISSN 3030-3907



3-rasm. Belladonna o‘simligi

Dorivor o‘simliklarning inson organizmiga ko‘rsatadigan ta’siri nafaqat ularning tarkibiga, balki qo‘llash usuliga ham bog‘liq. Masalan, moychechak choy sifatida qabul qilinganda yengil tinchlantiruvchi va yallig‘lanishga qarshi ta’sir ko‘rsatadi, damlama holida esa oshqozon faoliyatini yaxshilaydi. O‘tli vannalar bo‘lsa, teri orqali moddalar so‘rilishi natijasida mushaklar bo‘shashadi, qon aylanishi yaxshilanadi.

O‘zbek xalq tabobatida o‘simliklarning turli qismlari — ildiz, poya, barg, gul, meva va po‘stloq — alohida farmakologik ahamiyatga ega. Misol uchun, gulsapsar gullari tinchlantiruvchi bo‘lsa, uning ildizi qonni tozalash xususiyatiga ega. Shuningdek, qora sedana urug‘i immun tizimini mustahkamlovchi va mikroblarga qarshi ta’sir ko‘rsatadi. Bu o‘simlik Qur’oni Karimda ham tilga olingan bo‘lib, “har dardga davo” deb e’lon qilingan.Markaziy Osiyo tabobat maktabi o‘simliklar bilan davolash bo‘yicha boy ilmiy merosga ega.

Ibn Sino “Tib qonunlari” asarida 800 dan ortiq o‘simlikning davo xususiyatini ilmiy asos bilan bayon qilgan. U o‘simliklarni issiq, sovuq, quruq, nam kabi tabiatlarga ajratgan va ularning inson mizojiga ta’sirini o‘z nazariyasiga asoslagan. Bugungi fitoterapiya ko‘plab jihatdan shu ilmiy merosga tayanadi.O‘simliklardan ilmiy asosda foydalanish jarayonining yana bir muhim jihati — ularni to‘g‘ri yig‘ish, quritish va saqlash qoidalariga amal qilishdir. O‘simliklar yilning ma’lum faslida, ertalab yoki kechqurun, oftob kuchli bo‘lmagan vaqtda yig‘ilsa, ularning bioaktiv moddalar miqdori yuqori bo‘ladi. Masalan, yalpiz ertalab, moychechak esa gullash bosqichida yig‘iladi. Quritish jarayoni esa soyada, shamollatiladigan xonada olib borilishi kerak.Xalq tabobatida keng tarqalgan o‘simliklardan biri bu zanjabil bo‘lib, u shamollash, yo‘tal, bo‘g‘im og‘rigi, hazm buzilishi va immunitet sustligi kabi ko‘plab holatlarda qo‘llanadi.

ISSN 3030-3907

Uning tarkibidagi gingerol va shogaol moddalar kuchli yallig‘lanishga qarshi ta’sirga ega. Limon esa vitamin C ga boyligi sababli immunitetni kuchaytiradi, yurak faoliyatini yaxshilaydi. Qora choyga limon qo‘shib ichish asrlar davomida xalq tabobatida eng ko‘p qo‘llanilgan profilaktik vosita hisoblanadi.

O‘simliklardan foydalanishning ilmiy jihatlari orasida ularning o‘zaro ta’sirini o‘rganish ham muhimdir. Ba’zi o‘simliklar bir-birining ta’sirini kuchaytirsa, boshqalari kamaytiradi. Masalan, moychechak va yalpiz birga qo‘llanganda kuchli tinchlantiruvchi effekt beradi. Ammo romashka bilan achchiq o‘simliklarni aralashtirish ba’zan oshqozon faoliyatini buzishi mumkin. Shuning uchun xalq tabobati formulasini tuzishda ilmiy yondashuv zarur.

Zamonaviy tibbiyotda o‘simliklardan tayyorlangan preparatlar farmakologik sinovlardan o‘tkazilib, klinik tadqiqotlar asosida foydalanishga tavsiya qilinadi. Bu jarayon xalq tabobati merosining ilmiy asosini mustahkamlaydi. Statistik ma’lumotlarga ko‘ra, dunyodagi dorivor vositalarning 40 foizi bevosita o‘simliklardan olinadi yoki ularning faol moddalariga asoslanadi.Xalq tabobatining ilmiy asosidagi eng muhim maqsadlardan biri bu o‘simliklar yordamida kasalliklarning oldini olishdir. Fitoterapiya orqali immun tizimini mustahkamlash, organizmni toksinlardan tozalash, ovqat hazmini yaxshilash va asab tizimini muvozanatlashtirish mumkin. Shuningdek, o‘simliklar organizmni yumshoq va tabiiy yo‘l bilan davolashga yordam beradi.

Xulosa qilib aytganda, xalq tabobatida o‘simliklardan foydalanish nafaqat tarixiy tajriba, balki ilmiy asosga ega bo‘lgan tabiat sovg‘asidir. Dorivor o‘simliklarning kimyoviy tarkibi, farmakologik xususiyatlari va terapevtik ta’siri bugungi tibbiyot tomonidan tasdiqlangan. Xalq tabobati va fitoterapiyaning zamonaviy tibbiyot bilan uyg‘unligi esa inson salomatligini saqlash va davolashda keng imkoniyatlarni yaratadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI.

1. Ibn Sino. *Tib qonunlari*.
2. Beruniy A.R. *Saydana*.
3. Ismoilov S. *Dorivor o‘simliklar farmakologiyasi*.
4. Boltaev A. *O‘simlikshunoslik asoslari*.
5. Rahmonov K. *Fitoterapiya va xalq tabobati*.
6. Xaitov O. *Tabiiy davo vositalari*.
7. WHO. *Herbal Medicine Guidelines*.
8. NCBI. *Phytochemistry and Pharmacology of Medicinal Plants*.
9. O‘zbekiston FA. *O‘simliklarning bioaktiv moddalar tarkibi*.
10. Nazarov A. *Sharq tabobati tarixi*.
11. Karimov S. *Farmakognoziya asoslari*.
12. Tursunov R. *Dorivor o‘simliklar ensiklopediyasi*.

ISSN 3030-3907

13. Xolmatova M. *Biofizika va fitokimyo asoslari*.
14. Dehkanov H. *O‘simliklarga asoslangan terapiya*.
15. WHO. *Traditional Medicine Strategy*.

ISSN 3030-3907

KALI LINUX OPERATSION TIZIM YORDAMIDA OCHIQ KODLI RAZVEDKANI AMALGA OSHIRISH USULLARINI TAHLIL QILISH

Rustamov Shamiljon Xasanovich
Axborot texnologiylari va menejment universiteti PhD p.f.f.d
E-mail: shamiljon1988@gmail.com
Norboyev Bexzod Uktam o‘g‘li
Axborot texnologiylari va menejment universiteti asistenti
E-mail: b.norboyev@atmu.uz
Boboqulov Behro‘z Muzaffar o‘g‘li
Axborot texnologiylari va menejment universiteti, magistr
E-mail: boboqulovbehruz639@gmail.com

Annotatsiya: Ushbu maqolada Kali Linux operatsion tizimi yordamida ochiq kodli razvedka OSINTni amalga oshirish usullari, va ochiq kodli razvedkada qo‘llaniladigan vositalar ularning imkoniyatlari ko‘rib chiqiladi. Kali Linux Operatsion tizimidagi vositalar uning imkoniyatlari, axborot xavfsizligidagi o‘rni amaliy misollar bilan o‘rganilib, tahlil qilinadi. Ochiq kodli razvedkani amalga oshirishda ushbu vositalarning afzalliklari, qo‘llashdagi ehtiyot choralar hamda real xavflar baholandi. Shuningdek OSINT vositalarini ishlatishda e’tibor qaratilishi lozim bo‘lgan axloqiy va huquqiy masalalarga ham alohida to‘xtalib o‘tiladi.Bundan tashqari ma’lumotlarimiz ochiqlanmasligi uchun takliflarlar va xulosalar beriladi va olingan natijalar orqali ochiq kodli razvedka texnologiyalarining amaliyotdagi ahamiyati va dolzarbligi yoritiladi.

Kalit so‘zlar: Kali Linux, OSINT,OSINT Framework, Maltego, theHarvester,Shodan,Spiderfoot,Domen,Subdomen,amass,Holehe,Whatweb,Google Dorks,Razvedka.

Аннотация. В данной статье рассматриваются методы реализации разведки по открытым источникам (OSINT) с использованием операционной системы Kali Linux, а также инструменты, применяемые в открытой разведке, и их функциональные возможности. Инструменты операционной системы Kali Linux, их возможности и роль в обеспечении информационной безопасности изучаются и анализируются на основе практических примеров. Оцениваются преимущества использования данных инструментов при проведении OSINT, меры предосторожности при их применении, а также потенциальные реальные угрозы. Кроме того, особое внимание уделяется этическим и правовым вопросам, которые необходимо учитывать при использовании OSINT-инструментов. Также предлагаются рекомендации и выводы, направленные на предотвращение утечки персональных данных. На основе полученных результатов раскрывается практическая значимость и

ISSN 3030-3907

актуальность технологий разведки по открытым источникам в современных условиях.

Ключевые слова: Kali Linux, OSINT, OSINT Framework, Maltego, theHarvester, Shodan, SpiderFoot, домен, субдомен, Amass, Holehe, WhatWeb, Google Dorks, разведка.

Abstract. This article examines the methods of implementing Open Source Intelligence (OSINT) using the Kali Linux operating system, as well as the tools used in open-source intelligence and their capabilities. The tools available in the Kali Linux operating system, their functionalities, and their role in information security are studied and analyzed through practical examples. The advantages of using these tools in conducting OSINT, the necessary precautions during their application, and potential real-world risks are evaluated. In addition, special attention is given to ethical and legal issues that must be considered when using OSINT tools. Furthermore, recommendations and conclusions are provided to prevent the disclosure of sensitive information. Based on the obtained results, the practical significance and relevance of open-source intelligence technologies in real-world applications are highlighted.

Keywords: Kali Linux, OSINT, OSINT Framework, Maltego, theHarvester, Shodan, SpiderFoot, domain, subdomain, Amass, Holehe, WhatWeb, Google Dorks, intelligence.

Kirish

Bugungi kunda axborot xavfsizligini ta’minlash uchun ochiq razvedka texnologiyalarini o‘rganish va ularni amaliyotga tadbiq etish dolzarb bo‘lib bormoqda. Ayniqsa, xakerlik faoliyatlarining kuchaygani, soxta sahifalar va ma’lumot o‘g‘riligining ko‘paygani sharoitida OSINT vositalari orqali xavflarni erta aniqlash imkoniyati muhim ahamiyatga ega.Axborot texnologiyalarining jadal rivojlanishi nafaqat hayotning turli sohalarida yangiliklar va qulayliklar yaratmoqda, balki axborot xavfsizligiga doir yangi muammolarni ham yuzaga keltirmoqda. Hozirgi kunda tashkilotlar va alohida shaxslar faoliyatida raqamli axborot muhim o‘rin tutgani sababli, uni ishonchli himoyalash dolzarb masalaga aylangan. Xavfsizlikni ta’minlashda ochiq manbali razvedka – OSINT (Open Source Intelligence) usullaridan foydalanish muhim ahamiyat kasb etmoqda.

Ochiq manbali razvedka – bu ijtimoiy tarmoqlardan, veb-saytlardan, forumlardan, ommaviy axborot vositalardan va boshqa erkin ochiq manbalardan ma’lumot to‘plash va ularni taxlil qilish orqali xavf-xatarlarni aniqlash, tahdid manbalarini baholash va qarorlar qabul qilishga asos bo‘luvchi axborotlarni jamlash jarayonidir.

Ushbu sohada keng qo‘llaniladigan Kali Linux operatsion tizimi – axborot xavfsizligining mutaxassislari uchun mo‘ljallangan va maxsus vositalar to‘plamini

ISSN 3030-3907

o‘z ichiga olgan kuchli platforma hisoblanadi. Kali Linux operatsion tizim yordamida OSINT vositalarini qo‘llash va turli manbalar orqali ma’lumot yig‘ish, foydalanuvchilarning faolligini tahlil qilish va taxdidlarni aniqlash jarayonlari soddalashtiradi.Kali Linux tizimida ochiq kodli razvedka (OSINT) vositalaridan foydalanish usullari, ularning afzalliklari, texnik imkoniyatlari, xavfsizlik jihatlari hamda real amaliyotdagi qo‘llanilishi tahlil qilinadi.

Ochiq kodli razvedka (OSINT) - bu ochiq manbalardan olingan ma’lumotlarni to‘plash, tahlil qilish va ulardan amaliy razvedka ma’lumotlari olish jarayoni. Bu soha zamonaviy kiberxavfsizlik, jurnalistika, qonuniy tergovlar va biznes razvedkasi kabi sohalarda muhim rol o‘ynaydi. OSINT ning asosiy maqsadi – ommaviy axborot vositalari, ijtimoiy tarmoqlar, davlat ro‘yxatlari va boshqa ochiq manbalardan olingan ma’lumotlarni saralab, ularni ma’lum bir masalani hal qilish yoki tahdidlarni aniqlash uchun ishlatishdir. OSINT ochiq manbalardan ma’lumotlarni yig‘ish va tahlil qilish: ijtimoiy tarmoqlar, ma’lumotlar bazalari, sun’iy yo‘ldosh tasvirlari va hatto messenjerlar. Bugungi kunda OSINT nafaqat qo‘lda qidirish, balki botlar, asboblar va skriptlar yordamida avtomatlashtirishdir.

OSINT manbalari va to‘plash usullari

OSINT manbalari olti asosiy kategoriyaga bo‘linadi:

- Ommaviy axborot vositalari – gazetalar, jurnallar, radio va televideniye;
- Internet manbalari – bloglar, forumlar, ijtimoiy tarmoqlar (Facebook, Instagram, Telegram);
- Davlat ma’lumotlari – ochiq budjetlar, sud hujjatlari, rasmiy bayonotlar;
- Ilmiy nashrlar – konferensiyalar, dissertatsiyalar, patentlar;
- Korporativ ma’lumotlar – moliyaviy hisobotlar, sanoat tahlillari
- Adabiyot – texnik hisobotlar, ishchi hujjatlar.

OSINT uchun ishlatilishi mumkin bo‘lgan ma’lumot manbalari quyidagilarni o‘z ichiga oladi:

Offline manbalar:

- davlat hisobotlari va hujjatlari;
- akademik tadqiqotlar va jurnallar;
- korporativ hisobotlar va konferensiya materiallari;
- an’anaviy ommaviy axborot vositalari (televideniye, radio, gazeta);

Online manbalar:

- internet qidiruv tizimlari (Google, Bing, Yandex);
- ijtimoiy tarmoqlar (Facebook, Instagram, Telegram);
- video platformalari (YouTube, Dailymotion);
- bloglar, forumlar va onlayn hamjamiyatlar.

Ochiq kodli razvedkani amalga oshirish vositalari

ISSN 3030-3907

Maltego - Maltego 2007-yilning 23-oktiyabirida ilk ishga tushirilganidan buyon butun dunyo bo‘ylab deyarli bir million tijorat va jamoat foydalanuvchilari tomonidan yuklab olingan tasdiqlangan vositadir.havolalarni tahlil qilish uchun yaxlit vositadir. Maltego real vaqt rejimida ma’lumotlarni yig‘ish va ma’lumot to‘plash, shuningdek, ushbu ma’lumotni tugunga asoslangan grafikda ko‘rsatishni taklif qiladi, bu ma’lumotlar o‘rtasida naqshlar va bir nechta tartibli ulanishlarni osongina aniqlash mumkin.

Maltego quyidagi sub’ektlar o‘rtasidagi munosabatlarni aniqlash uchun ishlatilishi mumkin:

Shaxslar.

Ismlar;

Elektron pochta manzillari;

Taxalluslar

Odamlar guruhlari (ijtimoiy tarmoqlar)

Kompaniyalar.

Tashkilotlar

Veb-saytlar.

Internet infratuzilmasi, masalan:

Domenlar


DNS nomlari

Netbloklar

IP manzillar


Aloqalar

Hujjatlar va faylla.



1-rasm.Maltegoda tuit.uz saytini osint qilish.

ISSN 3030-3907



2-rasm.Maltegoda shaxs haqida osint qilish.

Spiderfoot – SpiderFoot ochiq manbali razvedka (OSINT) avtomatlashtirish vositasidir. U deyarli barcha mavjud ma'lumotlar manbalari bilan integratsiyalashgan va ma'lumotlarni tahlil qilish uchun bir qator usullardan foydalanadi, bu ma'lumotlarni boshqarishni osonlashtiradi. SpiderFoot-da toza va intuitiv veb-interfeysni ta'minlash uchun o'rnatilgan veb-server mavjud, ammo undan to'liq buyruq qatori orqali ham foydalanish mumkin. U Python 3 da yozilgan va MIT litsenziyasiga ega.

Spiderfootning asosiy xususiyatlari quyidagilar:

vebga asoslangan UI yoki CLI;

200 dan ortiq modular;

python 3.7+;

csv/json/gexf eksporti;

api kalitini eksport/import qilish;

maxsus so'rovlar uchun SQLite back-end;

yuqori darajada sozlanishi;

to'liq hujjatlashtirilgan;

vizualizatsiya;

qorong'i veb-qidiruv uchun TOR integratsiyasi;

docker-ga asoslangan joylashtirishlar uchun Dockerfile;

dnstwist, Whatweb, Nmap va CMSeeK kabi boshqa vositalarni chaqirishi mumkin.

SpiderFoot hujumda (masalan, qizil jamoa mashqlari yoki penetratsion testda) maqsadingizni aniqlash uchun yoki mudofaa maqsadida Internet orqali siz yoki tashkilotingiz fosh qilgan narsalar haqida ma'lumot to'plash uchun ishlatilishi mumkin.


SpiderFoot skanerlashda biz quyidagi ob'ektlarni aniqlash mumkin:

– ip manzili;


ISSN 3030-3907

– domen/sub-domen nomi;
– xost nomi;
– tarmoq quyi tarmog‘i (CIDR);
– asn;
– e-pochta manzili;
– telefon raqami;
– foydalanuvchi nomi;
– shaxsning ismi;


bitcoin manzili;



3-rasm.spiderfoot ishchi oynasi.



4-rasm.spiderfootda natijaning ko‘rinishi




5.1-dars.spiderfootda domen haqida ma’lumot beruvchi oynasi.

ISSN 3030-3907




5.2-dars.spiderfootda domen haqida ma’lumot beruvchi oynasi.



6-rasm.spiderfootda server haqida ma’lumot olish

theHarvester -d domen_nomi -b all bu buyruq barcha bazasidan domenlarni emaillarni va sabdomenlarni topib beradi.Theharvestrni imkoniyatlar keng OSINT tool hisoblanadi.u bizga quyidagi imkoniyatlarni taqdim qiladi.Bular ip manzillarini,subdomenlarni,url manzillarni, email adreslarni topib beradi.



7-rasm.tuit.uz saytining subdomenlari.




8-rasm.tuit.uz sayti orqali topilgan ip manzillar

ISSN 3030-3907




9-rasm.tuit.uz saytida topilgan urllar.



10-rasm.ammasda domenni aktiv tahlil qilish.

Holehe — bu ochiq kodli OSINT vositalaridan biri bo‘lib, u orqali foydalanuvchining email manzilga asosiangan holda turli mashhur onlayn platformalarda (masalan: Twitter, Instagram, GitHub, Netflix, Spotify va boshqa xizmatlarda) shu emailga bog‘langan akkauntlar mavjud yoki yo‘qligini aniqlash mumkin. Ushbu vosita akkauntlar mavjudligini aniqlashda tezkor va passiv razvedka usulida ishlaydi.Bir qator imkoniyatlari bor email orqali profillarni taxlil qilib beradi.OSINT uchun ancha qulay hisoblanadi.loginlar



11-rasm.holeheda email orqali topilgan natija.

Shodan qidiruv tizimi bo‘lib, foydalanuvchilarga turli filtrlar yordamida Internetga ulangan har xil turdagi serverlarni (veb-kameralar, marshrutizatorlarserverlar va boshqalar) qidirish imkonini beradi . Ba'zilar uni xizmat bannerlari uchun qidiruv tizimi sifatida ham ta'riflaydilar, bu esa server mijozga qaytarib yuboradigan metama'lumotlardir. Ushbu metama'lumotlar server

ISSN 3030-3907

dasturiy ta'minoti, xizmat qanday variantlarni qo‘llab-quvvatlashi, xush kelibsiz xabari yoki mijoz server bilan o‘zaro aloqada bo‘lishdan oldin bilishi kerak bo‘lgan boshqa narsalarni o‘z ichiga olishi mumkin.

“Google Dorks” deb nomlangan ushbu kengaytirilgan qidiruvlar xakerlarga maxsus qidiruv buyruqlari va kalit so‘zlardan foydalangan holda tizimlaringizdagi yashirin ma'lumotlarni va hatto xavfsizlikning zaif tomonlarini topishga imkon beradi. Google Dorks, shuningdek, Google xakerligi deb ataladi, aniqroq natijalarni berish uchun maxsus buyruqlardan foydalanadigan ilg‘or qidiruv usullari.

Oddiy kalit so‘zlarni kiritish o‘rniga Google Dorks qidiruvlarni qisqartirish va yashirin ma'lumotlarni topish uchun “filetype:”, “inurl:”, “intitle:” yoki “site:” kabi buyruqlarni birlashtiradi.

Bugungi kunda turli xil soxalarda Google Dorks orqali turli xavflarga duch kelishgan.Bularga misol tariqasida biz quyidagilarni keltirishimiz mumkin.

Sog‘liqni saqlashda:bemorlarning varqalari,ular haqidagi ma’lumotlar,tibbiy ko‘rikdagi ma’lumotlar.

Texnologiyada:dasturning kodi,API kalitlar,server tafsilotlari,ularning ishlash texnikalari.

Ishlab chiqarish sohasida:Mahsulotlarning loyihalari,texnik xizmat ko‘rsatish jurnallarini msol qilishimiz mumkin.

Kompaniyalar o‘zlarining xavlarini baholay olishlari va shuningdek o‘zlarining ma’lumotlarini himoya qilish choralarini ko‘rishlari kerak.

OSINT vositalari tahlili

Vosita nomi	Vazifasi	Ma’lumot oladigan bazasi	Ishlash tezligi
Maltego	Ijtimoiy tarmoq va dark web ma’lumotlarini tahlil qilish, shaxslar haqida ma’lumot yig‘ish, vizualizatsiya	Ijtimoiy tarmoqlar, dark web, turli identifikatsiya ma’lumotlari	O‘rta (vizualizatsiya sababli)
Spiderfoot	Raqamli izlarni xaritalash, IP manzillar, domen nomlari va boshqa ma’lumotlarni avtomatik tahlil qilish	IP manzillar, domen nomlari, elektron pochta manzillari,	O‘rta (keng qamrovli tahlil sababli)

ISSN 3030-3907

theHarvester	Domen va elektron pochta manbalarini ochiq manbalardan yig‘ish va tez tahlil qilish (subdomain va host ma'lumotlari).	Qidiruv tizimlari (Google, Bing), PGP keyserverlar, Shodan, DNS yozuvlari va umumiy ochiq manbalar.	Past–O‘rta (faqat ochiq manbalardan boshlab)
amass	Passiv va aktiv subdomain aniqlash, DNS enumeratsiyasi, sertifikat va tarmoq tarmoqlash.	DNS yozuvlari, Certificate Transparency (crt.sh va boshqalar.), texnologik tizimlar, web arxivlar va turli OSINT APIlari.	O‘rta (passiv + ba’zi faol harakat qilish)
Holehe	Elektron pochta manzilining turli platformalarda ro‘yxatdan o‘tganligini tekshirish	120+ sayt va ijtimoiy tarmoqlar (X, Instagram, Imgur, va boshqalar)	Juda tez (faqat e-pochta tekshirish)
Recon-ng	Ochiq manbalardan ma’lumot yig‘ish, hujum yuzasini tahlil qilish, domen ma’lumotlarini yig‘ish	Turli internet manbalar, API integratsiyalari, domeni ma’lumotlari	Tez (avtomatlashtirilgan)
shodan	Internetga ulangan qurilmalarni qidirish, zaifliklarni aniqlash	Internet qurilmalari, serverlar, xizmatlar, zaifliklar bazalari	O‘rta-tez (ma’lumotlar hajmiga bog‘liq)

Bugungi kunda ma’lumotlarimiz OSINT bazasiga aylanmasligi uchun har bir shaxs quyidagilarga amal qilishi kerak.

– Bularga ijtimoiy tarmoqlardan foydalanganda rasmlarini yuklamaslik.

ISSN 3030-3907

– Ijtimoiy tarmoqdan foydalanayotganda,anonimlik qoidalariga rioya qilishlari kerak.

– O‘qigan universiteti,yoshi ish joyi,yashash manzilini qo‘ymasliklari kerak.

– Ma’lumotlar bazasini xavfsiz parollar va maxfiy ma’lumotlar bilan himoya qilish zarur.

– Shaxsiy xavfsizlikka rioya qilish kerak.Korxona yoki tashkilotlarda xodimlarni tushuntirish ishlari olib borish kerak.

– Online xaridlarni amalga oshirayotganda ilovalarga o‘tib to‘lovlarni amalga oshirish.

– Umuman internet ishlatiladigan joylarda xodimlarni audit qilib borish kerak,pochta alohida bo‘lishi kerak,

Xulosa

Kali Linux operatsion tizimi asosida ochiq kodli razvedka OSINT usullarini tahlil qilish va amaliy qo‘llash asosiy maqsad qilib olingan bo‘lib, quyidagi natijalarga erishildi:

– ochiq manbalarga asoslangan razvedka OSINT tushunchasi, uning usullari va bosqichlari chuqur o‘rganildi;

– Kali Linuxda OSINT vositalari amaliy misollar asosida tahlil qilindi;

– domen va subdomenlarni aniqlash email orqali ro‘yxatdan o‘tilgan saytlarni topish bosqichlari amaliyotda bajarildi.

Bugungi kunda axborot xavfsizligi bilan bog‘liq tahdidlar ortib borayotgani sababli, OSINT texnologiyalaridan samarali foydalanish dolzarb ahamiyat kasb etmoqda. Mazkur ishda ishlab chiqilgan yondashuvlar axborot tizimlarining zaifliklarini aniqlash va tahlil qilishda qo‘llanishi mumkin bo‘lib, ularning xavfsizligini mustahkamlashda muhim amaliy ahamiyatga ega ekani ilmiy asosda isbotlab berildi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Wilson Bautista. Practical Cyber Intelligence: How action-based intelligence can be an effective response to incidents (Packt Publishing, 2018, 361 bet).

2. Diego Rodrigues. Kali Linux OSINT: Fundamentals and Advanced

3. Shoniyozova YQ, Turdiyeva M.A., Norboyev BU TARMOQLARNING HUJUMLARNING profilaktikasi TIZIMLARI //INNOVATSIONNYE MEXANIZMY I STRATEGICHESKIE PRIORITETY NAUCHNO. – 2020. – S. 46.

4. Shoniyozova, YQ, M.A.Turdiyeva, BU Norboyev. "TARMOQLARNI HUJUMLARNI OLDINI OLISH TIZIMLARI". INNOVATSIONNYE MEXANIZMY I STRATEGICHESKIE PRIORITETY NAUCHNO (2020): 46.

5. Shoniyozova, YQ, Turdiyeva, MA, & Norboyev, BU (2020). TARMOQLARNING HUJUMLARINI OLDINI OLISH TIZIMLARI.

ISSN 3030-3907

INNOVATSIONNYE MEXANIZMY I STRATEGICHESKIE PRIORITETI NAUCHNO , 46.

6. Kadyrov, B. K. (2022). Perspectives of problems in the study of database science in the Credit-Module System and their solutions. International Journal of Formal Education, 2(1), 16-22.

7. Kurbanov, J., Halikov, A., & Ortikov, M. (2019). Devices for magnetization and demagnization of rail lashes and their comparative analysis with existing. In Технические науки: проблемы и решения (pp. 50-53).

8. Rustamov AB RAQAMLI SANOAT STRUKTURASINI INNOVATSION RIVOJLANTIRISHNING NAZARIY TAMOYILLARI // Iqtisodiyot va jamiyat. - 2024. - № 12-2 (127). - B. 757-761.

9. Rustamov, AB "RAQAMLI SANOAT STRUKTURASINI INNOVATSION RIVOJLANTIRISHNING NAZARIY TAMOYILLARI." Iqtisodiyot va jamiyat 12-2 (127) (2024): 757-761.

10. Rustamov, A. B. (2024). RAQAMLI SANOAT STRUKTURASINI INNOVATSION RIVOJLANTIRISHNING NAZARIY TAMOYILLARI. Iqtisodiyot va jamiyat , (12-2 (127)), 757-761.

ISSN 3030-3907

POLIETILENPOLIAMIN ISHTIROKIDA POLIVINILXLORID ASOSIDAGI SULFOKATIONITNI MODIFIKATSIYALASHDA FIZIK-KIMYOVIY OMILLARNING ROLI.

Hasanova Nargiza Sanjar qizi
Qarshi davlat texnika universiteti magistr
Cho‘liyev Jamshid Ro‘ziboyevich
Qarshi davlat texnika universiteti PhD
E-mail: jamshid.chuliyev@mail.ru

Annotatsiya. Ushbu tadqiqotda mahalliy xomashyolar asosida plastikat polivinilxlorid, oltingugurt va aminlar ishtirokida tarkibida oltingugurt va azot tutgan poliamfolit sintezi amalga oshirildi. Sintez jarayonida dastlab plastikat PVX oltingugurt bilan modifikatsiyalanib, keyingi bosqichda polimer zanjiridagi oltingugurt oksidlovchi ishtirokida oksidlandi va sulfoguruhlar tutgan kation almashinuvchi polimer olindi. Almashinmagan xlor atomlarini asos xossali amin guruhlari bilan almashtirish maqsadida sulfokationit polietilenpoliamin oligomeri bilan modifikatsiya qilindi. Modifikatsiya jarayoniga harorat va reaksiya davomiyligi kabi omillarning ta’siri poliamfolitning statik almashinuv sig‘imi qiymatlari asosida o‘rganildi. Tadqiqot natijalariga ko‘ra, sulfokationitni polietilenpoliamin bilan aminlash uchun eng maqbul harorat 150 °C ekanligi aniqlandi. Olingan poliamfolit yuqori ionalmashinuv xususiyatlariga ega bo‘lib, funksional polimer materiallar yaratishda amaliy ahamiyatga ega.

Kalit so‘zlar: polivinilxlorid, sulfokationit, poliamfolit, polietilenpoliamin, modifikatsiyalash, aminlash, statik almashinuv sig‘imi, ionalmashinuvchi polimerlar.

Аннотация. В данной работе проведён синтез полиамфолита, содержащего серу и азот, на основе местного сырья — пластифицированного поливинилхлорида, серы и аминов. На первом этапе пластифицированный ПВХ был модифицирован серой, после чего атомы серы в полимерной цепи подвергались окислению с образованием сульфогрупп, в результате чего был получен катионообменный полимер. Для замещения непрореагировавших атомов хлора в макромолекуле на аминогруппы основного характера проведена модификация сульфокатионита олигомером полиэтиленполиамина. Влияние температуры и продолжительности реакции на процесс модификации оценивали по значениям статической обменной ёмкости полученного полиамфолита. Установлено, что оптимальной температурой аминолиза является 150 °C. Полученный полиамфолит характеризуется повышенными ионообменными свойствами и представляет практический интерес для создания функциональных полимерных материалов.

ISSN 3030-3907

Ключевые слова: поливинилхлорид, сульфокатионит, полиамфолит, полиэтиленполиамин, модификация, аминирование, статическая обменная ёмкость, ионообменные полимеры

Abstract. In this study, a sulfur- and nitrogen-containing polyampholyte was synthesized using locally available raw materials, including plasticized polyvinyl chloride, sulfur, and amines. At the initial stage, plasticized PVC was modified with sulfur, followed by oxidation of sulfur atoms in the polymer chain to form sulfonic groups, resulting in a cation-exchange polymer. To substitute unreacted chlorine atoms in the macromolecular chain with basic amino groups, the sulfonated cation exchanger was modified with an oligomer of polyethylene polyamine. The effects of temperature and reaction time on the modification process were evaluated based on the static ion-exchange capacity of the obtained polyampholyte. The results showed that the optimal temperature for the amination reaction is 150 °C. The synthesized polyampholyte exhibits enhanced ion-exchange properties and is promising for the development of functional polymeric materials.

Keywords: polyvinyl chloride, sulfonated cation exchanger, polyampholyte, polyethylene polyamine, modification, amination, static ion-exchange capacity, ion-exchange polymers.

Kirish.

Bugungi kunda sintetik polimerlar sanoatning turli tarmoqlarida keng ko‘lamda qo‘llanilmoqda. Polimerlar orasida ion almashinuvchi materiallar gidrometallurgiyada rangli, kamyob, og‘ir va nodir metallarni ajratib olish va texnologik eritmalarni konsentrlashda, issiqlik elektrostansiyalari va kimyo ishlab chiqarish zavodlarida suvni tayyorlashda, suvni yumshatishda oqava suvlarni tozalashda ko‘p miqdorda ishlatiladi. Shuning uchun mahalliy xom ashyolardan yangi ion almashinuvchi materiallarni sintez qilish va ularning fizik-kimyoviy va sorbsion xossalarini o‘rganish dolzarb vazifalardan biri hisoblanadi.

Mahalliy xomashyolar plastikat polivinilxlorid(PVX), oltingugurt va aminlar ishtirokida tarkibida oltingugurt va azot tutgan poliamfolit olindi. Buning uchun dastlab plastikat PVXga oltingugurt modifikatsiyalanib[1, 1623–1628-b; 2, 611-614 b.] keyingi bosqichda polimer zanjiridagi oltingugurtni oksidlovchi ishtirokida oksidlash orqali sulfoguruxlari tutgan kation almashinuvchi polimer olingan. Olingan polimer zanjiridagi sulfoguruhlariga almashinmagan xlor atomlarini o‘rniga asos xossali aminoguruxlarini kiritish maqsadida polietilenpoliamin(PEPA) oligomerini modifikatsiyalash reaksiyalari olib borildi. Modifikatsilash jarayonlariga turli omillarning tasirini olingan poliamfolitning statik almashinuv sig‘imiga (SAS) asoslanib o‘rganish natijasida jarayonning maqbul sharoitlari topildi.

ISSN 3030-3907

Tadqiqot natijalari. Sulfokationitga polietilenpoliaminni modifikatsiyalash jarayoniga haroratning bog‘liqligi:

PVX asosidagi sul’fokationitni aminlash reaksiyasiga harorat ta’cirini o‘rganishda 140 ^{0}C dan 150 ^{0}C gacha bo‘lgan haroratda olingan namunaning SAS ga va massa o‘zgarishiga asoslanib modifikatsiyalash jarayonining muqobil harorati topildi. Bundapolivinilxlorid asosidagi sul’fokationit tarkibidan harorat ortishi bilan HCl ajralib chiqishi, -SO_3H guruhlari almashinmagan xlor atomlari o‘rnini amin guruhlari bog‘lanishi hisobga olindi. Olingan natijalar quyidagi 1-jadvalda keltirilgan.

1-jadval.

Sulfokationitni PEPA bilan modifikatsiyalab olinganpoliamfolitning SAS qiymatini reaksion muhit haroratiga bog‘liqligi.

Harorat ^{0}C	Reaksiyadavomiyligi (soat)	PEPA Konsentratsiyasi (%)	SAS mg-ekv/g HCl	SAS mg-ekv/g NaOH
100	6	80	2,05	3,75
110	6	80	2,65	3,75
120	6	80	3,15	3,70
130	6	80	3,50	3,67
140	6	80	3,78	3,62
150	6	80	4.5	3,58
160	6	80	3.85	2,15
170	6	80	1,70	0,66

Yuqoridagi 1-jadvalda ko‘rinib turibdiki, reaksion muhit harorati ortishi bilan hosil bo‘lgan poliamfolitning SAS qiymati 150 ^{0}C gacha ortgan, keyin harorat ortishi bilan poliamfolitning fizik -kimyoviy xossalari susayganligi sababli 160 ^{0}C dan boshlab polimertermik destruksiyaga uchray boshlaganligini xulosa qilish mumkin. Chunonchi yuqori harorat 170 ^{0}C da olib borilgan reaksiyasida massa kamayganligi kuzatildi. Sulfokationitni PEPA bilan aminlash reaksiyalarini 150 ^{0}C da olib borildi.

Ma’lumki, reaksiyaning davomiyligi ham tadqiq qilinadigan qayta shakllanish darajasiga ta’sir ko‘rsatadi. Shu sababli keyinchalik reaksiya davomiyligining sulfokationit bilan PEPAning modifikatsiyalanish darajasiga ta’siri o‘rganilgan.Reaksiya 150 ^{0}C temperaturada 2, 3, 4, 5, 6 va 8 soat vaqt davomida o‘tkazilgan. Mazkur tadqiqotlarning natijalari 2-jadvalda keltirilgan.

ISSN 3030-3907

2-jadval

Sulfokationitni PEPA bilan modifikatsiyalab olingan poliamfolit SAS qiymatining reaksiya davomiyligiga bog‘liqlik grafigi(S_{PEPA}=80%; T=423 K)


Reaksiyadavomiyligi (soat)	Harorat ^{0}C	PEPA Konsentratsiyasi (%)	SAS mg-ekv/g HCl	SAS mg-ekv/g NaOH
2	150	80	2,65	3,75
3	150	80	3,15	3,70
4	150	80	3,50	3,75
5	150	80	3,78	3,64
6	150	80	4.5	3,58
7	150	80	3.85	3,35
8	150	80	1,70	3,26

Yuqoridagi 2-jadvalda ko‘rinib turibdiki, reaksiyaning davomiyligi 5 soatgacha oshirilganda olingan mahsulotlarning statik almashinish sig‘imlari (SAS) ortadi, so‘ngra esa sezilarli darajada o‘zgarmaydi, malum vaqtdan keyin esa kamayganligini ko‘rishimiz mumkin. Shuningdek makrozanjir bilan funksional guruh o‘rtasidagi ko‘prikchaning uzunligi va tabiati olinadigan ionitlarning statik almashinish sig‘imlariga (SAS) ta’sir ko‘rsatishi aniqlangan. Shuningdek PVX zanjiridagi funksional guruxlarning fazoviy tuzilishi va regulyarligi PEPA molekulalarining birikishiga ma’lum darajada ta’sir qiladi. Bu vaqt suyuq PEPA sulfokationit granulalari g‘ovaklariga kirib borishi va PEPAning makromolekula zanjiriga modifikatsalanishiga yetarli bo‘lganligi xulosa qilindi.

Sulfokationit va poliamfolitning identifikatsiyasi


Sulfokationit va PEPA reaksiyasi maxsulotini identifikatsiyalash uchun IQ spektr tahlili o‘tkazildi. Quyidagi namunalarda IQ spektrlari taxlili keltirilgan.

ISSN 3030-3907



1- rasm.PVX ning IK spektri

Keltirilgan 1-rasmdagi malumotlardan ko‘rinadiki hosil bo‘lgan polimerlarning IK-spektrlarida 1680 sm^{-1} sohada yutilish chiziqlari kuzatildi, ushbu yutilishlar >C=C< bog‘larning valent tebranishlariga hosdir. Ushbu chiziqlarning paydo bo‘lishi vinil guruhlarining degidroxlorlanishi bilan bog‘liqdir.




2- rasm.PVX+S ning IK spektri

2– rasmda 1100 sm^{-1} sohadagi chiziq tion guruhining (C=S) valent tebranishiga hos. Barcha o‘rganilgan namunalar uchun 1- rasmdagi 1480 sm^{-1} sohada yutilish chiziqlari kuzatilib, ular skeletli C-C, deformatsion C-H va deformatsion CH_2 tebranishlariga hosdir. Namunalarning IK-spektrlarida 1-


ISSN 3030-3907

rasmdagi 650 $sm^{-1}$to‘lqin uzunliklarida jadal yutilish chiziqlari aniqlanib, ular o‘z navbatida C-Cl valent tebranishlari uchun hosdir [3].



3- rasm. Sulfokationit ning IK spektri

Infraqizil-spektroskopik qiyosiy analiz tadqiqot ma’lumotlari 3 va 4-rasmlardagi 1723 sm^{-1} sohalarda kationit tarkibida bir valentli -SO_3H sulfoguruh borligini ko‘rsatadi.




4- rasm.Poliamfolitning IK spektri

4 - rasmda esa 3288 sm^{-1} sohadagi yutilish >N-H bog‘lanishning deformatsion tebranishlarini xarakterlaydi. 1281 sm^{-1} sohada ikkilamchi va birlamchi amin tuzlarini xarakterlaydigan keng yutilish soxalarining borligi polikompleksonlarda ichki tuz formasida amino hamda sulfoguruhlarining mavjudligini ko‘rsatadi[4].

ISSN 3030-3907

Olingan IQ spektr taxlillari asosida PVX asosidagi -SO_3H guruh tutgan sulfokationitni polietilenpoliamin bilan kimyoviy reaksiya tenglamasini quyidagicha ifodalash mumkin:



Yuqoridagi reaksiyadan ko‘rinib turibdiki polimer zanjiridagi sulfoguruhlari(-SO_3H)ga almashinmagan xlor atomlarini o‘rniga asos xossali aminoguruhlari(>NH) almashinganligini ko‘rish mumkin. Bu fungsional guruxlar olingan ionitni ham kislotalik ham asoslik xossasini nomoyon qilishini ko‘rsatadi.

Xulosa. Tadqiqot natijalariga ko‘ra, plastikat polivinilxlorid asosida sintez qilingan sulfokationitni polietilenpoliamin bilan modifikatsiyalash orqali tarkibida oltingugurt va azot saqlovchi poliamfolit olish mumkinligi aniqlandi. Modifikatsiya jarayoniga harorat va reaksiya davomiyligi sezilarli ta’sir ko‘rsatishi ko‘rsatildi. Eng yuqori statik almashinuv sig‘imi 150°S haroratda va 5–6 soat davom etgan reaksiya sharoitida kuzatildi. Yuqori haroratlarda polimerning termik destruksiyasi natijasida fizik-kimyoviy xossalarining pasayishi aniqlandi. IQ-spektroskopiya natijalari polimer zanjirida –SO_3H va amin guruhlarining mavjudligini tasdiqlab, olingan materialning ham kislotalik, ham asoslik xossalarga ega poliamfolit ekanligini ko‘rsatdi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Шаглаева Н.С. и др. Сульфуризация поливинилхлорида. *Журнал прикладной химии.* 2013. Т. 86, № 10. С. 1623–1628.

2. Bayandin V.V., Sultangare R.G., Prozorova, G.F.,Vaul’skaya T.I., Khutsishvili S.S. Sulfurization Polyvinyl Chloride. Russian Journal of Applied 2013, 86(4): 611-614.

3. Ахмедов, Ш., & Каримов, Т. (2018). Поливинилхлорид асосидаги ионитлар синтези ва модификацияси. *Полимерлар химияси журнали*, 45(3), 1623–1628.

5. Иброҳимов, М. (2017). Сульфокатионитларни полиэтиленполиамин билан модификациялаш технологияси. *Фан ва техника*, 12(5), 611–614.

ISSN 3030-3907

QUYOSH-BIOMASSA PIROLIZ TIZIMLARI KONFIGURATSIYASI VA ORIENTATSIYASI TAHLILI

Qodirov Jobir Ro‘zimamatovich
Buxoro davlat texnika universiteti Geliofizika, qayta tiklanuvchi energiya manbalari va elektronika kafedrasi dotsenti
E-mail: qodirov.jobir@mail.ru
Yangiboyev Fayoz G‘aybulla o‘g‘li
Buxoro davlat texnika universiteti Elektr va energetika muhandisligi kafedrasi doktoranti
E-mail: yangiboyevfayoz@gmail.com

Annotatsiya. Maqolada quyosh-biomassa piroliz tizimlarining tuzilishi, issiqlik-quyosh tizimlari va reaktor orientatsiyasi tahlil qilinadi. Turli konsentratorlar va reaktor joylashuvlari piroliz samaradorligi va mahsulot hosildorligiga ta’siri ko‘rib chiqiladi. Natijalar tizimlarni optimallashtirish va energiya samaradorligini oshirish imkoniyatlarini ko‘rsatadi.

Kalit so‘zlari. Biomassa pirolizi, quyosh-biomassa piroliz tizimlari, issiqlik-quyosh tizimlari, reaktor orientatsiyasi, reaktor konfiguratsiyasi, konsentratsiyalangan quyosh nuri, parabolik konsentratorlar, fikslangan qatlamli piroliz (fixed-bed pyrolysis).

Аннотация. В статье анализируются структура солнечно-биомассовых пиролизных систем, солнечно-тепловые системы и ориентация реакторов. Рассматривается влияние различных концентраторов и конфигураций размещения реакторов на эффективность пиролиза и выход продуктов. Полученные результаты показывают возможности оптимизации систем и повышения энергетической эффективности.

Ключевые слова: Пиролиз биомассы, солнечно-биомассовые пиролизные системы, солнечно-тепловые системы, ориентация реактора, конфигурация реактора, концентрированное солнечное излучение, параболические концентраторы, пиролиз в неподвижном слое (fixed-bed pyrolysis).

Annotation. The article analyzes the structure of solar–biomass pyrolysis systems, solar thermal systems, and reactor orientation. The effects of different concentrators and reactor configurations on pyrolysis efficiency and product yield are examined. The results demonstrate opportunities for system optimization and improvement of energy efficiency.

Keywords: Biomass pyrolysis, solar–biomass pyrolysis systems, solar thermal systems, reactor orientation, reactor configuration, concentrated solar radiation, parabolic concentrators, fixed-bed pyrolysis.

Kirish.

ISSN 3030-3907

Dunyo aholisi o‘sishda davom etmoqda, bu esa energiya iste'moli ortishini keltirib chiqaradi. Tadqiqotchilarning ta'kidlashicha, 2050-yilga kelib, dunyo aholisi 9,3 milliard kishiga yetadi [1]. Bundan kelib chiqadiki, aholi kundalik energiya talabini qondirish uchun juda ko‘p energiya resurslari talab etiladi. Quyosh va biomassani konvertatsiya qilish orqali quyosh energiyasi va bioyoqilg‘i ishlab chiqarish uchun qayta tiklanadigan energiya manbalaridan foydalanishga katta e'tibor qaratilgan. Bu ikki jarayon barqaror bo‘lib, global energiya ehtiyojlarini qondirishi mumkin. Bu jarayonlar nafaqat bioyoqilg‘i, balki biogaz, biomoy va bioko‘mir kabi boshqa mahsulotlarni ham hosil qiladi. Sharma va boshqalar esa biomassani uglerod, vodorod va kisloroddan tashkil topgan, tarkibida azot va oltingugurt elementlari ham bo‘lgan turli uglevodorod aralashmalari sifatida tavsiflagan[2]. Biomassani qayta ishlashning asosiy usullaridan biri — undagi biopolimerlarning kislorodsiz sharoitda issiqlik ta’sirida parchalanishi bo‘lib, bu jarayon piroliz deb ataladi. Umuman olganda, biomassaning tarkibiy qismlari polimerik materiallar, ekstraktiv moddalar va minerallar hisoblanadi [2],[3].

Piroliz kislorod bo‘lmagan yuqori haroratlarda sodir bo‘ladi. Shu sababli, mos keladigan haroratga erishish uchun issiqlik energiyasi kerak bo‘ladi. Ko‘pincha bu issiqlik energiyasi atrof-muhitga salbiy ta’sir ko‘rsatadigan issiqxona gazlarini hosil qiluvchi qazilma yoqilg‘idan foydalanib ishlab chiqariladi. Nurlanishni turli burchaklarda jamlash, reaktorlarni esa vertikal yoki gorizontal holatga joylashtirish orqali amalga oshirilgan. Ushbu tahlilning maqsadi ushbu termo-quyosh reaktor tizimlari tuzilmalari, joylashuvlarini va olingan natijalarni jamlash va tahlil qilishdir.

2. Quyosh–biomassa pirolizining salohiyati: Quyosh va biomassa tabiatga zarar yetkazmaydigan energiya hosil qiladi. Yuqori quvvatli parabola tipidagi qabul qilgich yoki konsentratorlardan foydalanish chiqindi yoqilg‘i bilan isitishga nisbatan pirolizning dastlabki haroratiga qisqa vaqt ichida (yuqori issiqlik oqimi) erishishga yordam beradi va qizdirish tezligini nazorat qilish imkonini beradi. Bundan tashqari, funksional faol guruhlarning ko‘pligi materialning reaktivligini oshiradi. Natijada smola bug‘lari g‘ovaklarda qisqaroq vaqt ushlanadi va kondensatsiya jarayoni kamayadi. Agar maqsad bioyoqilg‘i ishlab chiqarish bo‘lsa, bu holat kamchilik hisoblanadi, biroq tuproq unumdorligini oshirish uchun bioko‘mir olish ko‘zda tutilgan bo‘lsa, aksincha, bu qulaylikka aylanadi. Bundan tashqari, quyosh nurlanishining doimiy emasligi (bu quyosh tizimining tezkor javob berish qobiliyatiga ta’sir qiladi), issiqlik manbaining energiya zichligining pastligi hamda piroliz jarayonini olib borish uchun konsentratorlar yoki qo‘shimcha issiqlik manbalariga ehtiyoj mavjudligi muhim cheklovlar hisoblanadi.

3. Quyosh-biomassa pirolizida kontseptual qizdirish rejimlari

ISSN 3030-3907

Aksariyat o‘rta darajadagi quyosh konsentratorlar 100 dan 500 °C gacha bo‘lgan haroratni ishlab chiqarishi mumkin, bu esa piroliz jarayonining birlamchi va ikkilamchi reaksiyalari (400–900 °C) uchun yetarli emas, shu sababli biomassa haroratini yanada oshirish uchun qo‘shimcha issiqlik manbalaridan foydalanish zarur. Yana bir omili — quyosh nurlanishining uzluksiz bo‘lmagan tabiati, ya’ni quyosh tizimlari quyoshli va quyoshsiz davrlarning almashinib turishi bilan tavsiflanadi. Biroq quyosh yo‘q bo‘lgan yoki quyosh nurlanishi past bo‘lgan vaqtlarda, ko‘rinadigan spektr to‘lqin uzunligi (400–700 nm) va quyosh nurlanishiga o‘xshash emissiv kuchga ega sun’iy yorug‘lik simulyatorlari (tungsten lampa; ksenon yoy lampalari; karbon yoy lampalari; galogen lampalar; super lazerlar va boshqalar) qo‘llanilgan[4].

4. Quyosh qabul qilgichlari va konsentratorlar

Quyosh nurlanishidan kerakli haroratni hosil qilish uchun quyosh oqimi zichligini oshiruvchi qo‘llab-quvvatlovchi tizim talab qilinadi. Yer yuzasida gorizontal tekislikga tushuvchi o‘rtacha irradiatsiya 170 dan 300 W/m² gacha bo‘lib, bu 50 °C dan past bo‘lgan atrof-muhit haroratini yuzaga keltirishi mumkin. Optik qurilma tanlovi kerakli harorat diapazoniga bog‘liq. Mavjud konsentratsiyalovchi va konsentratsiyalovchi bo‘lmagan optikalar quyidagilardan iborat: tekis plastinali kollektorlar (konsentratsiyalovchi emas, harorat diapazoni 100 °C dan past), parabolik, oynali truba yoki parabola (100–500 °C), chiziqli oynalar (taxminan 9 kVt issiqlik quvvati), chiziqli Fresnel va markaziy parabola qabul qilgichlari (≈1000 °C) [5]. 1-rasmda turli optik konsentratsiya qurilmalari ko‘rsatilgan [6]. Tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, odatda 300–900 °C oralig‘ida kerakli haroratga erishish uchun bir jarayonda bir nechta konsentratorlar birlashtirilishi mumkin, buni misol bilan ko‘rsatgan. Shu bilan birga, qaysi turdagi konsentratsiya qurilmasi ishlatilmasin, uni to‘g‘ri o‘rnatish biomassaning samarali issiqlik parchalanishini va suyuqlikning to‘g‘ri yig‘ilishini ta’minlash uchun juda muhimdir.

5. Termal-quyosh tizimlari va reaktorlarning joylashuvi

Quyosh energiyasida ishlovchi biomassa pirolizi jarayonidan yuqori samaradorlikka erishish uchun quyosh-termal tizimlar hamda reaktorning to‘g‘ri yo‘nalishda o‘rnatilishi muhim ahamiyatga ega. Reaktor dizayni/konfiguratsiyasi va uning joylashuvi piroliz jarayonining asosiy qismidir va butun tizimning umumiy sarmoya xarajatlarining taxminan 10–15% ini tashkil etadi. Reaktor konfiguratsiyasi suyuqlikni to‘plash usuliga ta’sir qiladi.

5.1. Tabiiy yorug‘lik manbai bilan vertikal joylashtirilgan uzluksiz qizdiriladigan reaktorlar

Ko‘plab quyosh pirolizi qurilmalarida reaktorning vertikal joylashuvi tanlangan, ehtimol suyuqlikni tortish kuchi yordamida osonroq yig‘ish/yuvib

ISSN 3030-3907

tushirish uchun. [7] Meksikada pomidor chiqindilari va agava barglarining quyosh–biomassa pirolizida vertikal joylashtirilgan sferik shakldagi borosilikat statsionar reaktorni qo‘llagan. Reaktor-termal tizimning joylashuvi 2-rasmda ko‘rsatilgan.

Geliostat qabul qilingan nurlanishni gorizontal joylashtirilgan quyosh konsentrator pechiga (25 kW, 450–1550 °C) yo‘naltiradi; bu pech reaktor tizimidan 3,68 m masofada joylashgan va konsentratsiya maydoni diametri 8 sm. Ushbu o‘rnatish konfiguratsiyasi biomassa ustiga to‘g‘ridan-to‘g‘ri nurlanishni ta’minladi. Argon gazi reaktor devorlarini tozalash va reaktor ichida inert muhit yaratish uchun ishlatilgan. Dizaynning maqsadi ko‘proq bioko‘mir olish va uni turli qizish tezliklari hamda 1–2 soatlik turib qolish vaqtida fizik-kimyoviy tavsiflashdan iborat bo‘lgan.


Li va boshqalar o‘rmon mahsulotlarining quyosh–biomassa pirolizi uchun vertikal joylashtirilgan Pyrex ballon reaktori (argon bilan tozalangan va kislorodsiz muhit yaratilgan) vertikal o‘qda ishlovchi quyosh pechining fokusiga o‘rnatilgan konfiguratsiyani ko‘rsatgan[8]. Quyosh nurlari parabolik ko‘zgu (diametri 2 m) va geliostat yordamida kuzatilib, to‘g‘ridan-to‘g‘ri reaktorga yo‘naltirilgan. Biomassa granulasi grafit tigel ichiga joylashtirilgan va harorat gradiyentini kamaytirish uchun grafit ko‘pikli qatlam bilan o‘ralgan. Namuna suv bilan sovutiladigan qisqich yordamida nurlanish fokusida ushlab turilgan. Issiqlik nurlanishi yo‘qotilishi yana bir grafit ko‘pigi qatlami bilan kamaytirilgan.

Joardder va boshqalar esa xurmo biomassasining gibrid quyosh–biomassa pirolizi uchun (3-rasm) vertikal joylashtirilgan po‘lat reaktorli sxemani taqdim etgan, bunda inert muhit sifatida azot gazi ishlatilgan va reaktor qisman biomassa pechi bilan qizdirilgan[9]. Termal tizim ikki baravar parabolik likopchadan iborat bo‘lib, quyosh nurlarini qabul qilib, ularni po‘lat reaktor devorlariga yo‘naltirgan va natijada reaktor harorati taxminan 162 °C ga ko‘tarilgan.


Tajriba natijasi shuni ko‘rsatdiki, 50 wt foiz suyuq moy 500 °C ish haroratida, 6 L/min gaz oqim tezligida va 120 daqiqa turib qolish vaqtida olindi va 32,4 % CO_2 ning muhitga kirib borishi oldi olinishi mumkin.

Adinberg va boshqalar biomassa pirolizining kontseptual tarzdagi bilvosita quyosh yordamida amalga oshirilishini taqdim etdi[10]. Ushbu qurilma quyosh nurlarini kiritish uchun ochilishi bo‘lgan izolyatsiyalangan gumbaz bilan qoplangan edi. Termal-quyosh tizimi minoraning yuqori qismiga o‘rnatilgan bo‘lib, konsentrlangan parabolik truba va nurni fokuslovchi gelostatdan iborat edi. Issiqlik biomassa tarkibiga quyosh konsentratori tomonidan qizdirilgan (1123 K) eritilgan tuzdan issiqlik o‘tkazuvchanligi orqali uzatilgan. (1-rasm)


ISSN 3030-3907




Parabolik konsentrator




Fresnel reflektorlar



Chiziqli fresnel reflektorlar





Chiziqli kampakt Fresnel reflektorlar




Chiziqli fresnel reflektorlar




Chiziqli ko‘zgu IId

1-rasm. Turli xil optik konsentrator qurilmalari.

ISSN 3030-3907



2-rasm. Quyosh energiyasidagi asosida ishlaydigan biomassa piroliz qurilmasining yo‘nalishi.



3-rasm.Quyosh energiyasidagi asosida ishlaydigan biomassa piroliz qurilmasining yo‘nalishi.

5.2. Vertikal joylashtirilgan uzluksiz qizdiriladigan reaktorlar (yorug‘lik simulyatorlari bilan)

ISSN 3030-3907

Quyosh-biomassa pirolizi turli reaktorlar va quyosh simulyatori yo‘nalishlaridan foydalanilgan holda quyosh nurlanishi simulyatorlari bilan amalga oshirilgan. Dastlabki tadqiqotchilar tabiiy quyosh nurining uzluksiz bo‘lmagan tabiatiga ko‘ra quyoshga o‘xshash sun’iy yorug‘likdan foydalanib, karbonli materiallarning quyosh yordamida parchalanishini qo‘llay boshlagan va bu usul hali ham e’tibor qozonmoqda.

Sobek va boshqalar tomonidan quyosh-biomassa pirolizi uchun vertikal joylashtirilgan qatlamli reaktor chop etilgan bo‘lib, quyosh nurlanishi ksenon yoy chirog‘i (issiqlik oqimi zichligi 2.2 MW/m²) va elliptik reflektor yordamida simulyatsiya qilingan[20]. Issiqlik o‘tkazuvchanligi yuqori bo‘lgani uchun reaktor sifatida izolyatsiyalangan mis reaktor qabul qilingan. Reaktor devorlariga yutiluvchi qoplamadan yasalgan qora jism qo‘llangan. Nurlar reaktor devorlariga to‘g‘ridan-to‘g‘ri yo‘naltirilgan va issiqlik biomassa tarkibiga issiqlik o‘tkazuvchanligi (bilvosita qizdirish) orqali uzatilgan. Ushbu qurilma chiroqning fokus masofasini va qizdirish haroratini boshqarish uchun suriluvchi tayanch bilan loyihalashtirilgan. Qurilma geometriyasi reaktordagi granulalar soni harorat gradiyenti va reaktor yuzasidagi nurlangan maydon masofasiga bog‘liq bo‘lishi tarzida ishlab chiqilgan.

Xuddi shu ksenon yoy chirog‘i chuqur idish shaklidagi parabolik konsentrator bilan birlashtirilgan holda, Rony va boshqalar tomonidan qarag‘ay qipig‘i biomassa pirolizini simulyatsiya qilish uchun modifikatsiya qilingan kino proektori (850–1050 nm to‘lqin uzunliklari) yordamida quyosh simulyatori sifatida ishlatilgan[11]. Reaktor — ikki devorli (diametri 29 mm va 58 mm) qatlamli reaktor bo‘lib (reaktor suyuqlantirilgan qatlam rejimida ham ishlashi mumkin), vertikal joylashtirilgan kvarts reaktor hisoblanadi. Silindrsimon reaktorning ichki devori quyosh simulyatori fokusida biomassani ushlab turish uchun fritsni mahkamlashga mos ravishda torayadi. Ichkarida inert atmosfera yaratish va gazni supurib chiqarish uchun azot gazi ishlatilgan. Devorga yaqin bo‘shliq issiqlik yo‘qolishlarini qoplagan. Simulyator fokus nuqtasining joylashuvini o‘zgartiruvchi moslashuvchan vint mexanizmlaridan foydalanadi. Bu masofa bilan quyosh oqimini (haroratni tartibga solish uchun kiritilayotgan quvvatni) o‘zgartiradi. Quyosh-termal tizimning bunday yo‘nalishi biomassaga to‘g‘ridan-to‘g‘ri nurlanishni ta’minlagan.

Boutin va boshqalar ham xuddi shu simulyatorni biomassaning quyoshda chaqnash pirolizida optik xossalarini to‘g‘ridan-to‘g‘ri o‘lchash uchun qo‘llagan[12]. Ya’ni, ksenon chirog‘idan kelgan parallel nurlar yig‘uvchi linza orqali konsentratsiyalanib, pelletlar joylashgan integrallashgan sfera ichiga yo‘naltirilgan.

ISSN 3030-3907

Sobek va boshqalar esa chiqindi biomassaning simulyatsiyalangan quyosh yordamidagi pirolizini vertikal joylashtirilgan xira mis truba va ksenon yoy chirog‘i (1.6 kW, 2.2 MW/m² issiqlik oqimi zichligi) bilan elliptik reflektor birikmasi orqali namoyish etgan[20]. Mis materialning xira bo‘lishidan maqsad — biomassani bilvosita issiqlik o‘tkazuvchanligi orqali qizdirish imkonini berishidir.

Grønli va boshqalar ham qayin, qarag‘ay va archa biomassalarining simulyatsiyalangan quyosh-biomassa pirolizini ksenon chirog‘i yordamida amalga oshirgan[13]. Piroliz qo‘ng‘iroq shaklidagi Pyrex reaktorida o‘tgan bo‘lib, uning bir tomoni nurlanishni maksimal o‘tkazuvchi eritilgan silika oynadan yasalgan. Ksenon chirog‘i biomassaga shu oyna orqali to‘g‘ridan-to‘g‘ri 5–10 daqiqa davomida yo‘naltirilgan. Oynaga yaqin joyda uchta azot gazi purkash porti mavjud bo‘lib, u tutun to‘planmasligi uchun xizmat qilgan. Gaz yuqori qismdagi chiqish portidan sovuq tuzoqqa yo‘naltirilgan. Chiroqdan hosil bo‘lgan issiqlik oqimi 80–130 kW/m² oralig‘ida bo‘lgan. Ikki xil oqim zichligida bio-ko‘mir, smola va gaz hosildorligi mos ravishda 26.2–28.7 %, 27.9–38 % va 35.9–45.2 wt% ni tashkil etgan.

Beagle ksenon lampasi (5 kW) va konsentrator bilan jihozlangan simulyatsiyalangan quyosh pirolizini yog‘och biomassasiga qo‘llagan[14]. Reaktor — vertikal joylashtirilgan, azot gazi bilan oldindan qizdirilgan kvarts trubasi. Mahsulotlarning ajralishi 4 bosqichda, mos ravishda 120, 70, 22 va 0 °C haroratdagi etilen glikol, issiq suv, xona haroratidagi suv va suv/muz vannalari yordamida amalga oshiriladi.

5.3. Gorizontal joylashtirilgan uzluksiz qizdiriladigan reaktorlar.

Adabiyotlarda gorizontal reaktor yo‘nalishini qo‘llagan tadqiqotlar juda kam uchraydi. [3] apelsin po‘sti uchun gorizontal qatlamli reaktor yo‘nalishi bilan quyosh-piroliz tizimini taqdim etgan (4-rasm). Tizim borosilikat shisha truba reaktor, markaziy hub, parabolik konsentrator (1.3 m kenglik) va bir nechta kondensatsiya trubkalaridan iborat. Markaziy tayanch uzel struktura sifatida xizmat qilgan va butun tizimni fokuslash uchun yagona o‘q bo‘ylab aylanadi. Inert muhitni ta’minlash uchun geliy gazi ishlatilgan. Tizim biomassaga to‘g‘ridan-to‘g‘ri nurlanishni ta’minlash uchun loyihalashtirilgan, shu bilan oziqlanish materiali tizimning eng issiq qismiga aylangan. Yorug‘lik reaktor ostidan kiradi, gazsimon suyuqlik esa yonidagi kondensatsiya trubkasi orqali to‘planadi. Hosil bo‘lgan gaz 200 °C lik suyuq azotga botirilgan sovutish trubkasida to‘plangan. Olingan maksimal konsentratsiyalangan quyosh darajasi 27,088 W/m² bo‘lgan, o‘rtacha oqim 12,553 W/m² ni tashkil qilgan. Apelsin po‘stidan olinadigan hosildorlik gaz, ko‘mir va moy uchun mos ravishda 1.4, 21 va 77.6 (wt. %) ni tashkil qilgan.

ISSN 3030-3907

Bashir, M va boshqa mualliflar tomonidan gorizontal qatlamli tushirilgan suyuqlantirilgan reaktor kontseptual variantini taklif qilgan. Biomassa bir uchi orqali oldindan qizdirilgan azot bilan boshqa uchi tomon harakatlantirilgan va shu bilan biomassani suyuqlantirgan. Piroliz reaktsiyasi reaktor devoriga to‘g‘ridan-to‘g‘ri fokuslangan parabolik konsentrator yordamida amalga oshirilgan. Gaz va qattiq faza konus shaklidagi oqim deflektori orqali ajratilgan, bu gazsiz qattiq moddaning joylashgan trubadan o‘tishiga imkon beradi. Ushbu ajratish texnikasi gazning turish vaqtini yaxshiroq nazorat qilish va ko‘mir va gaz hosil bo‘lgandan keyin sarf qilinadigan vaqtni cheklash imkonini beradi. Bu bio-moy hosildorligini oshirish uchun gazning termal va katalitik sinishini cheklashga xizmat qiladi.

Gorizontal holatda joylashtirilgan qatlamli reaktor (silika shisha trubasi) tomonidan tovuq chiqindilari biomassasining quyosh–biomassa pirolizi jarayonida qo‘llanilgan. Xuddi shu reaktor (5-rasm) [4] tomonidan guruch po‘stining quyosh pirolizida ishlatilgan. Biomassa truba markaziga kvarts jun yordamida joylashtirilgan. Qatlamli reaktorning bir uchi inert muhitni ta’minlash uchun azot tashuvchi gazga ulangan, boshqa uchi esa yon mahsulotlarni kuzatish uchun muz xonasiga ulangan. Quyosh nurlanishi parabolik kosa konsentratori (diametri 1.8 m) yordamida ta’minlangan bo‘lib, sirt 88% aks ettiruvchi alyuminiy polietilen tereftalat bilan qoplangan.

Grassmann sekin aylanadigan motor bilan quvvatlangan gorizontal aylanuvchi zanglamaydigan po‘lat reaktor (silindrsimon retort-kiln)ni taqdim etgan[5].

1-jadval

№	Biomassa	Reaktor/ Reaktor konfiguratsiyasi	Konsentrator	Quvvat/ Maksimal oqim zichligi	Natijalar	Manba
1	Kashtan	Shaffof pirez shisha ballon/ Vertikal pech	Pastga qaratilgan parabolic ko‘zgu	1.5kW/15,000kW/ m2	Gaz hosildorligi 62% bo‘lib, uning pastki issiqlik qiymati 10 376 ± 218 kJ/kg yog‘ochni tashkil etdi. Bu natija 1200 °C harorat, 50 °C/s qizish tezligi, 0.85 bar bosim va argon oqimi 12 NL/min sharoitlarida olingan. Biomassa energiyasini oshirish samaradorligi	[15], [17]

ISSN 3030-3907

					38–53% oralig‘ida bo‘lgan.	
2	Bug‘doy somoni	Aylanma zanglamas po‘latdan yasalgan silindrsimon pech/ Gorizontal retorta	chiziqli ko‘zgular	-/-	Quyosh yordamida olingan ko‘mirning energiya zichligi **16.9 MJ/kg** ni tashkil qiladi.	[5]
3	Pomidor chiqindisi va agave barglar	Shar shaklidagi borosilikat/ Vertikal	parabolik	25 kVt , harorat oralig‘i **450–1550 °C/-**	Kam haroratda (**900 °C dan past**) ishlab chiqarilgan biochar katta yuzaga va sig‘imga ega, yuqori haroratdagiga nisbatan.	[7]
4	Apelsin po‘sti	Borosilikat shisha truba/ Gorizontal	Kumush oynali qoplama bilan qoplangan parabolik kanal, quyosh nuri burchagiga muvofiq 5joylashtirilgan	–/27 088 W/m².	Gaz, ko‘mir va yog‘ uchun hosil bo‘lish nisbatlari mos ravishda 1.4 %**,** 21 % va 77.6 % (og‘irlik bo‘yicha).	[3]
5	O‘rik urug‘i, uzum po‘stlog‘i va uzum marcini kukuni	shaffof Pyrex ballon/ Vertikal	pastga qaratilgan parabola oynasi	**1.5 kVt /15 000 kVt/m²**	Eng yuqori gaz hosildorligi (**63.5 %**) eman talaşi (pinesawdust) dan olingan, yakuniy harorat **2000 °C** da.	[8]
6	**Xurmo daraxti**	**Po‘lat reaktor (qisman**	**ikki parabolli idish**	-/-	**50 Vt** quvvatda**, 500 °C** ish haroratida, **6 L/min** gaz oqimida va **120**	[9]

ISSN 3030-3907

		qizdirish)/ Vertikal			**daqiqa** turish vaqtida suyuq yog‘ uchun olingan foiz. Shuningdek, **32.4 % CO_2** kamayishi (yoki chiqishi kamaytirildi).	
7	-	Zanglamas po‘latdan tayyorlangan tarelka (idish)/ **Yassi**	**parabolik kanal oynasi**	-/-	-	[18]
8	**Quruq biomassa**	Shar yoki silindrsimon rezervuar, ichida eritilgan tuz, atrofida 22 ta silindrsimon trubalar bilan o‘ralgan/ Vertikal	**murakkab parabolik konsentrator**	3000kW /-	-	[10]
9	Guruch somoni	**Silindrsimon silika shisha truba/** Gorizontal	**parabolik tarelka konsentratori**	-/-	-	[4]

2-jadval

№	**Biomassa**	**Reaktor/ Reaktor konfiguratsiyasi**	**Konsentrator**	**Quvvat va maksimal oqim zichligi/ Yorug‘lik manbai**	**Natijalar**	**Manba**
1	**Kraft qog‘oz.**	**Pastki qismi toraytirilgan**	**Parabolik oynalar va 24 ta yassi**	150W, 200W/cm2/**5**	**Sirop hosildorligi 63 %.**	[19]


ISSN 3030-3907

		silindrsimon Amersil kvarts trubasi/ Vertikal	**shisha oynalar**	**kVt liq xenon ark lampalari**		
2	**Yog‘ochga o‘xshash aralash biomassa komponentlari**	**birlashtirilgan shar/** Vertikal	Yig‘uvchi linzalar	**-/ Xenon lampasi.**	**Granulalarning 44–86 % qismi aks ettirgani kuzatildi**.	[12]
3	**Norvegiya qayin, eman va qarag‘ay**	**Bir tomoni eritilgan silika oynadan yasalgan qo‘ng‘ir shaklidagi Pyrex./ Gorizontal**	**Shisha truba orqali to‘g‘ridan-to‘g‘ri konsentratsiya**	80-130kW/ m2/ Xenon ark lampasi	Biochar va gaz hosildorligi ikki oqim zichligi uchun mos ravishda **26.2–28.7 %, 27.9–38 % va 35.9–45.2 % (og‘irlik bo‘yicha)** ni tashkil etdi.	[13]
4	**Yog‘och**	**Kvarts trubasi/ Vertikal**	To‘g‘ridan-to‘g‘ri konsentratsiya	-/5 kVt liq xenon ark lampasi	**Og‘ir qatran va yengil bio-yog‘**.	[14]
5	Chiqindi biomassa	Mis, bilvosita (o‘tkazuvchanlik orqali)/ **Vertikal**	ellips shaklidagi reflektor	2.2 MW/m^{-2}/1.6 kW ksenon yoy lampasi	-	[20]
6	Tovuq axlati,	mis, bilvosita (o‘tkazuvcha	ellips shaklidagi reflektor	2.2 MW/m^{-2}/0.6 kW	Maksimal CO va H_2 chiqishi mos ravishda 63 wt% va 15 wt%	[20]


ISSN 3030-3907

		nlik orqali)/ **Vertikal**		ksenon yoy lampasi.	bo‘lib, 800 °C da 50% CaO joyida yuklamada olingan.	
7	Qayin arralangan qipiqlari	silindrsimon kvarts reaktori/ **Vertikal**	chuqur parabola konsentratori	-/– 5 kW ksenon yoy lampalari	-	[11]

1 va 2-jadval mos ravishda quyosh yordamidagi va simulyatsiyalangan quyosh pirolizi bo‘yicha umumiy ma’lumotlarni taqdim etadi.



4-rasm. Gorizontal yo‘nalishda joylashtirilgan qatlamli (fiks-bedd) quyosh-biokmassa piroliz reaktori



5-rasm. Gorizontal yo‘nalishda joylashgan qatlamli (fiks-bedd) quyosh-biomassa piroliz reaktori.

ISSN 3030-3907

Konsentrator — ikki qatorga joylashtirilgan to‘rtta chiziqli oynalardan iborat bo‘lib, taxminan 2° burchak bilan quyoshni kuzatadi. Konsentratsiyalangan quyosh nurlari oynalarning fokus o‘qi bo‘ylab joylashtirilgan deflektor yordamida reaktorga yo‘naltiriladi. Ushbu qurilmadan ishlab chiqarilgan quyosh karbonining energiya zichligi 16.9 MJ/kg ni tashkil qilgan.

6. Quyosh-biomassa pirolizida ishlatiladigan model tenglamalar

Model tenglamalari piroliz reaktorini tushunish va optimallashtirish uchun talab qilinadi. Reaktorga issiqlik uzatilishi va biomassaning turli tarkibiy qismlari tomonidan turli harorat va isitish tezligida keltiriladigan kinetik reaktsiyalarning murakkabligi sababli, reaktorning isitilishi va reaktsiya kinetikasini tushunish uchun ichki jarayonlarni soddalashtirish qo‘llanilgan.

Issiqlik yo‘qotilishi atrof-muhitga yo‘qotilgan issiqlik, reaktor aks ettirgan issiqlik, konsentrator tomonidan so‘rilgan issiqlik va konsentratorning fokuslashdagi samaradorliksizligini o‘z ichiga oladi [21]. Macquarrie va boshqalar tomonidan taqdim etilgan to‘g‘ridan-to‘g‘ri nurlantiriladigan tizim va boshqa shunga o‘xshash tizimlarni hisobga olgan holda, quyosh-biomassa tizimi uchun issiqlik balansini quyidagicha ifodalash mumkin[21]:

$$dQ_{absorbed}^{solar} = dqo(a_{reaktor} + \tau_{biomass} a_{reaktor}) \quad (1)$$

Reaktor yuzasiga tushadigan nurlanish (dq_o) quyidagicha ifodalanadi.

$$dq_0 = \varphi \eta_{optic} \eta_{fokus} \mathrm{dAdt} \quad (2)$$

Aylana bo‘ylab nurlanishning taqsimlanishi tajriba yo‘li bilan aniqlangan quyosh nuri intensivligiga bog‘liq bo‘lib, u (3)-tenglamada quyidagicha berilgan.

$$\varphi = I(2\ x\ 10^7 c^4 + 2\ x\ 10^{-3} c^3 - 44828c^2 - 3\ x\ 10^{-13} c + 33) \quad (3)$$

Muhitga yo‘qotiladigan issiqlik quyidagicha ifodalanadi.

$$dQ_{environment}^{loss} = h\mathrm{dAdt} \quad (4)$$

(2000) quyosh energiyasida ishlaydigan biomassa pirolizi tizimini modellashtirish jarayonida quritish va piroliz jarayonlarining o‘zaro bog‘liqligiga urg‘u bergan. U barcha fazalar bir xil haroratda bo‘ladi va bosim esa bug‘ning qisman bosimiga teng deb hisoblagan. Ular energiya saqlanishi, gaz aralashmasining tarkibi va gaz aralashmasining o‘ziga xos issiqlik sig‘imi o‘rtasidagi bog‘liqlikni ifodalovchi uchta muhim (5)–(7)-tenglamalarni quyidagicha ishlab chiqqan.

$$\left((\rho_s)C_{p,s} + \epsilon_g (\rho_g)^g C_{p,s}\right)\frac{\partial(T)}{\partial t} + \left((\rho_g)^g (v_g) C_{p,g}\right)\frac{\partial(T)}{\partial x} = \frac{\partial}{\partial x}\left(k_{eff}\frac{\partial(T)}{\partial x}\right) - \\ - \sum_i (w_i)\Delta h_i \quad (5)$$

$$(\rho_g)^g = \sum_i (\rho_i)^g, (P_i)^g = \frac{(\rho_g)^g R_0 T}{M_g}, M_g = \left(\sum_i \frac{(\rho_i)^g}{(\rho_g)^g M}\right)^{-1} \quad (6)$$

$$C_{p,g} = \sum_i C_{p,i}\frac{(\rho_i)^g}{(\rho_g)^g}, C_{p,s} = \eta C_{p,SD + (1-\eta)C_{p,c}} \quad (7)$$

ISSN 3030-3907

Biomassa pirolizida termogravimetrik tahlil o‘tkaziladi va jarayonning xatti-harakati turli haroratlar va qizdirish tezliklarida baholanadi. Hozirgi tadqiqotlarda harorat oshishi bilan massa o‘zgarishiga qarab (konversiya modeli) aniqlanadigan issiqlik parchalanish jarayoniga e’tibor qaratilgan. Kinetik tamoyil asosan konversiya tezligini aniqlash uchun qo‘llaniladigan kondensatsiyalangan faza yoki qattiq fazaga asoslanadi. Kinetik modeldagi eng muhim narsa — jarayonning fizik xususiyatlarini saqlashdir. Qattiq fazada xomashyo harorat vaqt o‘tishi bilan oshib borar ekan, doimiy qizdiriladi. Konversiya tezligi Arrhenius tenglamasi orqali quyidagicha ifodalanadi.

$$\frac{d\alpha}{dT} = \beta^{-1} A exp\left(\frac{-E}{RT}\right) f,(\alpha) \qquad (8)$$

$$\alpha = \frac{m_0 - m_t}{m_0 - m_f} \qquad (9)$$

Biomassa piroliz jarayonida termogravimetrik tahlil amalga oshiriladi va jarayonning xatti-harakati turli haroratlar hamda qizdirish tezliklarida baholanadi. Qattiq fazada xomashyo vaqt o‘tishi bilan harorat ortib borishi natijasida uzluksiz qizdiriladi. Konversiya tezligi Arrhenius tenglamasi orqali quyidagicha ifodalanadi.

$$\ln\left(\beta_i \left(\frac{d\alpha}{dT}\right)_\alpha\right) = \ln\left(A_\alpha f,(\alpha)\right) \frac{-E_\alpha}{RT_{d,i}} \qquad (10)$$

$$\frac{d(\alpha)}{dT} = \frac{A}{\beta} \exp\left(\frac{-E}{RT}\right) f,(\alpha) \qquad (11)$$

Reaksiyalar bosqichidan foydalanadigan modelga asoslangan kinetika taqdim etilgan bo‘lib, unda massa yo‘qotilishi quyida ifodalangan konversiya tezligining integrallashgan qismi yig‘indisi sifatida baholanadi.

$$\left(\frac{d(\alpha)}{dt}\right)_j = \left(\left(\frac{(a_j \to b_j}{dt}\right)\right)_j = A_j \exp\left(\frac{-E}{RT}\right) f_j,(\alpha_j b_j) \qquad (12)$$

Kinetik modellarda esa eng yaxshi modelni tanlash masalasi hanuzgacha munozarali hisoblanadi.

7. Xulosa

Quyosh energiyasida ishlaydigan biomassa piroliz jarayonidan samarali foydalanish uchun xomashyo turi, konsentratsiya qiluvchi optikalarning tanlovi, jarayon termodinamikasi va mahsulot chiqimlaridan tashqari, quyosh-termik tizimlar va reaktorlarning to‘g‘ri o‘rnatilish yo‘nalishi ham to‘g‘ri loyihalanishi lozim.

Piroliz tizimlari uchun reaktor dizaynida ko‘plab innovatsiyalar mavjud bo‘lsa-da, quyosh biomassa pirolizida asosan vertikal joylashtirilgan qatlamli (fixed-bed) reaktorlar ustunlik qiladi va aksariyat tadqiqotlar laboratoriya miqyosida amalga oshirilgan.

Ko‘rib chiqilgan ilmiy adabiyotlar shuni ko‘rsatdiki, hozirgi reaktor dizaynlari quyosh pirolizini tijorat bosqichiga olib chiqish uchun yetarli emas.

ISSN 3030-3907

Ushbu jarayonda qayta ishlanishi lozim bo‘lgan biomassa miqdorini oshira oladigan takomillashtirilgan dizayn zarur. Reaktor va konsentrator konstruksiyasiga nanomasshtabdagi zarrachalarni integratsiya qilish esa quyosh termal tizimlar samaradorligini oshirishda istiqbolli yo‘nalish bo‘lishi mumkin.

ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Crossette, B., 2011. Estado de la Población Mundial 2011. Fondo de Poblaciónde las Naciones Unidas, New York, p. 2011.
2. Sharma, A., Pareek, V., Zhang., 2015. Biomass pyrolysis—a review of modeling, process parameters and catalytic studies. Renew. Sustain. Energy Rev. 50, 1081– 1096.
3. Morales, S., Miranda, R., Bustos, D., Cazares, T., Tran, H., 2014. Solar biomass pyrolysis for the production of biofuels and chemical commodities. J. Anal. Appl. Pyrol. 109, 65–78.
4. Weldekidan, Haftom, Strezov, Vladimir, Town, Graham, Kan, Tao, 2018. Production and analysis of fuels and chemicals obtained from rice husk pyrolysis with concentrated solar radiation. Fuel 233, 396–403. https://doi.org/10.1016/ j.fuel.2018.06.061.
6. Grassmann, H., Boaro, M., Citossi, M., Cobal, M., Ersettis, E., Kapllaj, E., Pizzariello, A., 2015. Solar biomass pyrolysis with the linear mirror II. Smart Grid Renew. Energy 6, 179–186.
7. Citossi, M., Cobal, M., 2018. A Preliminary Study to Produce Solar Carbon. Universita Degli Studi. Di Udin. Crossette, B., 2011. Estado de la Población Mundial 2011.
8. Ayala-Cortés A., Arancibia-Bulnes C.A., Villafán-Vidales H.I., Lobato-Peralta D.R., Martinez-Casillas D., Cuentas-Gallegos A.K., 2018. Solar pyrolysis of agave and tomato pruning wastes: insights of the effect of pyrolysis operation parameters on the physicochemical properties of biochar. In: A Paper Presented at the SolarPACES Conference in Morocco, 2018.
9. Li, R., Zeng, K., Soria, J.E., Mazza, G.A., Gauthier, D., Rodriguez, R., Flamant, G., 2016. Product distribution from solar pyrolysis of agricultural and forestry biomass residues. Renew. Energy 89, 27–35.
10. Joardder, M.U.H., Halder, P.K., Rahim, A., Paul, N., 2014. Solar assisted fast pyrolysis: a novel approach of renewable energy production. J. Eng. https://doi.org/ 10.1155/2014/252848.
11. Adinberg, R., Epstein, M., Karni, J., 2004. Solar gasification of biomass: a molten salt pyrolysis study. J. Solar Energy Eng. 126, 850–857.
12. Rony, A.H., Daniel, M., Zhao, S., Dengfeng, Q., Yuan, Z., John, H.B., Maohong, F., 2018. A novel solar powered biomass pyrolysis reactor for producing fuels and chemicals. J. Anal. Appl. Pyrol.

ISSN 3030-3907

13. Boutin, O., Lede, J., Olalde, G., Ferriere, A., 1999. Solar flash pyrolysis of biomass direct measurement of the optical properties of biomass components. J: Phys. IV France 9.
14. Grønli, M.G., 2000. Mathematical model for wood pyrolysis comparison of experimental measurements with model predictions. Energy Fuels 14, 791–800.
15. Beagle, E., 2012. Fast Pyrolysis of Biomass using Concentrated Solar Radiation. In: A Presentation to School of Energy Resources, University of Wyoming.
16. Zeng, K., Daniel Gauthier, A., Rui., L, Flamant, G., 2015a. Solar pyrolysis of beech wood: effects of pyrolysis parameters on the product distribution and gas product composition. Energy 93 (2015a), 1648–1657. Zeng, K., Gauthier, D., Flamant, G., 2014.
где $C_{СК}$ – удельная стоимость СК, сум;

$C_{ВО}$ – удельная стоимость вспомогательного оборудования, трубопроводов, регулирующей арматуры; системы КИП и А и т.п., сум;

$C_{БА}$ – удельная стоимость БА, сум.

Эксплуатационные затраты на гелиосистему $Э_{г.с.}$ состоят из ежегодных расходов на ремонт и обслуживание оборудования [1-4]:

$$Э_{\text{г.с}} = Э_{т.р} \quad (9)$$

где $Э_{т.р.}$ – годовые затраты на ремонт и обслуживание оборудования.

Приведенные затраты определяются по формуле:

$$П_{\text{г.с}} = Е_{\text{н}} \cdot К_{\text{г.с}} + Э_{\text{г.с}} \quad (10)$$

Годовая экономия органического топлива $B_Э^m$ [5] и материальных затрат $З_{эн}^m$ на него при эксплуатации гелиосистемы производится по формулам:

$$B_Э^m = \frac{f \cdot Q^{л}}{Q_П^{-р} \cdot \eta_П^{-р}} \quad (11)$$

$$З_{эн}^m = \left(З_{зам.эн}^m + З_{уд.э}^{mp}\right) \cdot B_Э^m \quad (12)$$

где f – коэффициент замещения.

ISSN 3030-3907

Для решения вопроса об экономичности рассматриваемых вариантов необходимо сравнить капитальные и эксплуатационные расходы при помощи срока окупаемости, определяемого формулой:

$$T_{OK} = \frac{K_{г.с} - K_{т.с}}{И_{т.с} - И_{г.с}} \quad (13)$$

где $K_{г.с.}$ – капиталовложения при варианте с использованием гелиосистемы, сум;

$K_{т.с.}$ – капиталовложения при варианте с использованием традиционной системы теплоснабжения, сум;

$И_{т.с.}$ – суммарные годовые расходы при варианте с использованием традиционной системы теплоснабжения, сум;

$И_{г.с.}$ –суммарные годовые расходы при варианте с использованием гелиосистемы, сум [1-5].

Расчёт солнечной системы теплоснабжения выполнен на основе ориентировочных климатических и теплотехнических данных, характерных для районов со средней и высокой солнечной активностью. Рассматриваемая система предназначена для теплоснабжения здания в круглогодичном режиме эксплуатации.

Среднегодовое значение суммарной солнечной радиации, поступающей на горизонтальную поверхность, принято равным

$$S + D \approx 1500 \text{ МДж/м}^2.$$

С учётом оптимального угла наклона солнечных коллекторов и их ориентации в южном направлении расчётное значение солнечной радиации, падающей на наклонную поверхность, составило

$$Q_{пад} \approx 1700–1800 \text{ МДж/м}^2 \text{ в год.}$$

Годовая тепловая нагрузка системы отопления и горячего водоснабжения принята равной

$$Q_{год} \approx 80–90 \text{ ГДж.}$$

При среднесезонном коэффициенте полезного действия солнечных коллекторов $\eta_{СК}$= 0,5 расчётная площадь гелиополя составила порядка

$$F_{г.п} \approx 90–105 \text{ м}^2.$$

При использовании солнечных коллекторов с площадью одного модуля $F_{СК} \approx 2,0$ м² ориентировочное количество коллекторов составило N≈45–52 шт. Объём бака-аккумулятора теплоты, определённый по укрупнённой зависимости, составил $V_{БА}$≈6,0–7,5 м³.

Капитальные затраты на солнечную систему теплоснабжения были определены ориентировочно с учётом стоимости солнечных коллекторов, аккумулирующего бака и вспомогательного оборудования. Эксплуатационные затраты в течение года приняты минимальными и

ISSN 3030-3907

включают расходы на техническое обслуживание и текущий ремонт оборудования.

Годовая экономия органического топлива при коэффициенте замещения f ≈ 0,5–0,6 составила порядка 2,0–3,0 т условного топлива в год. Это свидетельствует о существенном снижении потребления традиционных энергоресурсов и уменьшении эксплуатационных затрат.

Выводы. В работе рассмотрена укрупнённая методика расчёта солнечной системы теплоснабжения круглогодичного действия на основе ориентировочных климатических данных. Определены основные параметры гелиосистемы, включая площадь гелиополя и объём бака-аккумулятора теплоты. Показано, что при среднесезонном КПД солнечных коллекторов около 0,5 применение солнечной системы теплоснабжения обеспечивает экономию органического топлива на уровне 2,0–3,0 т условного топлива в год. Ориентировочный срок окупаемости гелиосистемы составляет 7–10 лет.

Полученные результаты подтверждают целесообразность использования солнечных систем теплоснабжения в регионах с достаточным уровнем солнечной радиации и могут быть использованы на стадии предпроектных расчётов.

ЛИТЕРАТУРЫ

1. Кириллов В.В. Система солнечного горячего водоснабжения сезонного режима: Методическое руководство к курсовому проекту. Бишкек: КРСУ, 2011. 28 с.
2. Староверов И.Г. Справочник проектировщика. М., 1990.
3. СНиП 11-34-76 Горячее водоснабжение.
4. Бекман У., Клейн С., Даффи Дж. Расчет систем солнечного теплоснабжения// Пер.с англ.М.: Энергоиздат, 1982.
5. Системы солнечного тепло- и хладоснабжения// Под ред. Э.В.Сарнацкого, С.А. Чистовича. М.: Стройиздат, 1990.
6. Харченко Н.В. Индивидуальные солнечные установки. М.: Энергоатомиздат, 1991.

ISSN 3030-3907

616.728.2-002.77:575.224:577.152

TIZZA BO‘G‘IMLARI ARTROZIDA DESTRUKTIV O‘ZGARISHLAR RIVOJLANISHIDA MATRIKSLI METALLOPROTEINAZLAR GENETIK POLIMORFIZMINING AHAMIYATI

Isroilov A.A.

Toshkent davlat tibbiyot universiteti

Annotatsiya. Ushbu maqolada tizza bo‘g‘imlari artrozida destruktiv o‘zgarishlar rivojlanishining molekulyar-genetik mexanizmlari tahlil qilingan. Matriksli metalloproteinazlarning bo‘g‘im tog‘ayi ekstrasellyulyar matriksini parchalashdagi o‘rni, ularning biologik xususiyatlari va yallig‘lanish mediatorlari bilan o‘zaro bog‘liqligi yoritilgan. Ayniqsa, matriksli metalloproteinazlar genlaridagi polimorfizmlar tizza bo‘g‘imlari artrozining erta rivojlanishi, tez rivojlanib borishi va klinik og‘ir kechishi bilan bog‘liq ekani haqidagi ilmiy ma’lumotlar umumlashtirilgan. Genetik polimorfizmlarni o‘rganishning kasallikni kechshini bashorat qilish va individuallashtirilgan davolash chora tadbirlarini ishlab chiqishdagi ahamiyati ko‘rsatib berilgan.

Kalit so‘zlar: tizza bo‘g‘imlari artrozi, gonartroz, matriksli metalloproteinazlar, genetik polimorfizm, tog‘ay degradatsiyasi, osteoartroz.

Аннотация: В данной статье проанализированы молекулярно-генетические механизмы развития деструктивных изменений при остеоартрозе коленного сустава. Освещена роль матриксных металлопротеиназ в деградации внеклеточного матрикса суставного хряща, их биологические свойства, а также взаимосвязь с медиаторами воспаления. Особое внимание уделено обобщению научных данных, свидетельствующих о связи полиморфизмов генов матриксных металлопротеиназ с ранним началом, быстрым прогрессированием и тяжёлым клиническим течением остеоартроза коленного сустава. Показана значимость изучения генетических полиморфизмов для прогнозирования течения заболевания и разработки индивидуализированных лечебных мероприятий.

Ключевые слова: остеоартроз коленного сустава, гонартроз, матриксные металлопротеиназы, генетический полиморфизм, деградация хряща, остеоартроз.

Abstract. This article analyzes the molecular and genetic mechanisms underlying the development of destructive changes in knee osteoarthritis. The role of matrix metalloproteinases in the degradation of the extracellular matrix of articular cartilage, their biological characteristics, and their interactions with inflammatory mediators are discussed. Particular attention is paid to scientific evidence indicating an association between polymorphisms in matrix metalloproteinase genes and the early onset, rapid progression, and severe clinical course of knee osteoarthritis. The

significance of studying genetic polymorphisms for predicting disease progression and for developing personalized therapeutic strategies is highlighted.

Keywords: knee osteoarthritis, gonarthrosis, matrix metalloproteinases, genetic polymorphism, cartilage degradation, osteoarthritis.

Kirish

Osteoartroz (OA) — bo‘g‘imlarning surunkali, avj olib kechuvchi kasalligi bo‘lib, u bo‘g‘im tog‘ayining degeneratsiyasi, keyinchalik subxondral suyakdagi o‘zgarishlar, osteofitlar shakllanishi hamda reaktiv sinovit rivojlanishi bilan tavsiflanadi [1]. Hozirgi vaqtda osteoartrozni yagona nozologik birlik sifatida emas, balki o‘xshash patomorfologik jarayonlar va rivojlanishning umumiy patogenetik xususiyatlariga ega bo‘lgan kasalliklar guruhi sifatida qarash tushunchasi keng qo‘llanilmoqda.

Osteoartroz bo‘g‘im patologiyalarining eng keng tarqalgan shakllaridan biri hisoblanib, aholining taxminan 10–12 foizida uchraydi [2]. Kasallik yosh bilan bevosita bog‘liq bo‘lib, ko‘p hollarda 30–35 yoshdan keyin rivojlanadi, 70 yoshdan oshgan shaxslarda esa 90 foiz holatlarda aniqlanadi. Osteoartroz erkaklar va ayollarda deyarli bir xil chastotada uchraydi, biroq qo‘l panjalari bo‘g‘imlari artrozi istisno bo‘lib, u ayollarda 10 marta ko‘proq uchraydi va naslda ayol tarafdan uzatilishi qayd etilgan. Osteoartroz hozirgi zamon revmatologiyasida eng dolzarb tibbiy-ijtimoiy muammolardan biri hisoblanadi [3]. Bu kasallik suyak-bo‘g‘im tizimining surunkali, progressiv kechuvchi degenerativ-distrofik shikastlanishi bilan tavsiflanib, bemorlarning mehnat qobiliyati pasayishi, hayot sifati yomonlashishi va nogironlik darajasining oshishiga olib keladi. Osteoartrozning eng ko‘p zararlaydigan bo‘g‘imlaridan biri bu tizza bo‘g‘imi bo‘lib, klinik amaliyotda ushbu holat gonartroz atamasi bilan ifodalanadi. Aholining qarishi, ortiqcha vazn, jismoniy faollikning kamayishi hamda modifikatsiyalanuvchi xavf omillarining ko‘payishi tizza bo‘g‘imlari artrozining tarqalish chastotasini yildan-yilga oshirib bormoqda [4].

So‘nggi yillarda osteoartrozni faqat jismoniy yuklanish va yoshga bog‘liq o‘zgarishlar natijasi sifatida emas, balki yallig‘lanish reaksiyalari, molekulyar signal yo‘llari va genetik omillar ishtirokida kechadigan murakkab patologik jarayon sifatida talqin qilish tushunchasi shakllandi. Ushbu qarashlar asosida bo‘g‘im tog‘ayi degradatsiyasida ekstrasellyulyar matriks metabolizmining buzilishi va uni parchalovchi ferment tizimlarining faollashuvi asosiy o‘rinlardan birini egallaydi [5]. Ana shu fermentlar orasida matriksli metalloproteinazlar alohida ahamiyatga ega bo‘lib, ularning ekspressiyasi va faolligi genetik polimorfizmlar bilan bevosita bog‘liq ekani ko‘plab tadqiqotlarda isbotlangan.

Tizza bo‘g‘imlari artrozining patogenetik asoslari quydagilardan iboratdir. Tizza bo‘g‘imlari artrozining morfologik substratini bo‘g‘im tog‘ayining rivojlanib

ISSN 3030-3907

boruvchi degradatsiyasi tashkil etadi. Bu jarayon xondrotsitlar metabolizmining izdan chiqishi, sintetik va katabolik faoliyat o‘rtasidagi muvozanatning buzilishi bilan boshlanadi [6]. Normal holatda xondrotsitlar kollagen II turi va proteoglikanlar sintezini ta’minlab, tog‘ay to‘qimasining mexanik barqarorligini saqlab turadi. Artroz sharoitida esa yallig‘lanish mediatorlari, oksidativ stress va proteolitik fermentlar ta’sirida anabolik jarayonlar susayadi va matriks degradatsiyasi ustunlik qiladi.

Patologik jarayon davomida subxondral suyakda skleroz va mikrosinishlar yuzaga keladi, sinovial pardada esa past darajali surunkali yallig‘lanish shakllanadi. Bu o‘zgarishlar bir-biri bilan uzviy bog‘liq bo‘lib, bo‘g‘im ichida «yallig‘lanish – degradatsiya – remodellyatsiya» zanjirini hosil qiladi [7]. Ushbu zanjirda matriksli metalloproteinazlar ekstrasellyulyar matriksning asosiy tarkibiy qismlarini parchalovchi asosiy ijrochi mexanizm hisoblanadi.

Matriksli metalloproteinazlarning biologik xususiyatlari quyidagilardan iborat, ya’ni ular sink ioniga bog‘liq endopeptidazalar bo‘lib, ekstrasellyulyar matriks komponentlarini degradatsiya qilish qobiliyatiga ega [8]. Ushbu fermentlar normal fiziologik holatlarda to‘qimalarning o‘sishi, yangilanishi va remodellanishida ishtirok etadi. Biroq patologik sharoitlarda ularning ortiqcha ishlab chiqarilishi to‘qimalar parchalanishiga olib keladi. Hozirgi kunda inson organizmida yigirma beshdan ortiq matriksli metalloproteinaz turlari aniqlangan bo‘lib, ular funksional xususiyatlariga qarab bir nechta guruhlarga ajratiladi [9].

Tizza bo‘g‘imlari artrozida ayniqsa kollagenazalar, jelatinazalar va stromelizinlar katta ahamiyat kasb etadi. MMP-1 va MMP-13 kollagen II turini parchalash qobiliyatiga ega bo‘lib, tog‘ay matriksining asosiy ustunini yemirib yuborishi mumkin. MMP-3 nafaqat matriks komponentlarini degradatsiya qiladi, balki boshqa metalloproteinazlarni faollashtirish orqali kaskad ta’sir ko‘rsatadi [10]. MMP-9 esa jelatin va denaturatsiyalangan kollagenni parchalash orqali tog‘ay va subxondral suyakdagi qayta qurilish jarayonlarini tezlashtiradi.

Matriksli metalloproteinazlarning tog‘ay degradatsiyasidagi o‘rni esa quyidagilar hisoblanadi. Artroz sharoitida matriksli metalloproteinazlar faolligining oshishi yallig‘lanish sitokinlari, xususan interleykin-1β va o‘sma nekrozi faktori α ta’sirida yuzaga keladi. Bu mediatorlar xondrotsitlarda MMP genlarining transkripsiyasini rag‘batlantiradi va to‘qimada proteolitik muhitni shakllantiradi. Natijada kollagen tolalari parchalanadi, proteoglikanlar yo‘qoladi va tog‘ay to‘qimasi o‘zining elastik va amortizatsiya funksiyalarini yo‘qotadi [11].

Bundan tashqari, matriksli metalloproteinazlar xondrotsit apoptozini kuchaytirishi, sinovial pardada yallig‘lanishni qo‘llab-quvvatlashi hamda subxondral suyak remodellyatsiyasiga ta’sir ko‘rsatishi orqali artrozning klinik va morfologik progressiyasiga hissa qo‘shadi.

ISSN 3030-3907

Matriksli metalloproteinazlar genlarining genetik polimorfizmi inson genomida keng tarqalgan hodisa bo‘lib, ma’lum genlarning ekspressiya darajasi va funksional faolligiga ta’sir ko‘rsatishi mumkin. Osteoartroz patogenezini o‘rganishda matriksli metalloproteinazlar genlaridagi polimorfizmlar alohida e’tibor markazida turadi [12]. Ushbu polimorfizmlar ko‘pincha gen promotor sohasida joylashgan bo‘lib, transkripsiya jarayonining faolligiga ta’sir etadi.

Ilmiy adabiyotlarda MMP-1, MMP-3, MMP-9 va MMP-13 genlarining ayrim polimorfik variantlari tizza bo‘g‘imlari artrozining rivojlanishi va og‘ir kechishi bilan bog‘liq ekanligi qayd etilgan. Masalan, MMP-1 genining ayrim allel variantlari kollagenaza ekspressiyasini oshirib, tog‘ay degradatsiyasini tezlashtirishi mumkin [13]. Shuningdek, MMP-3 genining muayyan genotiplari ferment faolligini kuchaytirib, boshqa metalloproteinazlar kaskad faollashuviga sabab bo‘ladi.

Genetik polimorfizm va klinik-strukturaviy o‘zgarishlar o‘rtasidagi bog‘liqlik mavjud bo‘lib, ular quyidagilardan iborat. Klinik tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, matriksli metalloproteinazlar genlarining ayrim polimorfik variantlariga ega bo‘lgan shaxslarda tizza bo‘g‘imlari artrozi ertaroq boshlanadi va tezroq avj olib borishi qayd etilgan [14]. Bunday bemorlarda rentgenologik jihatdan tog‘ay qalinligining tez kamayishi, osteofitlar shakllanishi va bo‘g‘im yoriqlarining torayishi kuzatiladi. Klinik jihatdan esa og‘riq sindromining kuchli ifodalanishi, harakat cheklanishi va funksional buzilishlar ustunlik qiladi. Ushbu ma’lumotlar matriksli metalloproteinazlar genetik polimorfizmini artroz rivojlanishi uchun muhim xavf omili sifatida qarashga asos beradi. Shu bilan birga, genetik xususiyatlar muhit omillari, metabolik buzilishlar va mexanik yuklanish bilan o‘zaro ta’sirda kasallik fenotipini belgilaydi [15].

Matriksli metalloproteinazlar gen polimorfizmining klinik ahamiyati quyidagilardan iborat bo‘lib, ularni o‘rganish tizza bo‘g‘imlari artrozida shaxsiylashtirilgan tibbiyot konsepsiyasini rivojlantirish uchun muhim imkoniyatlar yaratadi. Genetik markerlar yordamida kasallikka moyil shaxslarni erta aniqlash, rivojlanish xavfini baholash va davolash chora tadbirlarini individual tanlash imkoniyatini beradi [16]. Kelajakda matriksli metalloproteinazlar faolligini maqsadli tarzda to‘xtatuvchi terapevtik yondashuvlarni ishlab chiqish ushbu genetik ma’lumotlarga tayanishi mumkin.

Xulosa. Tizza bo‘g‘imlari artrozida destruktiv o‘zgarishlar rivojlanishida matriksli metalloproteinazlar yetakchi patogenetik ahamiyatga ega. Ushbu fermentlarni kodlovchi genlar polimorfizmi ularning ekspressiyasi va faolligini o‘zgartirib, tog‘ay degradatsiyasi va bo‘g‘im strukturalarining yemirilishini tezlashtiradi. Matriksli metalloproteinazlar genetik polimorfizmini chuqur o‘rganish osteoartrozning molekulyar mexanizmlarini yaxshiroq tushunish, erta

ISSN 3030-3907

tashxis va oldindan bashorat qilish hamda individual davolash chora - tadbirlarini shakllantirishda muhim ilmiy va amaliy ahamiyatga ega hisoblanadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Алексеева Л.И. Генетические аспекты остеоартроза // Современная ревматология. – 2017. – Т. 11, № 3. – С. 4–10.
2. Балабанова Р.М. Остеоартроз коленного сустава // Терапевтический архив. – 2016. – Т. 88, № 5. – С. 92–98.
3. Каратеев Д.Е. Остеоартроз: современные представления // Научно-практическая ревматология. – 2018. – Т. 56, № 2. – С. 123–130.
4. Лапшина С.А. Матриксные металлопротеиназы при заболеваниях суставов // Казанский медицинский журнал. – 2019. – Т. 100, № 4. – С. 612–618.
5. Насонов Е.Л. Ревматология. Москва. Геотар – Медиа. - 2020. – 720 с.
6. Рогова Л. Н., Липов Д. С. Роль матриксных металлопротеиназ в патогенезе остеоартроза (обзор литературы) // Волгоградский научно-медицинский журнал. №1. - 2018. – С.12-15
7. Attur M., Krasnokutsky S., Statnikov A., Samuels J., Li Z., Friese O., et al. Inflammatory mediators in osteoarthritis // Current Opinion in Rheumatology. – 2015. – Vol. 27, No. 1. – P. 53–60.
8. Burr D.B., Gallant M.A. Bone remodelling in osteoarthritis // Nature Reviews Rheumatology. – 2012. – Vol. 8, No. 11. – P. 665–673.
9. Hunter D.J., Bierma-Zeinstra S. Osteoarthritis // The Lancet. – 2019. -Vol. 393, No. 10182. - P. 1745–1759.
10. Loughlin J. Genetic contribution to osteoarthritis // Annals of the Rheumatic Diseases. – 2015. – Vol. 74, No. 4. – P. 672–675.
11. Malemud C.J. Biologic basis of osteoarthritis // World Journal of Orthopedics. – 2014. – Vol. 5, No. 1. – P. 5–15.
12. Peng L., Xu J., Wu W., et al. Association of MMP-3 polymorphism with osteoarthritis risk // Molecular Biology Reports. – 2013. – Vol. 40, No. 6. – P. 4045–4051.
13. Reynard L.N. Genetic influences on osteoarthritis development // Osteoarthritis and Cartilage. – 2017. – Vol. 25, No. 5. – P. 763–772.
14. Sakao K., Takahashi M., Akiyama H., et al. MMP gene polymorphisms and knee osteoarthritis // Clinical Rheumatology. – 2015. – Vol. 34, No. 2. – P. 363–368.
15. Scanzello C.R., Goldring S.R. The role of synovitis in osteoarthritis pathogenesis // Arthritis & Rheumatology. – 2012. – Vol. 64, No. 6. – P. 1697–1707.

ISSN 3030-3907

16. Van der Kraan P.M., van den Berg W.B. Chondrocyte hypertrophy and osteoarthritis // Osteoarthritis and Cartilage. – 2012. – Vol. 20, No. 3. – P. 223–232.

ISSN 3030-3907

НОВЫЕ КОРМОВЫЕ ИНГРЕДИЕНТЫ В СОСТАВЕ РЕЦЕПТУР КОМБИНИРОВАННЫХ КОРМОВ ДЛЯ ОБЪЕКТОВ РЫБОВОДСТВА

Шалов Д.Ж.
“Уздонмахсулот” АКЦИОНЕРНОЙ КОМПАНИИ
Махмудов Р.А.
Бухарский государственный технический университет
Мавланов Б.А.
Бухарский государственный технический университет
Хайитов Р.А.
Бухарский государственный технический университет

Аннотация. В данном исследовании изучались изменения в составе добавок, улучшающих вкусовые качества и биологические свойства новые кормовые ингредиенты в составе рецептур комбинированных кормовых продуктов для рыб. В качестве добавок в составе рецептур комбинированных кормовых продуктов вводят куколки шелкопряда, яичный скорлупа и мука топинамбура, являющиеся местным вторичным сырьем, заменяющим эти продукты и богатым биологически активными веществами. Результаты анализа показали высокую удельную поверхность и пористую структуру куколки шелкопряда, яичный скорлупа и мука топинамбура, а также наличие местного сырья, заменяющего протеина и кальций, добавляемые в комбинированных кормовых продуктов для рыб.

Ключевые слова: комбинированных кормовых продуктов для рыб, куколки шелкопряда, яичный скорлупа, мука топинамбура.

Annotatsiya: Ushbu tadqiqot aralash baliq ozuqalari tarkibidagi yangi ozuqa tarkibiy qismlarining ta'mini va biologik xususiyatlarini yaxshilaydigan qo‘shimchalar tarkibidagi o‘zgarishlarni o‘rgandi. Ipak qurti g‘umbagi, tuxum po‘chog‘i va topinambur uni birlashtirilgan ozuqa mahsulotlari uchun yangi ozuqa qo‘shimchalar sifatida qo‘shiladi. Bular mahalliy ikkilamchi xomashyo bo‘lib, ushbu mahsulotlar o‘rnini bosuvchi va biologik faol moddalarga boy. Tahlil natijalari ipak qurti g‘umbagi, tuxum po‘chog‘i va topinambur unining yuqori o‘ziga xos sirt maydoni va g‘ovak tuzilishini, shuningdek, aralash baliq yemi mahsulotlariga qo‘shilgan oqsil va kaltsiy o‘rnini bosuvchi mahalliy xomashyo mavjudligini ko‘rsatdi.

Kalit so‘zlar: aralash baliq yemi mahsulotlari, ipak qurti g‘umbagi, tuxum po‘chog‘i va topinambur uni.

Abstract: This study investigated changes in the composition of additives that improve the palatability and biological properties of new feed ingredients in the formulations of combined fish feed products. Silkworm pupae, eggshells, and Jerusalem artichoke flour are added as additives to the formulas for combined feed

ISSN 3030-3907

products; these are local secondary raw materials that replace these products and are rich in biologically active substances. The analysis results showed the high specific surface area and porous structure of silkworm pupa, eggshells, and Jerusalem artichoke flour, as well as the presence of local raw materials that replace protein and calcium added to combined fish feed products.

Key words: combined fish feed products, silkworm pupae, eggshell, Jerusalem artichoke flour.

Введение

В питании рыб насчитывается более сотни видов кормов и кормовых добавок, изготавливаемых из отходов пищевых и маслоэкстракционных производств, включая продукты микробиологического синтеза, различные соли, витамины, ферменты, аминокислоты, антибиотики, сорбенты, антиокислители, вкусовые добавки и т.д. В промышленности появляются новые, питательные, более дешевые, чем рыбная мука, кормовые компоненты растительного и животного происхождения, содержащие легкоусвояемый протеин, ценные углеводы и другие вещества (отходы или вторичное сырье перерабатывающих производств). Изучение питательности нового высокобел- кового кормового сырья позволяет решить проблему замены рыбной муки путем выработки новых эффективных стартовых и продукционных комбикормов для ценных видов рыб, организовать выращивание молоди и товарной рыбы на интенсивной основе и отказаться от использования импортной продукции [1,2].

Одним из важнейших питательных веществ, влияющих на рост и работу всех физиологических систем в организме, является протеин, который играет важную роль в энергетическом обмене рыб, поскольку от него зависит скорость роста. Расход азота у рыб в 3-5 раз выше, чем у теплокровных животных. Основным источником протеина в комбикормах для ценных видов рыб выступает дорогостоящая и нередко дефицитная, зачастую сфальсифицированная или загрязненная рыбная мука, которая служит основным источником заменимых и незаменимых аминокислот и других азотсодержащих компонентов.

Рост и формирование рыб сопровождаются развитием их пищеварительной системы. Именно поэтому в состав стартовых комбикормов необходимо вводить легкоусвояемые высокобелковые компоненты и гидролизаты белка[3,4,].

Разработаны рецептуры комбикормов для ценных пород рыб по следующим индексам:

Осетровые: стартовый продукционный для рыб массой от 5 до 100 г - ОСП, продукционный оптимальный - ОПО, продукционный экономичный -

ISSN 3030-3907

ОПЭ (для рыб массой от 100 и более 500 г), для маточного стада - ОМ.

Форелево-лососевые: стартовый продукционный для рыб массой от 5 до 100 г - СФ, продукционный оптимальный (ОПФ) и экономичный (ЭПФ) для рыб массой от 100 до 250 г и выше, для маточного стада - ФМ.

Сиговые: стартовый продукционный от массы тела 5 до массы 100 г - СС, продукционный оптимальный - ОПС и экономичный - ЭПС для рыб массой 100 до 250 г и более, для маточного стада - СМ.

Расчёт рецептов экструдированных комбикормов с вакуумным напылением был произведен с помощью программы «ЭкоКорм», также использовали специальные кормовые таблицы состава кормовых компонентов и данные производителей нового комбикормового сырья (глютен, растительные концентраты, шроты). При оптимизации состава рецептур комбикормов по основным и эссенциальным питательным веществам использовали данные о потребности осетровых рыб в данных веществах.

Определение аминокислотного состава производили с помощью капиллярного электрофореза «Капель-105» по методике, разработанной АО «НПЦ «ВНИИКП». Произведён подбор кормовых компонентов - эффективных заменителей рыбной муки и зерна пшеницы с целью снижения себестоимости комбикормов [1, 4]. Предусмотрен ввод антиокислителя, β - каротина для форели и лососей, фитазы - в комбикорма с высоким содержанием растительного сырья, кальция и фосфора [5, 6].

Априорный анализ питательности вышеуказанных компонентов позволил обосновать целесообразность замены дорогостоящего животного сырья на более экономичное растительное сырье и жировые отходы. Перспективность предлагаемой замены объясняется незначительным снижением обменной энергии предлагаемого комбикорма. Кроме того, на питательные свойства рыбных комбикормов оказывают влияние такие важные характеристики, как желатинизация крахмала, регулируемая плотность, от которой зависит скорость погружения гранул, а также способность их капиллярно-пористой структуры впитывать жир [7,8].

Разработанные рецептуры экструдированных комбикормов с вакуумным напылением приведены: для осетровых рыб в таблице1, форели и лососевых - в таблице 2, сиговых - в таблице 3.3.Доля сырого протеина, %, составляет: стартовые - 50, продукционные (оптимальные) - 42, продукционные экономичные - 38, для РМС - 50. Доля сырого жира, %: стартовые -11, продукционные оптимальные - 12, продукционные экономичные – 8, для РМС - 10. Доля сырой клетчатки, %,: стартовые - 1,5, продукционные оптимальные - 3, продукционные экономичные -5, для

ISSN 3030-3907

ремонтно-маточного стада (РМС) - 2. Доля сырой золы, %: стартовые - 10, продукционные экономичные - 12, для РМС - 11. Доля фосфора, %: стартовые, продукционные, для РМС - 0,8.

Количество лизина, %: стартовые - 3,0, продукционные оптимальные - 2,1, продукционные экономичные - 1,8, для РМС - 2,4. Количество метионина и цистина, %: стартовые - 1,6, продукционные оптимальные - 1,2, продукционные экономичные - 0,9, для РМС - 1,3. Крошимость для экструдатов - 3,0 %, водостойкость - 30 мин, влажность не более – 12,0 %.

Таблица 1.

Рецептура экструдированных комбикормов с вакуумным напылением для осетровых рыб (ОПО, ОПЭ, ОМ, ОСП)

№	Кормовые компоненты	Заменители	ОСП	ОП		ОМ
				ОПО	ОПЭ	
1	*2*	*3*	*4*	*5*	*6*	*7*
1	Мука рыбная (ПР 63)	-	30,35	30,23	24,03	32,35
2	Соевый концентрат (ПР 65)	*	10,0	3,0	-	3,0
3	Мука мясная (ПР 68)	Мука рыбная	8,0	6,0	-	4,0
4	Мука мясокостная (ПР 36)	Мука мясная	-	-	4,0	4,0
5	Мука кровяная (ПР 80)	-	8,0	4,0	-	8,0
6	Дрожжи (ПР 30)	-	-	3,0	-	-
7	Мука кукурузная	-	8,0	4,0	4,0	6,5
8	Соевый шрот (ПР 42)	-	-	8,80	10,00	9,05
9	Пшеница	ячмень	6,0	7,0	7,0	7,0
10	Кукурузный глютен (ПР 59)	-	18,0	15,2	12,62	12,0
11	Шрот	Δ	-	6,4	7,9	-

ISSN 3030-3907

	подсолнечный (ПР 33) (рапсовый)					
12	Рыбий жир	-	10,0	6,3	8,0	7,8
13	Подсолнечное масло	Фосфатиды	-	1,5	2,8	1,2
14	L-Лизин-α-оксидаза	-	0,2	0,3	0,4	-
15	Фитаза (Натурфос - 10006)	-	-	0,02	0,03	-
16	Субтилис	-	0,4	0,4	0,3	0,3
17	Оксикап (антиоксидант)	-	0,05	0,05	0,05	0,05
18	Карбонат кальция	-	0,3	0,6	0,6	0,3
19	Монокальций фосфат	-	0,3	0,6	0,6	0,3
20	Премикс П-110-2	-	1,0	1,0	1,0	1,5
21	Сырой протеин, %	-	52,0	45,0	42,0	50,0
22	Сырой жир, %	-	15,0	10,0	12,0	10,0
23	Сырые углеводы, %	-	15,4	27,6	35,6	23,0
24	Сырая клетчатка, %	-	2,0	2,2	2,4	1,5
25	Минеральные вещества, %	-	8,6	8,2	8,0	8,5
26	Влага, %	-	6,0 -7,0	6,0 -7,0	6,0 -7,0	6,0 -7,0
27	Кальций (Ca), %	-	3,1	3,0	2,8	3,2
28	Фосфор (P), %	-	2,1	2,1	1,8	2,5
29	Незаменимые жирные	-	2,2	2,0	2,1	2,0

ISSN 3030-3907

	кислоты линоленового ряда (ω-3), %					
30	Незаменимые жирные кислоты линолевого ряда (ω-6), %	-	1,0	1,0	1,0	1,0
Общая энергия, МДж/ккал		-	21/5036	19,6/4647	21/5029	20/4766
Перевариваемая энергия, МДж/ккал		-	16,6/3978	15,5/3692	16,6/3973	15,8/3765

Примечание: *Соевый, Гороховый изолят;Δ-Шрот кориандровый Жмых амаранта.

Таблица 2.

Рецептура экструдированных комбикормов с вакуумным напылением для форели и лосося (ОПФ, ЭПФ, ФМ, СФ)

№	Кормовые компоненты	Замен ители	СФ	ФП		ФМ
				ОПФ	ЭПФ	
1	*2*	*3*	*4*	*5*	*6*	*7*
1	Мука рыбная (ПР 63)	-	30,35	30,23	24,03	32,35
2	Соевый концентрат (ПР 65)	*	10,0	3,0	-	3,0
3	Мука мясная (ПР 68)	Мука рыбная	8,0	6,0	-	4,0
4	Мука мясокостная (ПР 36)	Мука мясная	-	-	4,0	4,0
5	Мука кровяная (ПР 80)	-	8,0	4,0	-	8,0
6	Дрожжи (ПР 30)	-	-	3,0	-	-
7	Мука кукурузная	-	8,0	4,0	4,0	6,5
8	Соевый шрот (ПР 42)	-	-	7,0	10,0	16,0
9	Кукурузный глютен (ПР 59)	□	14,6	15,6	17,6	11,6

ISSN 3030-3907

10	Рапсовый шрот (ПР 35)	Λ	-	6,0	15,0	-
11	Рыбий жир	-	9,0	10,0	13,0	5,0
12	Подсолнечное масло	Фосфатиды	-	2,0	4,0	-
13	Пшеница	Ячмень	12,0	6,0	5,0	7,0
14	L-Лизин-α-оксидаза	-	-	0,2	0,3	-
15	Фитаза (Натурфос - 10006)	-	-	0,02	0,02	-
16	Субтилис	-	0,4	0,4	0,4	0,4
17	Оксикап (антиоксидант)	-	0,05	0,05	0,05	0,05
18	Карбонат кальция	-	0,3	0,6	0,6	0,3
19	Монокальций фосфат	-	0,3	0,6	0,6	0,3
20	Премикс П-110-2	-	1,0	1,0	1,0	1,5
21	Сырой протеин, %	-	47,0	45,0	40,0	48,0
22	Сырой жир, %	-	15,0	18,0	23,0	11,0
23	Сырые углеводы, %	-	18,0	16,3	16,1	23,8
24	Сырая клетчатка, %	-	1,8	2,4	2,6	1,7
25	Минеральные вещества, %	-	8,2	8,3	8,3	8,5
26	Влага, %	-	6,0 -7,0	6,0 -7,0	6,0 -7,0	6,0 -7,0
27	Кальций (Ca), %	-	2,8	3,2	2,8	3,2
28	Фосфор (P), %	-	1,9	2,1	1,9	2,2
29	Незаменимые жирные кислоты линоленового ряда (ω-3), %	-	1,8	2,5	2,7	1,6
30	Незаменимые жирные кислоты линолевого ряда (ω-6), %	-	0,6	0,8	1,2	0,6
Общая энергия, МДж/ккал		-	20,3/4860	23,2/5545	21,5/5141	22,1/527 5
Перевариваемая энергия, МДж/ккал		-	16,0/383	18,3/438	17,0/406	17,5/416 7

ISSN 3030-3907

		9	0	1	

Примечание: *Соевый, гороховый изолят;Δ-Люпин, сорго, другие шроты. Пшеничный глютен.

Одной из перспективных белковых добавок в сложившихся экологических условиях Республики может быть в качестве добавок в составе рецептур комбинированных кормовых продуктов вводят куколки шелкопряда, яичный скорлупа и мука топинамбура, являющиеся местным вторичным сырьем, заменяющим эти продукты и богатым биологически активными веществами.

Плавучесть корма специфична для каждого вида рыб и влияет на эффективность его использования.

Медленно тонущие корма. Для таких видов рыб, как форель, лосось, треска, желтохвостый тунец, необходимы экструдированные корма, высокое содержание жира в которых обеспечивает низкую скорость погружения [6]. Особенностью этих кормов является также низкое содержание крахмала. Размеры гранул колеблятся в широком диапазоне: их диаметр изменяется от 1 до 30 мм, что в свою очередь влияет на изменение содержания жира в них: от 10 до 40 % [6,7]. Обязательными условиями для гранул являются требования водостойкости и высокой прочности, способной выдерживать жесткие воздействие рабочих органов оборудования для кормления.

Плавающие корма. Плавающие корма востребованы для таких видов рыб, как форель, сом, тиляпия и некоторые другие [6]. Особенностью этих кормов является низкая насыпная плотность, которая необходима для достижения необходимой плавучести. Они должны быть водостойкими, т.е. обладать хорошей стабильностью в воде из-за того, что быстро не поедаются [6]. Содержание жира в плавающих кормах не должно превышать 12,0 %, а содержание крахмала - более 20,0 %. Насыпная плотность корма представлена в таблице 3, способность впитывания ими жира, определяющая их плавучесть – в таблице 4.

Таблица 3.

Зависимость насыпной плотности корма от плавающих или тонущих свойств

Характеристика корма	Насыпная плотность при температуре воды 20°С, г/л	
	солёная вода, 3,0%	пресная вода
Быстро тонущие	>640	>600
Медленно тонущие	580 - 600	540 - 560
Нейтрально плавучие	520 - 540	480 - 500
Плавающие	<480	<440

ISSN 3030-3907

Таблица 4.

Основные характеристики тонущих кормов

Показатель	Корма с уровнем жира			
	низким	средним	высоким	ультра-высоким
Общее содержание жира в продукте, %	<12,0	12,0 – 24,0	24,0 – 36,0	>36,0
Плотность сухого продукта перед вводом жира*, г/л	>615	615 - 531	531 - 447	<447
Необходимый ввод жира**, %	<5,7	5,7-22,4	22,4-45,3	>45,3
Максимальный потенциал абсорбции жира при вакуумной пропитке (ВП), %	<17,7	17,7-38,8	38,8-59,9	>59,9
Максимальный потенциал абсорбции жира при наружном обволакивании (НО), %	<5,9	5,9-13,6	13,6-21,4	<22,0
Необходимый процесс ввода жира	ВП или НО	ВП или НО	ВП	ВП

*Примечание: * Предполагаемая плотность для кормов, тонущих в морской воде соленостью 3,5 %) при температуре 20 °С, - более 650 г/л.** Предположительно в компонентах содержится 7 % жира.*

Таким образом, общими обязательными условиями тонущих кормов для рыб являются:

- высокий уровень протеина и жира;
- низкое содержание крахмала.

Для выполнения указанных условий, обеспечения водостойкости и плотности в состав комбикормов включаются функциональные протеины, оказывающие влияние на формирование структуры гранул.

ИСПОЛЬЗОВАННЫЕ ЛИТЕРАТУРЫ:

1. Л.Ю.Коноваленко и др. Технологии производства кормов для аквакультуры. ФГБНУ «Росинформагротех», 141261, г. Москва.-2020., 84 стр.

2. Головина Н.А., Романова Н.Н., Головин П.П., Симо- нов В.М., Дементьев В.Н., Шишанова Е.И., Тренклер И.В., Поно- марев С.В., Коноваленко Л.Ю., Мишуров Н.П. Анализ состояния и перспективные направления развития аквакультуры: науч. аналит. обзор. – М.: ФГБНУ «Росинформагротех», 2019. – 88 с.

ISSN 3030-3907

3. Афанасьев В.А., Богомолов И.С. Методы специальной тепловой обработки сырья и готовой продукции при производстве комбикормов. Монография. Воронеж.гос.ун-т инженер.технол. –Воронеж.: ВГУИТ, -2020. -357 с.
4. Белов А.Г., Шахов В.А., Путрин А.С., Козловцев А.П. Филатов М.И., Борулько В.Г. Инновационная разработка технологии и оборудования для производства экструдированных кормов с ультрадисперсными частицами. // Зоотехния. -2019. -№ 5 (79). –С.155-158.
5. Комбикормовые заводы для рыб// Сфера. Рыба. -2019. -№ 1 (22). – С.17.
6. Чуйкова Н. Карельские рыбные заводы: от кормов до рыбы // Комбикорма. – 2019. – № 6. – С. 26-28.
7. Турсунходжаев П.М., Мухамеджанов Ш.У., Хасанов А.А., Худайбердиев А.М., Гафурова Д.А., Шалов Д.Ж. Предварительный патент №5476 РУз. Технологическая линия для получених ячменной крупы. 27.01.1999. -10 с.
8. Ишметов А.Дж., Гафурова Д.А., Шалов Д.Ж, Копылов М.К. Предварительный патент № IDP 05170. Способ производства крупы из зерновой культуры. 03.12.2001. -11 с.

ISSN 3030-3907

УДК:635.611+632.931.1

ЭЛЕКТР ТОКИ ЁРДАМИДА ФАОЛЛАШТИРИЛГАН ТАБИИЙ КАНАЛ СУВИГА МИКРОЭЛЕМЕНТЛАРНИ (Cu, Mn) КОМПОЗИЦИЯЛАШДА ЭРИТМА ИОН ТАРКИБИНИНГ ЎЗГАРИШИ

Абдуллаев Мураджон Турсунович
Наманган давлат техника университети қишлоқ хўжалиги фанлари номзоди, профессор, "Кимё" кафедраси профессори.
ORCID: 0009-0005-1293-1122.
E-mail: muradabdullayev1960@gmail.com
Тел:+998 93 4942690
Закиров Карим Разикджанович
Наманган давлат техника университети, мустақил изланувчи.
ORCID:0009-0001-8023-6536.
E-mail: karimjonzokirov52@gmail.com
Тел:+998 91 1802952
Джураева Дилдора Умаржоновна
Наманган давлат техника университети, таянч докторант.
ORCID:0009-0001-4279-8095.
E-mail: dildoradjuraeva1985@gmail.com

Аннотация:Мақолада ўртача минераллашган таркибли табиий канал сувларини электр токи ёрдамида махсус қурилмада фаоллаштириш ҳамда унинг кислотали муҳитдаги (pH=*2,5-3,5*) қисмига микроэлементларни (Cu, Mn) композициялашнинг дастлабки олинган намуна таркибидаги ионлар ўзгаришига таъсирини ўрганишга оид тадқиқот натижалари келтирилган.

Калит сўзлар: канал суви, электр фаоллашган сув, электролизёр, диафрагма, pH, электрод, анолит, католит, анион, катион, антагонизм, синергизм.

Аннотация:В статье исследуется эффект активации умеренно минерализованных природных вод каналов электрическим током в специализированном аппарате и его действие в кислой среде (pH 2,5–3,5). В статье представлены результаты исследования влияния введения микроэлементов (Cu, Mn) в кислотную фракцию (pH 2,5–3,5) естественной умеренно минерализованной воды из канала, активированной электрическим током в специальном аппарате, на изменение ионного состава исходного образца.

Ключевые слова: каналная вода, электроактивированная вода, электролизер, диафрагма, pH, электрод, анолит, католит, анион, катион, антагонизм, синергизм.

ISSN 3030-3907

Abstract: The article examines the effect of activating moderately mineralized natural canal water with electric current in a specialized device and its action in an acidic environment (pH 2.5–3.5). The article presents the results of a study of the effect of introducing trace elements (Cu, Mn) into the acidic fraction (pH 2.5–3.5) of natural moderately mineralized water from a canal, activated by electric current in a special device, on the change in the ionic composition of the initial sample.

Keywords: channel water, electroactivated water, electrolyzer, diaphragm, pH, electrode, anolyte, catholyte, anion, cation, antagonizm, synergizm.

Кириш

Электр токи ёрдамида фаоллаштириш физик-кимёвий жараён сифатида - таркибидаги ионлар ва эритилган моддалар билан бирга электрокимё тизимни электродлари (анод ёки катод) сиртидаги фазавий заряд ҳудудида минимал иссиқлик ажратиш шароитида электронлар томонидан «электрод-электролит» чегарасидан зарядларни номутаносиб олиб ўтиш шароитидаги электрокимёвий ва электрофизик таъсирлар мажмуасини ташкил этади (1,2).

АДАБИЁТ ТАҲЛИЛИ ВА МЕТОДОЛОГИЯСИ.

Электр ток таъсирида фаоллаштириш натижасида сув метастабил (фаоллаштирилган) ҳолатга ўтади, бу ҳолат аномал физик-кимёвий параметрлар билан тавсифланади. Фаоллаштирилган сув ва эритмаларни олиш жараёни ўта номувозанат жараён бўлиб, кимёни ҳозир тез суръатларда ривожланаётган янги соҳаси - кимёвий жараёнлар ва технологиялардаги синергетика томонидан ўрганиладиган объектдир. Агар анъанавий амалий электр кимёда электр жараённи мувозанат шароитларига оптимал яқинлаштирилган параметрларини топиш асосий масала бўлса, электр кимёвий фаоллаштириш учун электр кимёвий реакцияларни мувозанат шароитларида ўтишидан оптимал узоқлашиш параметрларини топиш муҳимдир (3,4,5).

Тадқиқотлардан маълумки микроўғитларни тупроққа экишдан олдин солиш, қўшимча озиқлантириш (микроэлементларнинг 0,1—0,05% эритмасини пуркаш), уруғликка экишдан олдин ишлов бериш (уруғликни уларнинг 0,02—0,05% эритмалари билан ҳўллаш) каби усуллар асосида амалга оширилади ва бунда асосан эритувчи сифатида оддий ариқ, канал ва водопровод сувларидан фойдаланилади.(6)

Технологияларда ишлатиладиган сувга қўйиладиган стандарт талаблар келтирилмаган. Чунки ҳозирги пайтда антропоген омиллар таъсирида сувнинг физик-кимёвий кўрсаткичлари, айниқса pH, оксидланиш-қайтарилиш потенциаллари қиймати, минераллашганлик даражаси, таркибидаги катион ва анионлар миқдори белгиланган меъёрлар талабига жавоб бермайди. Айниқса, сувга микроэлементларни қўшишда сув

ISSN 3030-3907

таркибидаги ионлар миқдорини ўрганиш муҳимдир. Чунки озиқ моддаларни ташкил этувчи деярли барча элементлар бир-бири билан ўзаро таъсир қилишнинг иккита шаклларидан бирида намоён бўлади. Булар антагонистик ёки синергетик шакллардир. Ушбу омилни эътиборсиз қолдириш ўсимликнинг ўзида мувозанатсиз реакцияларга олиб келади, ҳатто ўсимликларнинг нобуд бўлишига сабаб бўлувчи стресс келтириб чиқариши мумкин. Элементлар ўртасидаги қарама-қаршилик уларнинг кимёвий реакцияларда биргаликда иштирок этиши улардан бирининг таъсирининг ёмонлашишига олиб келганда юзага келади. Шундай қилиб, бир элементнинг кўплиги ўсимликнинг илдиз тизими томонидан бошқа элементнинг сўрилиш даражасини пасайтириши мумкин.

Шу нуқтаи назардан биз микроэлементларни электрокимёвий фаоллаштирилган сувнинг кислотали муҳитига композициялаш асосида уруғларга экишдан олдин ишлатиладиган кимёвий восита олиш жараёнида электрокимёвий фаоллашган табиий канал сувларини таркибида бўладиган ионларнинг тажрибадан олдинги, электрокимёвий фаоллаштирилгандан кейинги ва микроэлементлар қўшилган ҳолатдаги эритмалар ион таркиби ўзгаришини ўрганишга оид тажрибалар ўтказдик.

Тадқиқот учун ишлатиладиган сувни электрокимёвий фаоллаштириш Россия федерациясида ишлаб чиқарилган МЕЛЕСТА (ТУ 5156-002-32064511-07, сертификат № РОСС РУ.АЯ36.В29156) қурилмасида амалга оширилди. Қурилма +5 дан +40^0 С хароратда ва 80%дан ортиқ бўлмаган намликда ишлашга мўлжалланган. Расмда кўрсатилганидек қурилма 4 қисмдан иборат бўлиб, улар асосий идиш, электр токини меёрлаштиргич, диафрагмали стакан ва электродлар ўрнатилган қопқоқдан иборат. Қурилманинг катод қисми зангламайдиган пўлатдан, анод эса рутений оксиди билан қопланган титандан ясалган (1-расм).



1-расм. Мелеста қурилмаси

Тадқиқотларни бошлаш учун дастлаб 2025 йилнинг март ойида Шимолий Фарғона каналининг 1 км узоқликдаги 5 та қисмидан 10 литрдан намуналар олинди ва 50 литрли идишга жамланди. Олинган намунанинг табиий ҳолатдаги, электрокимёвий фаоллаштирилгандан сўнг кислотали муҳитдаги ва кислотали муҳитга микроэлементларни композициялангандаги

ISSN 3030-3907

ион таркиби Тошкент кимё технология институти “Силикат материаллар ва нодир металлар технологияси” кафедраси физик-кимёвий таҳлил ва наноматериаллар илмий лабораториясида Японияда ишлаб чиқарилган юқори аниқликдаги энергия дисперсли Rigaku NEX CG EDXRF polarizatsiyali analizator - 9022190000 рентген флоресан спектрометри ёрдамида ўрганилди.

ТАҲЛИЛ ВА НАТИЖАЛАР.

Таҳлил натижалари табиий ҳолатдаги канал суви таркибидаги алюминий, кремний, темир, рух, кумуш, қалай, уран, стронций, цирконий, тербий, палладий каби ионлар миқдори сувга электрокимёвий ишлов бериш ва унга микроэлементларни композициялаш жараёнларидан кейин ҳам деярли ўзгармаганлигини кўрсатди. Олинган намуна таркибидаги олтингугурт миқдори (табиий 109 мг/л) электрокимёвий ишлов берилгандан кейин (кислотали муҳит, 107 мг/л) деярли ўзгармаган, кислотали муҳитга мис ва марганец композициялангандан кейин эса иккала ҳолатга нисбатан (171мг/л) сезиларли ортган. Сабабини микроэлементларнинг сульфатли тузларидан фойдаланилганлиги билан изоҳлаш мумкин. Намуна таркибидаги хлор миқдори табиий ҳолатда 43 мг/л ташкил этиб, электрокимёвий ишлов берилгандан кейин (кислотали муҳит, 140 мг/л) ортган, кислотали муҳитга мис ва марганец композициялангандан кейин эса (121 мг/л) бир оз камайган. электрокимёвий фаоллаштириш давомида анодга анионлар харакати жумладан хлорид ионини ҳам анодга харакати туфайли анолитда хлорид иони концентрлашади. Бундан ташқари катод атрофида юзага келаётган ишқорий муҳит сув таркибида доимий учрайдиган хлорид тузларининг ($FeCl_3$, $CaCl_2$) тузларнинг гидролизланишини тезлаштиради ва хлорид ионини миқдорини орттиради уларнинг анодга тортилиши сабабли анолитда хлорид 140 мг/л гача миқдори ортган. Микроэлементли композиция таркибида хлорид ионини миқдорини (121 мг/л) сал камайиш мис ва марганец катионлари таъсири туфайли юзага келган бўлиши мумкин. Чунки мис ва марганец ионлари d элементлар қаторида бўлиб, улар комплекс ионлар хосил қилиш хусусиятига эга.

$$Cu^{2+} + 4Cl^- \rightarrow \left[\begin{array}{c} Cl \\ | \\ Cl\text{--}Cu\text{--}Cl \\ | \\ Cl \end{array} \right]^{2-}$$

Намунадаги табиий канал сувида калций Ca^{2+} ионлари миқдорининг (108 мг/л), электрокимёвий фаоллаштирилган сўнг кислотали муҳитда камайиши (анолитида 74 мг/л) ионларнинг анод томонга харакатланиши ва карбонат ионлари таъсирида кальций карбонатга айланиб чўкма ҳосил қилиши билан изоҳлаш мумкин. Кислотали муҳитдаги электрокимёвий

ISSN 3030-3907

фаоллаштирлган сувга мис ва марганецли ($CuSO_4 \cdot 5H_2O$, $MnSO_4 \cdot 2H_2O$) тузларнинг қўшилиши натижасида тузлар таркибидаги сульфат ионлари билан калций ионини бирикиб, кальций сульфат тузини ҳосил қилиши ушбу композицияда унинг миқдорини янада камайишига (58 мг/л) олиб келган. Кислотали муҳитдаги электрокимёвий фаоллашган сувга мис ва марганецли ($CuSO_4 \cdot 5H_2O$, $MnSO_4 \cdot 2H_2O$) тузларнинг қўшилиши уларнинг миқдорини кескин ортишига сабаб бўлган (1-жадвал, 1-3 спектрограммалар).


1-жадвал

Электрокимёвий фаоллашган табиий канал сувларига микроэлементларни композициялашнинг эритма ион таркибига таъсири


(*Шимолий Фарғона канали суви*)

Т/r.	**Компонентлар**	**Ўлчов бирлиги**	**Тажрибадан аввал табиий ҳолатда**	**Электрокимёвий фаоллаштирилгандан сўнг, кислотали муҳитда (анолит)**	**Композитцияда Анолит+Cu +Mn**
1	Алюминий Al	мг/л	99	109	121
2	Олтингугурт S	мг/л	109	107	171
3	Кремний Si	мг/л	93	108	107
4	Хлор Cl	мг/л	43	140	121
5	Кальций Ca	мг/л	108	74	58
6	Темир Fe	мг/л	11	13	13
7	Мис Cu	мг/л	5	6	117
8	Рух Zn	мг/л	2	4	-
9	Кумуш Ag	мг/л	5	6	5
10	Қалай Sn	мг/л	16	15	18
11	Уран U	мг/л	1	1	1
12	Стронций Sr	мг/л	2	-	-
13	цирконий Zr	мг/л	525	477	565
14	Тербий Tb	мг/л	9	13	-
15	Палладий Pd	мг/л	1	1	1
16	Марганец Mn	мг/л	-	-	119


ISSN 3030-3907



1-спектрограмма Табиий ҳолатдаги ШФК сувининг рентген флоресан спектрометридаги таҳлили



2-спектрограмма Кислотали муҳитдаги электрокимёвий фаоллашган ШФК сувининг рентген флоресан спектрометридаги таҳлили



3-спектрограмма Кислотали муҳитдаги электрокимёвий фаоллашган ШФК сувига микроэлементлар композицяланган ҳолатдаги рентген флоресан спектрометридаги таҳлили

Ўтказилган тадқиқотлар асосида қуйидаги хулосалар қилинди

-электрокимёвий фаоллаштирилган канал сувнинг анолит қисмига мис ва марганецнинг сульфатли тузларини ($CuSO_4 \cdot 5H_2O$, $MnSO_4 \cdot 2H_2O$) композицияланганда уларнинг тўла эриши кузатилиб, чўкма ҳосил қилмайди;

ISSN 3030-3907

-электрокимёвий фаоллаштирилган табиий канал сувининг анолит қисмига мис ва марганец микроэлементлари қўшилганда унинг таркибидаги бошқа ионлар мис ионини эритмада фаол ион ҳолатида қолишига халақит бермайди;

- табиий канал сувидаги олтингугурт миқдори (109 мг/л) электрокимёвий ишлов берилгандан кейин (кислотали муҳит, 107 мг/л) деярли ўзгармайди, кислотали муҳитга мис ва марганец композициялангандан кейин эса иккала ҳолатга нисбатан (171мг/л) микроэлементларнинг сульфатли тузларидан фойдаланилганлиги сабабли ортади.

- табиий канал сувида кальций ионлари миқдорининг (108 мг/л), электрокимёвий фаоллаштирилган сўнг кислотали муҳитда камайиши (анолитида 74 мг/л) ионларнинг анод томонга харакатланиши ва карбонат ионлари таъсирида кальций карбонатга айланиб чўкма ҳосил қилиши билан изоҳлаш мумкин.

- кислотали муҳитдаги электрокимёвий фаоллаштирлган сувга мис ва марганецли ($CuSO_4 \cdot 5H_2O$, $MnSO_4 \cdot 2H_2O$) тузларнинг қўшилиши натижасида тузлар таркибидаги сульфат ионлари билан калций ионини бирикиб, калций сульфат тузи чўкмасини ҳосил қилиши ушбу композицияда унинг миқдорини янада камайишига (58 мг/л) олиб келади.

ФОЙДАЛАНИЛГАН АДАБИЁТЛАР РЎЙҲАТИ

1. Бахир В.М., Кирпичников П.А., Лиакумович А.Г. Механизм изменения реакционной способности активированных веществ //Изв. АН УзССР. Сер. Техн. Наук. – 1982. – №. 4. – С. 70-74.

2. Джурабаев М., Мамаджанов А. Биостимулирующее средство (эл. акт. вода) //Сельское хозяйство Узбекистана.- 1984.- № 2.- С. 42

3. Прилуцкий В.И., Бахир В.М. Электрохимически активированная вода: аномальные свойства, механизм биологического действия. – Москва: ВНИИИМТ АО НПО «Экран», 1997. – 228 с.

4. Абдуллаев М.Т., Хайитов Б,А., Юсупов Д.Р. Изучение нормативных условий выкормки восковой моли на основе электрохимический активированной воды //Международного научного журнала. – Киев, 2016. – № 6. – С. 103-104.

5. Абдуллаев М.Т, Хайитов Б.А., Пўлатов А.С., Рахимов У. Электрокимёвий фаоллаштирилган сувдан биологик воситалар кўпайтиришда фойдаланиш //ФарПИ илмий техника журнали. – Фарғона, 2017. – № 3. – Б. 98-102.

6. Abdullaev M., Zakirov K., Khaitov B. Production of electrochemically activated water in the composition of microelements and use in pre-sowing treatment of vegetable seeds //Science and innovation. – 2023. – Т. 2. – №. D6. – С. 161-165.

ISSN 3030-3907

SUN’IY INTELLEKT ASOSIDA MOSLASHTIRILGAN (ADAPTIVE) TA’LIM TIZIMLARI

Toshboltayev Faxriddin O‘rinboyevich
Farg‘ona davlat universiteti Axborot texnologiyalari kafedrasi katta o‘qituvchisi (PhD)
E-mail: toshboltayevfaxriddin88@gmail.com
Mirzaakbarova Mohinabonu Saidjon qizi
Farg‘ona davlat universiteti Axborot tizimlari va texnologiyalar yo‘nalishi 2-kurs talabasi
E-mail: mohina.rahmonaliyeva@icloud.com
Burxonjonova Sevinchxon Abdulaziz qizi
Farg‘ona davlat universiteti Axborot tizimlari va texnologiyalar yo‘nalishi 2-kurs talabasi
E-mail: burxonjonovasevinchxon@gmail.com

Annotatsiya. Ushbu maqolada sun’iy intellekt asosida yaratilgan moslashtirilgan ta’lim tizimlarining nazariy asosi, ishlash tamoyillari va zamonaviy ta’lim jarayonidagi ahamiyati yoritiladi. Adaptive texnologiyalar o‘quv jarayoniga qanday ta’sir ko‘rsatishi, o‘quvchi faoliyatini qanday tahlil qilishi, bilimni shaxsiylashtirish imkoniyatlari va ta’lim sifatiga qo‘shayotgan innovatsion yondashuvlari ilmiy asosda ochib beriladi. Shuningdek, AI asosidagi tahlil modellari, kontentni moslashtirishning algoritmik jarayonlari, o‘qituvchi va o‘quvchi o‘rtasidagi o‘zaro munosabatni transformatsiya qiluvchi mexanizmlar ham ko‘rib chiqiladi. Maqola O‘zbekiston ta’lim tizimi uchun ham istiqbolli yo‘nalishlarni taklif etadi.

Kalit so‘zlar: Sun’iy intellekt, moslashtirilgan ta’lim, shaxsiylashtirilgan o‘qitish, adaptiv tizimlar, raqamli ta’lim, tahlil algoritmlari, o‘quvchi modeli, pedagogik model, ta’lim texnologiyalari.

Аннотация. В статье рассматриваются теоретические основы, принципы работы и значение адаптивных образовательных систем на основе искусственного интеллекта в современном образовательном процессе. В статье научно раскрывается влияние адаптивных технологий на образовательный процесс, анализ деятельности учащихся, возможности персонализации знаний и инновационные подходы, которые они привносят в качество образования. Также рассматриваются модели анализа на основе искусственного интеллекта, алгоритмические процессы адаптации контента и механизмы, преобразующие взаимодействие преподавателей и студентов. В статье также предлагаются перспективные направления развития системы образования Узбекистана.

ISSN 3030-3907

Ключевые слова: Искусственный интеллект, адаптивное обучение, персонализированное обучение, адаптивные системы, цифровое обучение, алгоритмы анализа, модель обучающегося, педагогическая модель, образовательные технологии.

Abstract. This article discusses the theoretical basis, principles of operation and the importance of adaptive educational systems based on artificial intelligence in the modern educational process. It scientifically reveals how adaptive technologies affect the educational process, how they analyze student activity, the possibilities of personalizing knowledge and the innovative approaches they add to the quality of education. It also considers AI-based analysis models, algorithmic processes of content adaptation, and mechanisms that transform the interaction between teachers and students. The article also offers promising directions for the education system of Uzbekistan.

Keywords: Artificial intelligence, adaptive learning, personalized learning, adaptive systems, digital learning, analysis algorithms, learner model, pedagogical model, educational technologies.

Kirish

Zamonaviy raqamli transformatsiya jarayonlari ta’lim sohasiga ham chuqur kirib kelib, o‘quv jarayonining shakl va mazmunini tubdan o‘zgartirmoqda. Axborot texnologiyalarining rivoji, ayniqsa sun’iy intellektning keng qo‘llanilishi natijasida ta’lim tizimida yangi yondashuvlar vujudga kelmoqda. Shulardan biri — sun’iy intellekt asosida moslashtirilgan ta’lim tizimlaridir. Bunday tizimlar o‘quvchi va o‘qituvchi o‘rtasidagi o‘zaro munosabatni qayta ko‘rib chiqib, ta’lim jarayonini har bir o‘quvchining individual xususiyatlariga mos ravishda tashkil etishga qaratilgan.

ASOSIY QISM

Sun’iy intellektning ta’limga kirib kelishi nafaqat o‘quvchilarning o‘zlashtirish samaradorligini oshiradi, balki o‘qituvchi faoliyatiga ham katta yordam beradi. Tizimlar tomonidan yaratilgan tahliliy ma’lumotlar o‘qituvchiga har bir o‘quvchi haqidagi aniq va chuqur tahlilni taqdim etadi. Bu esa pedagogning vaqtini tejalishiga, dars jarayonini rejalashtirishda yanada oqilona qarorlar qabul qilishiga imkon yaratadi.

Yuqoridagilarni inobatga olgan holda, sun’iy intellekt asosida moslashtirilgan ta’lim tizimlarini o‘rganish, ularning mexanizmlarini tahlil qilish hamda ta’limdagi o‘rni va istiqbolini aniqlash zamonaviy pedagogika uchun dolzarb masalalardan biridir.

Adaptive ta’limning nazariy-metodik asoslari

Moslashtirilgan ta’limning tamoyillari konstruktivizm nazariyasiga asoslanib, o‘quvchi bilimni tayyor ko‘rinishda emas, balki faol fikrlash, mustaqil

ISSN 3030-3907

yechim topish va individual tahlil qilish orqali o‘zlashtiradi degan g‘oyani ilgari suradi. Sun’iy intellekt ushbu jarayonni chuqur tahlil qiladigan intellektual monitoring vositasi sifatida xizmat qiladi. Tizim o‘quvchining bilim holatini aniqlashda turli algoritmik yondashuvlardan — statistik modellash, mashinaviy o‘rganish, neyron tarmoqlar, bayes modellari va bilim graflaridan foydalanadi. Bu yondashuvlar o‘quvchining bilish faoliyatidagi nozik o‘zgarishlarni aniqlash imkonini beradi.

Pedagogik model (Instructional Model) esa o‘qitish jarayonini boshqarish bo‘yicha algoritmik qoidalarni belgilab beradi. Bu model o‘quvchi qanday tartibda o‘rganishi, kontent qanday murakkablikda taqdim etilishi, qayta mustahkamlash jarayoni qachon va qanday amalga oshirilishi lozimligini ko‘rsatadi. Natijada tizim har bir o‘quvchi uchun individual o‘quv strategiyasini shakllantiradi.

Sun’iy intellektning moslashtirilgan ta’limdagi amaliy ahamiyati

AI adaptiv tizimlarda o‘quv materialini qayta strukturaga solish, o‘quvchining ehtiyojlarini aniqlash va o‘quv jarayonini optimallashtirishda fundamental rol o‘ynaydi. O‘quvchi tomonidan bajarilgan har bir topshiriq tizimga yangi ma’lumot beradi; mazkur ma’lumotlar mashinaviy o‘rganish algoritmlari orqali qayta ishlanib, o‘quvchiga mos kontent shakllantiriladi.

AI quyidagi jarayonlarni bajaradi:

1. Diagnostika: O‘quvchining bilim darajasini aniqlash, mustahkam bo‘lmagan mavzularni topish, o‘quv jarayonidagi tipik xatolarni tahlil qilish.

2. Turli kontentlarni moslashtirish: Tekst, video, interaktiv mashqlar, testlar, simulyatsiyalar va misollar darajasini o‘zgartirish orqali ta’limni moslashtirish.

3. Prognozlash: O‘quvchining kelajakdagi o‘zlashtirish natijalarini oldindan aytib berish. Masalan, tizim o‘quvchi qaysi mavzuda qiynalishi yoki muvaffaqiyatli bo‘lishini taxmin qiladi.

4. Shaxsiy rivojlanish trayektoriyasini yaratish: Har bir o‘quvchi uchun individual o‘quv yo‘lini taklif qilish. Bu yo‘l o‘quvchining qiziqishlari, ehtiyojlari va kognitiv xususiyatlariga mos ravishda shakllanadi.

5. Real vaqtli tahlil: Tizim o‘quvchining faoliyatini uzluksiz kuzatib boradi va o‘qitish jarayonini bir zumda o‘zgartirishi mumkin.

Natijada o‘quv jarayoni bir tomonlama emas, balki ikki tomonlama, faol, moslashuvchan va dinamik tizimga aylanadi.

Adaptive ta’lim tizimlarining pedagogik va psixologik afzalliklari

Moslashtirilgan ta’lim psixologik-pedagogik jihatdan o‘quvchiga yuqori darajada mos keladi. Chunki har bir shaxs o‘ziga xos bilish tezligi, qiziqishlari, o‘quv uslubi va aqliy strategiyalariga ega. An’anaviy ta’lim bunday xilma-xillikni

ISSN 3030-3907

inobatga olishga qiynalsa, AI asosidagi adaptiv tizimlar aynan shu murakkablikni yechishga qodir.

O‘quvchi uchun afzalliklari:

O‘z tezligida o‘qish imkoniyati.

Qiyin mavzularni avtomatik takrorlash va mustahkamlash.

Intellektual yordam va real vaqtli ko‘mak.

Ortib boruvchi qiyinchilik tamoyili orqali motivatsiya kuchayishi.

Mustaqil o‘rganish ko‘nikmalarining shakllanishi.

O‘qituvchi uchun afzalliklari:

Har bir o‘quvchi haqida batafsil analitik hisobot.

O‘quvchilar o‘rtasidagi farqni aniq ko‘rish imkoniyati.

Dars jarayonini optimallashtirish, individual ishlashga ko‘proq vaqt ajratish.

O‘quvchilarning psixologik holatini kuzatish imkoniyati.

Zamonaviy adaptiv platformalarning texnik ishlash mexanizmlari

Bugungi vaqtda adaptive ta’lim tizimlari murakkab texnik platformalar ko‘rinishiga ega. Ularning ishlashida quyidagi texnologiyalar asosiy rolni bajaradi:

Natural Language Processing (NLP): Matnlarni tahlil qilish, o‘quvchining javoblarini baholash, avtomatik izoh berish, savol-javoblarni ishlab chiqish.

Rekomendatsion tizimlar: O‘quvchiga mos mavzu, mashq yoki video tavsiya qilish.

Neyron tarmoqlar: O‘quvchi xatti-harakatlaridagi murakkab naqshlarni aniqlash.

Bilim grafiklari (Knowledge Graph): Mavzular o‘rtasidagi aloqalarni aniqlash va bilim strukturasini modellashtirish.

Prediktiv tahlil: Baholarni oldindan taxminlash, o‘zlashtirish jarayonidagi xavf omillarini aniqlash.

Bu texnologiyalar ta’lim jarayonini avtomatlashtirish, takomillashtirish va har bir o‘quvchi uchun eng mos shaklga keltirish imkonini beradi.

O‘zbekistonda adaptive ta’limni joriy etishning istiqbollari

O‘zbekiston ta’lim tizimida raqamli transformatsiya jarayoni faol davom etmoqda. Elektron darsliklar, onlayn kurslar, test platformalari, masofaviy ta’lim tizimlari yaratilmoqda. Agar ushbu tizimlar sun’iy intellekt integratsiyasi orqali adaptive shaklga keltirilsa, ta’lim sifatida sezilarli yuksalish bo‘lishi mumkin.

Xususan:

1. bosqichma-bosqich o‘quvchi diagnostikasi,
2. o‘quvchiga moslashtirilgan o‘quv yo‘llari,
3. o‘qituvchilar uchun analitik panellar,
4. maktab va oliy ta’lim uchun avtomatlashtirilgan monitoring tizimlari

yaratilishi va keng qo‘llanilishi ko‘zda tutiladi.

ISSN 3030-3907

XULOSA

Sun’iy intellekt asosida moslashtirilgan (adaptive) ta’lim tizimlari bugungi ta’lim jarayonining tubdan yangilanishiga asos bo‘layotgan eng muhim texnologik yo‘nalishlardan biridir. Bunday tizimlar o‘quvchining individual imkoniyatlari, kognitiv xususiyatlari, o‘rganish tezligi va qiziqishlarini aniqlab, unga mos kontentni taklif qilishi orqali ta’lim jarayonini shaxsiylashtiradi. O‘quvchining xatti-harakatlari va o‘zlashtirish ko‘rsatkichlari sun’iy intellekt yordamida real vaqt rejimida tahlil qilinadi, va bu esa ta’lim jarayonining davomiy darajada takomillashib borishiga sharoit yaratadi.

Adaptive tizimlar nafaqat o‘quvchi uchun qulaylik yaratadi, balki o‘qituvchi faoliyatini ham ancha yengillashtiradi. O‘qituvchi har bir o‘quvchining rivojlanish trayektoriyasini batafsil kuzatishi, ulardagi qiyinchiliklarni aniq ko‘rishi va zarur pedagogik yondashuvlarni belgilashi mumkin. Bu esa ta’lim jarayonida inson omili va texnologik yondashuv o‘rtasidagi uyg‘unlikni kuchaytiradi. Shuningdek, sun’iy intellektning aqliy tahlil, modellashtirish, prognozlash imkoniyatlari o‘quv jarayonini samarador, moslashuvchan va yuqori sifatli qilishda muhim omil bo‘lib xizmat qiladi.

Umuman olganda, sun’iy intellekt asosida moslashtirilgan ta’lim tizimlari ta’limning kelajagini belgilab berayotgan innovatsion yo‘nalish bo‘lib, u an’anaviy ta’lim modelini raqamli texnologiyalar asosida qayta ko‘rib chiqish imkonini beradi. Bu tizimlar o‘quvchi va o‘qituvchi o‘rtasidagi pedagogik jarayonni kuchaytiradi, ta’lim samaradorligini oshiradi va bilim olishni yanada qulay, moslashuvchan hamda yuqori sifatli jarayonga aylantiradi. Shunday qilib, adaptive ta’lim texnologiyalarining joriy qilinishi nafaqat ta’lim jarayoniga zamonaviy yondashuv olib kiradi, balki mamlakatning intellektual salohiyatini oshirishga ham xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Abdullayeva, M. *Raqamli ta’lim texnologiyalari va ularning o‘quv jarayonidagi qo‘llanilishi*. Toshkent: Fan va texnologiya nashriyoti, 2021.
2. Ahmedov, U. *Zamonaviy axborot texnologiyalarining ta’limdagi o‘rni*. Toshkent: Innovatsiya, 2020.
3. Ergashev, Sh., & Qo‘ldoshev, Q. *Axborot-kommunikatsiya texnologiyalari asoslari*. Toshkent: O‘qituvchi, 2019.
4. Hamroyev, A. *Pedagogik texnologiyalar va raqamli ta’lim*. Toshkent davlat pedagogika universiteti, o‘quv qo‘llanma, 2022.
5. Islomov, S. *Sun’iy intellekt: nazariya va amaliyot*. Toshkent: “Iste’dod” nashriyoti, 2021.
6. Karimov, Z. *Intellektual ta’lim tizimlari va elektron o‘quv platformalarining rivoji*. Toshkent: TDYU ilmiy to‘plami, 2022.

ISSN 3030-3907

7. Nazarov, B. *Raqamli pedagogika: konsepsiyalar, metodlar va texnologiyalar*. Toshkent: Innovatsion rivojlanish nashriyoti, 2023.
8. Rahimova, N. *Elektron ta’lim va masofaviy o‘qitish texnologiyalari*. Qarshi: Nasaf nashriyoti, 2020.

ISSN 3030-3907

TEXNOLOGIK JARAYONGA TA’SIR ETUVCHI OMILLAR VA TOLA FIZIK-MEXANIK XOSSALARINING YIGIRILGAN IP SIFATIGA BOG‘LIQLIGI

G.K.Mirxonova
Buxoro davlat texnika universiteti magistranti.
Muradova Firuza Rashidovna
Buxoro davlat texnika universiteti AKT kafedrasi professori

Annotatsiya: Ushbu maqolada yigirish jarayonida ip sifatini belgilovchi asosiy omillar — tolaning fizik-mexanik xususiyatlari hamda texnologik jarayon parametrlari o‘rtasidagi o‘zaro bog‘liqlik tahlil qilingan. Tola uzunligi, ingichkaligi, mustahkamligi, namlik sig‘imi kabi ko‘rsatkichlarning ip sifatiga ta’siri, shuningdek yigirishda mashina-sozlamalari, tezlik, taranglik va muhit sharoitining ahamiyati yoritilgan.

Kalit so‘zlar: Yo‘qimachilik, tola, xomashyo, elastiklik, sanoat, xossa, omil, mikroner, yigiruv.

Abstract: This article analyzes the relationship between the main factors determining the quality of yarn in the spinning process - the physical and mechanical properties of the fiber and the technological process parameters. The influence of such parameters as fiber length, fineness, strength, moisture capacity on the quality of yarn, as well as the importance of machine settings, speed, tension and environmental conditions during spinning are highlighted.

Keywords: Textile, fiber, raw material, elasticity, industry, property, factor, micronizer, spinning.

Аннотация: В статье анализируется взаимосвязь между основными факторами, определяющими качество пряжи в процессе прядения – физико-механическими свойствами волокна и параметрами технологического процесса. Раскрыто влияние таких показателей, как длина волокна, тонина, прочность, влагоемкость, на качество пряжи, а также значение настроек машины, скорости, натяжения и условий окружающей среды при прядении.

Ключевые слова: Текстиль, волокно, сырье, эластичность, промышленность, свойство, фактор, микрон, прядение.

Kirish

To‘qimachilik sanoatida yuqori sifatli ip ishlab chiqarish muhim ahamiyatga ega bo‘lib, bu jarayon asosan tolalarning fizik-mexanik xossalari va texnologik jarayonning to‘g‘ri tashkil etilishiga bog‘liq. Yigirilgan ip sifati keyingi to‘qish va trikotaj jarayonlarining samaradorligini belgilaydi. Shu sababli texnologik jarayonga ta’sir etuvchi omillarni chuqur o‘rganish hamda tolalarning xossalari bilan ip sifati o‘rtasidagi bog‘liqlikni tahlil qilish dolzarb masalalardan biridir. Yigirish jarayoni tolalarni mexanik ta’sir ostida ip holiga keltirishga qaratilgan ketma-ket operatsiyalar majmuasidan iborat. Ushbu jarayon davomida tolalar tozalanadi, taraladi, cho‘ziladi va buram berish orqali ip hosil qilinadi. Har bir

ISSN 3030-3907

bosqichda tolalarning holati o‘zgarib, bu holat yakuniy mahsulot sifatida aks etadi. Jarayonning izchil va uzluksiz olib borilishi ipning barqaror sifatini ta’minlaydi.

Tolalar
↓
Tozalash
↓
Tarash
↓
Cho‘zish
↓
Yigirish va burash
↓
Tayyor ip

Ushbu bosqichlarning har biri tolalarning tuzilishiga ta’sir qilib, ipning yakuniy sifatini shakllantiradi.

Tola fizik-mexanik xossalarining ip sifatiga ta’siri shundaki tola uzunligi ip strukturasi va mustahkamligining asosiy belgilovchisidir. Uzun tolalar bir-biriga ko‘proq tutash nuqtalar orqali birikadi, natijada ipning tutam hosil qilish qobiliyati ortadi. Bu ipning uzilishlarga chidamliligini oshiradi, uning sirtini silliq qiladi va tuklikni kamaytiradi. Qisqa tolalarda esa tutash nuqtalari soni kam bo‘lib, ipning notekisligi va tukligi ortishi kuzatiladi. Xom ashyo, ya’ni tolalarning sifati yigirilgan ipning asosiy ko‘rsatkichlarini belgilaydi. Tolalarning bir xilligi, uzunligi va mustahkamligi yuqori bo‘lsa, sifatli ip olish imkoniyati oshadi. Past sifatli tolalar ipda nuqsonlar va uzilishlar paydo bo‘lishiga olib keladi. Yigirishda ishlatiladigan tolalarning sifati ipning asosiy ko‘rsatkichlarini belgilaydi. Tolalarning bir xil tarkibda bo‘lishi, uzunligi va mustahkamligi yuqori bo‘lsa, ip sifati ham yuqori bo‘ladi. Past sifatli yoki notekis tolalar ipda turli nuqsonlarning paydo bo‘lishiga sabab bo‘ladi.

Ingichka tolalar tolalararo ishqalanishning barqaror bo‘lishini ta’minlaydi, buning natijasida ip silliq, ko‘rinishi chiroyli va yuqori elastiklikka ega bo‘ladi. Qalin tolalar esa ipni qo‘pol, ba’zan notekis qilib qo‘yadi. Mikroner miqdorining optimal diapazonda bo‘lishi ipning chiziqli zichligi va pishiqligini ta’minlaydi.

Tolaning uzilishga bo‘lgan mexanik mustahkamligi to‘g‘ridan-to‘g‘ri ipning uzilishga chidamliligini belgilaydi. Mustahkam tolalar yigirish jarayonida barqarorlikni ta’minlaydi, mashina uzilishlarini kamaytiradi, ishlab chiqarish unumdorligini oshiradi. Past mustahkamlikka ega tola esa jarayonda uzilib ketishi mumkin.Egiluvchan tolalar taranglikni oson qabul qiladi va mashina valiklari oralig‘ida uzilmaydi. Elastikligi kam tolalar esa taranglik ortganda osongina uzilib,

ISSN 3030-3907

ipning strukturaviy yaxlitligini buzadi.Tolaning namligi uning sirpanish qobiliyatiga ta’sir etuvchi muhim ko‘rsatkichdir. Optimal namlikda tola elastik, sirpanishga moyil va yigirish uchun qulay bo‘ladi. Juda quruq tola mo‘rt, juda nam tola esa yopishqoq bo‘lib, texnologik jarayonda turli nuqsonlarga sabab bo‘ladi. Mashinalarning ishlash tezligi, cho‘zish koeffitsiyenti va buram darajasi muhim texnologik parametrlar hisoblanadi. Ushbu ko‘rsatkichlarning noto‘g‘ri tanlanishi tolalarning shikastlanishiga, ipning esa mustahkamligi va tekisligining pasayishiga olib keladi. Uskunalarning soz va texnik talablar asosida ishlashi ip sifatini ta’minlovchi muhim omildir. Eskirgan yoki noto‘g‘ri sozlangan mashinalar ipning notekis chiqishiga hamda ishlab chiqarish jarayonida uzilishlarga sabab bo‘ladi. Ishlab chiqarish muhitidagi harorat va namlik tolalarning elastikligi va mexanik xossalarini saqlashda muhim rol o‘ynaydi. Optimal sharoitda olib borilgan texnologik jarayon ip sifatining oshishiga xizmat qiladi. Tolalarning fizik-mexanik xususiyatlari ip sifatini belgilovchi asosiy omillardan biri hisoblanadi. Uzun tolalar ipning mustahkam va barqaror bo‘lishini ta’minlaydi. Qisqa tolalar esa ipda tuklanish va uzilishlarning ko‘payishiga olib keladi. Tolalarning uzilishga chidamliligi ipning mexanik bardoshliligini belgilaydi. Mustahkam tolalardan yigirilgan iplar uzoq muddatli foydalanishga yaroqli bo‘ladi. Tolalarning nozikligi ipning silliqligi va bir xilligi bilan bog‘liq. Ingichka tolalar asosida olingan ip estetik jihatdan ham sifatli hisoblanadi. Elastik tolalar ipning cho‘zilish va bukilishga bardosh berish qobiliyatini oshiradi. Bu xossa ipning keyingi texnologik ishlovlarida muhim ahamiyatga ega. Tolalardagi notekislik ipning qalin-yupqa joylari paydo bo‘lishiga olib keladi. Bu holat tayyor mahsulot sifatiga salbiy ta’sir ko‘rsatadi.

Chigitdan ajratish, tozalash, tarash hamda piltalash bosqichlarining sifati ipning yakuniy sifatiga kuchli ta’sir ko‘rsatadi. Yaxshi taralgan, chigallanishi kamaytirilgan, bir tekis taqsimlangan tolalar barqaror yigirish jarayonini ta’minlaydi. Cho‘zish apparati oralig‘i, valiklar bosimi, taranglik kuchi, buram miqdori va silindrlar tezligi kabi parametrlarning to‘g‘ri tanlanishi ip sifatini belgilaydi. Noto‘g‘ri sozlamalar — notekis ip, ko‘p uzilishlar va sirt nuqsonlariga olib keladi. Tezlik oshishi bilan ishlab chiqarish unumdorligi ko‘payadi, lekin tolalarga tushadigan mexanik yuklama ham kuchayadi. Tezlik tola xususiyatiga mos bo‘lmasa, ipda uzilishlar ko‘payadi. Past tezlik esa iqtisodiy jihatdan samarasiz. Buram ipning strukturasini mustahkamlovchi asosiy omildir. Buramning kamligi ipni bo‘sh, mustahkamligi past qiladi. Buramning ortishi esa ipni qattiq, ba’zan mo‘rt qiladi. Har bir tola turining optimal buram qiymati mavjud. Yigirish sexidagi harorat va nisbiy namlik tolaning mexanik xossalarini o‘zgartiradi. Optimal sharoitda tola mo‘rtlashmaydi, silliq siljiydi va mashinalar barqaror ishlaydi. Chang-to‘zonning yuqoriligi esa tizimlarga yopishib jarayonni

ISSN 3030-3907

buzadi. Operatorning malakasi mashina sozlamalarining aniqligi, nuqsonlar oldini olish, uzilishlarni tez bartaraf etish va ishlab chiqarish barqarorligiga bevosita ta’sir qiladi.

Tola xususiyatlari texnologik rejimni belgilovchi asosiy mezon hisoblanadi. Masalan:

- Ingichka tolalar yuqori cho‘zish koeffitsientini talab qiladi.
- Mustahkamligi past tola uchun buramni oshirish zarur.
- Uzun tolada mashina tezligini oshirish mumkin, qisqa tolada esa aksincha.
- Namligi past tola uchun namlantirish tizimi faollashtiriladi.

Demak, tola xossalarini inobatga olmay qo‘llangan texnologik rejim sifatsiz ipga olib keladi.

Zamonaviy to‘qimachilik sanoatida mahsulot sifatini ta’minlashning asosiy bosqichlaridan biri bu — yuqori sifatli ip olishdir. Ip sifati esa ikki omilga bevosita bog‘liq: tola fizik xususiyatlari va texnologik jarayonning to‘g‘ri tashkil etilishi. Tola xossalarining notekisligi yoki texnologik jarayonning nooptimal yurishi ipda uzilish, tuklik, notekislik, past mustahkamlik kabi nuqsonlar yuzaga kelishiga sabab bo‘ladi. Shuning uchun tola xususiyatlarini chuqur bilish va ularga mos texnologik rejimlarni qo‘llash ip sifati kafolatidir.

Yigirilgan ip sifati tola fizik-mexanik xossalari va texnologik jarayon parametrlarining uyg‘unligiga bog‘liq. Tola uzunligi, mustahkamligi, ingichkaligi va elastikligi — ipning asosiy sifat ko‘rsatkichlarini belgilovchi omillar bo‘lsa, yigirish jarayonidagi tezlik, buram, taranglik va mashina-sozlamalari ipning yakuniy ko‘rinishi va pishiqligini shakllantiradi. Shuning uchun yuqori sifatli ip olish uchun tolani chuqur tahlil qilish, unga mos texnologik rejim tanlash va jarayonni qat’iy nazorat qilish zarur. Yigirilgan ipning sifati tolalarning fizik-mexanik xossalari va texnologik jarayonlarning to‘g‘ri tashkil etilishiga chambarchas bog‘liq. Xom ashyoning sifatli tanlanishi, texnologik parametrlarning optimal belgilanishi, uskunalarning sozligi hamda ishlab chiqarish sharoitlarining nazorat qilinishi yuqori sifatli ip olishning asosiy shartlari hisoblanadi. Ushbu omillarni chuqur tahlil qilish va amaliyotda qo‘llash to‘qimachilik sanoati samaradorligini oshiradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Алимов А., Хамидов М. *To‘qimachilik materialshunosligi*. – Toshkent: Fan nashriyoti, 2019.

2. Axmedova M., G‘afforov R. *Yigiruv texnologiyasi asoslari*. – Toshkent: O‘zMU nashriyoti, 2020.

3. Abdullayev N. *To‘qimachilik tolalari: tuzilishi va xossalari*. – Toshkent: “O‘qituvchi”, 2018.

ISSN 3030-3907

4. Шалмич Л.Е., Першин А.И. *Прядение хлопка*. – Москва: Легкая промышленность, 1986.
5. Xolmatov Sh. *Paxta tolasi va ip ishlab chiqarish texnologiyasi*. – Toshkent: TDYUI nashriyoti, 2021.
7. Qurbonov N., Ibragimova S. *To ‘qimachilik sanoati uchun xomashyo sifati va uni baholash*. – Toshkent, 2017.
8. Rahimov U. *Yigiruv mashinalari va ularning ishlash prinsiplari*. – Farg‘ona: Farg‘ona politex. instituti nashriyoti, 2020.

ISSN 3030-3907

МАҲАЛЛИЙ ҲОМАШЁЛАР АСОСИДА ТАРКИБИДА ГУМИН БИРИКМАЛАРИ ТУТГАН БИОСУПЕРФОСФАТ ЎҒИТЛАР ИШЛАБ ЧИҚАРИШ

Орибжонов Мухаммадали Хайрулло ўғли
Наманган давлат техника университети Кимё кафедраси докторанти,
Ўзбекистан Республикаси, Наманган шаҳри.
E-mail: Orifjonovmuhammadali956@gmail.com
Тел: +998942716127
Бектемиров Азизбек Обитали ўғли
"Ifoda Agro Kimyo Himoya"МЧЖ бош технолог
E-mail: oltinbosh92@gmail.com
Тел: +998942132992
Арисланов Акмалжон Сайиббаевич
Наманган давлат техника университети Кимё кафедраси профессори техника фанлари фалсафа доктори(PhD)
Ўзбекистан Республикаси, Наманган шаҳри.
E-mail: arislanov2019@gmail.com
Тел: +998941591060
Азизов Вохидхўжа Зохиджон ўғли
Наманган давлат техника университети Кимё кафедраси доценти техника фанлари фалсафа доктори(PhD),
Ўзбекистан Республикаси, Наманган шаҳри.
E-mail: vohidcheek1995@gmail.com
Тел: +998881150405

Аннотация: Мақолада маҳаллий ҳомашёлар асосида таркибида кальций, олтингугурт, фосфор, азот, гумин бирикмалари тутган минерал ўғитлар ишлаб чиқариш тўғрисида баён этилган.

Калит сўзлар: Биосуперфосфат, кальций, азот, фосфор, олтингугурт, гумин бирикмалари, аминокислота, оқсил, ёғ, крахмал, фосфатли хомашё, гипс (CaSO4.2H2O), олтингугурт, карбамид, гумин кислота, торф, қўнғир кўмир, тошкўмир, антиоксидант, ион алмашинуви, комплекс ҳосил қилувчи, антибактериал.

Аннотация: В данной статье рассмотрено производство минеральных удобрений, содержащих кальций, сера, фосфор, азот и гуминовые соединения на основе местного сырья.

Ключевые слова: Биосуперфосфат, кальций, азот, фосфор, сера, гуминовые соединения, аминокислоты, белки, жиры, крахмал, фосфатное сырье, гипс (CaSO4·2H2O), сера, мочевина, гуминовая кислота, торф, бурый уголь, уголь,

антиоксидант, ионный обмен, комплексообразующий агент, антибактериальное средство.

Abstract: This article discusses the production of mineral fertilizers containing calcium, sulfur, phosphorus, nitrogen and humic compounds based on local raw materials.

Keywords: Biosuperphosphate, calcium, nitrogen, phosphorus, sulfur, humic compounds, amino acids, proteins, fats, starch, phosphate raw materials, gypsum ($CaSO_4 \cdot 2H_2O$), sulfur, urea, humic acid, peat, brown coal, coal, antioxidant, ion exchange, complexing agent, antibacterial agent.

Введение

Жаҳон агрокимё мажмуаси иқтисодий тараққиётининг асосий таркибий қисми ҳисобланиб, аҳоли фаровонлиги унинг ривожланишига боғлиқ бўлади. Шу муносабат билан агросаноат мажмуасини кенг кўламдаги ўсимликларни ҳимоя қилиш воситалари, ўсимликларни ўсиш ва ривожланиш стимуляторлари, турли нисбатларидаги асосий макроэлементлар, жумладан азот, фосфор, калий, кальций, магний ва олтингугурт бўлган минерал ўғитлар билан таъминлаш зарурдир. Бунда қишлоқ хўжалиги экинлари ҳосилдорлигини оширишда нафақат минерал ўғитлар меъёрини ошириш, балки улар ассортиментини кўпайтириш ҳам муҳим аҳамиятга эга ҳисобланади. Мазкур йўналишда таркибида кальций ва олтингугурт бўлган азот-фосфорли минерал ўғитлар олиш технологиясини ишлаб чиқиш ва амалиётга жорий қилиш катта аҳамият касб этади.

БМТнинг маълумотларига кўра, ер юзи аҳолисининг сони 1970 йилдаги 3,7 миллиарддан 2021 йилга келиб 7,8 миллиардга ошди, 2075 йилда эса 15 миллиарддан ошиши тахмин қилинмоқда. Энг катта ўсиш Осиё қитъаси ҳиссасига тўғри келади. Аҳолининг кўпайиши муносабати билан айниқса озиқ-овқат ва техник экинларни ривожлантириш муаммоси кескин бўлиб қолмоқда. Бундай муаммолар ечимини юқори сифатли минерал ўғитлар ишлаб чиқариш хомашё базасини кенгайтириш, ишлаб чиқариш технологияларини жадаллаштириш орқали ҳал этилиши мумкин [1].

Республикамиздаги мавжуд маҳаллий хом ашёлар ва саноат чиқиндиларини қайта ишлаш орқали таркибида кальций, азот, фосфор, олтингугурт, гумин бирикмалари билан бойитилган комплекс биосуперфосфат минерал ўғитларнинг янги турларини ишлаб чиқиш ҳамда уларни ўсимликларнинг фаол ўсиши ва ривожланишига, шунингдек тупроқ унумдорлигига таъсирини ўрганиш бўйича илмий тадқиқотлар олиб борилмоқда.

Қишлоқ хўжалигида таркибида кальций, азот, фосфор, олтингугурт, гумин бирикмалари билан бойитилган минерал ўғитларнинг қўлланилиши

ISSN 3030-3907

тупроқ тузилишини яхшилаб ва унумдорлигини оширади, ўсимликларнинг қурғоқчилик ва совуққа чидамлилигини ошириб, пестицидларнинг салбий таъсирини камайтиради, уларнинг ривожланиш даврини қисқартиради ва ҳосилдорлигини ошириб, қишлоқ хўжалиги маҳсулотлари сифатини оширишга ёрдам беради. Республикамизда асосан фосфорли концентрланган ўғитлар сифатида асосан Марказий Қизилқум фосфоритларидан олинган аммофос ва оддий суперфосфатдан фойдаланилади. Аммофос ўғитидан фойдаланиш натижасида тупроқ таркибидаги ўсимликлар томонидан ўзлашадиган кальций, магний ва олтингугурт бирикмалари миқдорини камайишига олиб келади. Натижада ҳайвон ва ўсимликлар организмларида кальций, магний ва олтингугурт бирикмаларининг етишмаслигига олиб келади. Элементар олтингугурт микроорганизмлар уни сульфат шаклига айлантиргандан кейингина ўсимликлар учун самарали ҳисобланади. Бу жараённинг тезлиги бир қатор омилларга: ўғитларни майдалашнинг нозиклиги, тупроқ ҳарорати ва намлиги, тупроқ тури, ундаги микрофлоранинг фаоллиги, турли ионларнинг таркибига боғлиқ бўлади.

Фосфорли ўғитлар ҳаво ва тупроқдан олинган анорганик моддалардан аминокислота, оқсил, ёғ, крахмал, шакар ва бошқа бир қатор маҳсулотларни ҳосил қилишда иштирок этиб, ўсимликлар ўсиб ривожланишини бир меъёрда бўлишини таъминлайди. Ҳосилдорликни оширида ва унинг сифатини яхшилайди. Айни пайтда фосфор муаммоси ҳам юзага келмоқда, унинг табиий заҳиралари кундан кунга камайиб тугаб бормоқда.

Таркибида гумин бирикмалари тутган биосуперфосфат минерал ўғитлар ишлаб чиқариш технологияси моҳияти шундаки майдаланган фосфатли хомашё, гипс ($CaSO_4 \cdot 2H_2O$), олтингугурт, карбамид ва таркибида гумин кислотаси бўлган табиий органик моддалар аралашмасини сув билан намлашни ўз ичига олади.

Реакторга меъёрлаштиргичлар орқали майдаланган фосфат хомашёси, гипс ($CaSO_4 \cdot 2H_2O$), олтингугурт, карбамид ва таркибида гумин кислотаси бўлган табиий органик моддалар келиб тушади. Ҳосил бўлган аралашма сув билан намланиб, бўтқани 70-80°C ҳароратда 10 минут тўхтовсиз аралаштирилади ва у ердан (БДҚ) барабанли донадорлаш қурилмасига узатилади. Технологияда намликни мъёрда ушлаб туриш муҳим аҳамиятга эга. Ортиқча намлиқ бўлса, зарур ҳолларда аралашмани буғлатиш аппаратига берилади. Нисбий намлиги мъёрда бўлган аралашма бўтқаси БДҚ га берилади, унда 100-105°C ҳароратда маҳсулот қуритилади ва донадорланади.

ISSN 3030-3907

Натижада таркибида $P_2O_{5ум.}$ = 17,90%; $P_2O_{5\ ўзл.}$ = 6,37%; $P_2O_{5\ с.э.}$= 6,01%; $N_{ум.}$ =1,0%; $CaO_{ум}$ = 34,0%; $CaO_{с.э.}$ = 10,0%; MgO = 1,4%; $SO_{3ум.}$ = 11,35%; $SO_{3ум.}$ = 2,0%; умумий органик моддалар=8,0%; PH=7,28 ва бошқалар бўлган маҳсулот олинади. Натижада секин таъсир этувчи таркибида кальций, магний, олтингугурт, гумин бирикмалари билан бойитилган биосуперфосфат минерал ўғитлар қаторига киритиш мумкин.

Бу усул билан майдаланган фосфатли хомашё, фосфогипс, олтингугурт, карбамид, аммоний нитрат ва таркибида гумин кислотаси бўлган табиий органик моддалар аралашмаларини сув билан намлаб, таркибида кальций, магний, гумин бирикмалари билан бойитилган ўсимликларга секин таъсир этувчи комплекс минерал ўғитлар ишлаб чиқариш мумкин бўлади[2-4].

Қишлоқ хўжалигида таркибида кальций, азот, фосфор, олтингугурт, гумин бирикмалари билан бойитилган минерал ўғитларнинг қўлланилиши тупроқ тузилишини яхшилаб ва унумдорлигини оширади, ўсимликларнинг қурғоқчилик ва совуққа чидамлилигини ошириб, пестицидларнинг салбий таъсирини камайтиради, уларнинг ривожланиш даврини қисқартиради ва ҳосилдорлигини ошириб, қишлоқ хўжалиги маҳсулотлари сифатини оширишга ёрдам беради.

Гумус моддалар тупроқдаги мавжуд органик моддаларнинг 80-90% ини ташкил этади. Уларнинг таркибида асосан гумин ва фульво кислоталари учрайди. Бу моддалар ичида гумин кислоталар яхши ўрганилган. Гумин кислоталар ўз ичига таркиби ва хоссалари жиҳатдан ўхшаш бир қатор моддаларни олади. Гумин кислотасининг ўртача умумий формуласи қуйдагича $C_{187}H_{186}O_{89}N_9S_1$ бўлади.

Табиатда гумин кислоталар ўсимлик қолдиқларидан ёки қазиб олинадиган кўмир(торф, қўнғир кўмир, тошкўмир) ва бошқа органик маҳсулотларнинг оксидланиши натижасида ҳосил бўлади. Кўмир ҳосил бўлишининг торф босқичида тупроққа ёки ботқоқга тушган ўсимлик қолдиқлари турли микроорганизмлар учун озуқа муҳити бўлиб хизмат қилади.

Гумин кислоталар табиатан ароматик, юқори молекуляр модда ҳисобланади. Уларни ён тармоқлари тўғри чизиқли полимерланган углерод занжирларини тутган циклик углероднинг ясси тўридан иборат деб қараш мумкин. Улар таркибида гидроксил, карбонил, карбоксил каби функционал гуруҳлар ҳам бўлади.

Гумин кислоталар молекулалари таркибига азотсиз ва азот тутган олти ҳамда беш аъзоли халқалар кириб, одатда улар ўзаро -N-, -NH-, $-CH_2-$ кўприклар орқали туташади. Бундан ташқари гумин кислоталар таркибида

ISSN 3030-3907

углевод колдиклари ва азотли органик бирикмалар ҳам учрайди. Бу бевосита чекка ён занжирлар шаклида хушбуй ядродарнинг мавжудлиги билан боғликдир. Гумин кислоталар таркибида 3-6 та фенол гидрооксиллари -(OH), 3-4 та карбоксил (-COOH), метоксил (-OCH_3) ва карбонил (=C=O) гуруҳларнинг бўлиши уларнинг хусусиятлари ҳамда тупроқ билан ўзаро таъсир характерини белгилайди. Гумин кислоталар таркибидаги карбоксил гуруҳлар тупрокка нордонлик бағишлайди. Гумин кислота молекуласи тузилишининг хилма-хиллиги унинг турли хил физик ва кимёвий хусусиятларини белгилайди. Гумин кислота молекулаларининг юзаси катта манфий зарядга эга бўлиб, яхши ион алмашинув реакциясига киришиш қобилиятига эга.

Гумин кислота молекуласи тузилишининг хилма-хиллиги унинг турли хил физик ва кимёвий хусусиятларини белгилайди. Гумин кислота молекулаларининг юзаси катта манфий зарядга эга бўлиб, яхши ион алмашинув реакциясига киришиш қобилиятига эга. Бу эса тупроқнинг ион алмашиш қобилиятини, унумдорлигини ва озуқа моддаларини сақлаш қобилиятини ошириши мумкин.

Гумин кислота таркибидаги карбоксил гуруҳлари фосфорит таркибидаги трикальций фосфатни парчалаш қобилиятига эга. Ҳисоб-китобларга кўра, майдаланган фосфатли хомашё, гипс($CaSO_4 \cdot 2H_2O$), олтингугурт, карбамид билан леонардит(умумий гумин миқдори 52,3-64,5% ; органик моддалар 66,7-71,1%; намлиги 26,53-33,07%) хомашёси билан аралаштириб, бир ярим-икки ой давомида сақлашдан кейин 50% озуқа элементлар эрувчан ҳолатга айланади ва олинган ўғит таъсири суперфосфатга яқин бўлади. Бу фосфорит таркибидаги трикальций фосфатнинг парчаланиб, сувда эрийдиган фосфор ҳосил бўлиши билан боғлиқ деб ҳисобланади. Аралашмадаги гипс ($CaSO_4*2H_2O$) каби кучли кислота тузларини қўшиши фосфат хомашёсини парчалаш қобилиятини яхшилаши мумкин. Бунинг сабаби шундаки, калций ионлари леонардит хомашёсидаги фаол гуруҳлар билан реакцияга киришиб, эркин сулфат кислота ҳосил бўлади, кейин эса фосфатли хомашёни парчалайди.

$$CaSO_4+2RCOOH \rightarrow (RCOO)_2Ca+ H_2SO_4$$

$$Ca_5(PO_4)_3F+5H_2SO_4 \rightarrow 5CaSO_4+3H_3PO_4+HF$$

$$CaCO_3+ H_2SO_4 \rightarrow CaSO_4 + H_2O + CO_2$$

$$MgCO_3+ H_2SO_4 \rightarrow MgSO_4 + H_2O + CO_2$$

$$2R\ COOH + Ca_3(PO_4)_2 \rightarrow (R\ COO)_2Ca + 2CaHPO_4$$

$$2R\ COOH + 2CaHPO_4 \rightarrow (R\ COO)_2\ Ca + Ca\ (H_2PO_4)_2$$

$$2R\ COOH + Ca(H_2PO_4)_2 \rightarrow (R\ COO)2Ca + 2H_3PO_4$$

ISSN 3030-3907

Карбоксил гуруҳ таркибидаги водород турли катионлар томонидан сиқиб чиқарилади ва бунда гуматлар деб номланадиган тузлар ҳосил бўлади:

$$RCOOH + NaHCO_3 = RCOONa + H_2O + CO_2$$

$$RCOOH + CaCO_3 = (RCOO)_2Ca + H_2O + CO_2$$

Бир валентли катионлар (Na^+, K^+, NH_4^+)нинг гуматлари сувда осон эрийди, икки (Ca ва Mg) ва уч валентли (Fe ва Al) катионларининг гуматлари эса сувда эримайди.

Гумин кислота молекуласи тузилишининг хилма-хиллиги унинг турли хил физик ва кимёвий хусусиятларини белгилайди. Гумин кислота молекулаларининг юзаси катта манфий зарядга эга бўлиб, яхши ион алмашинув реакциясига киришиш қобилиятига эга. Бу эса тупроқнинг ион алмашиш қобилиятини, унумдорлигини ва озуқа моддаларини сақлаш қобилиятини ошириши мумкин. Гумин кислота антиоксидант, ион алмашинуви, комплекс ҳосил қилувчи, антибактериал, адсорбцион ва оксидланиш-қайтарилиш реакцияси хоссаларига эга.

Аммиакли селитра тез таъсир қилувчи ўғит ҳисобланиб, сувда тез эрийди, суғорилганда тупроқда сақланиб қолмайди, экин унинг 60-70% ини ўзлаштиришга улгуради, қолган қисми эса сув билан ювилиб ҳавога учиб кетади. Шунинг учун тез-тез суғориладиган жойларда уларнинг йиллик меъёрларини ҳар бир суғоришда тақсимлаб, бўлиб-бўлиб ишлатиш лозим. Тупроқда гумус (чиринди) миқдорининг кўп бўлиши минерал ўғитларнинг самарадорлигини оширади. Айниқса, органик ўғитлар қўлламасдан фақат азотли ўғитлардан фойдаланиш тупроқ структурасини, унинг биологик, агрокимё, сув-физик ва физик-кимёвий хоссаларининг бузилишига олиб келади. Шунинг учун азотли ўғитлардан тупроқнинг агрокимёвий ҳолати ва иқлим шароитларидаи келиб чиқиб фойдаланиш лозим. Таркибида кальций, магний, гумин бирикмалари билан бойитилган ўсимликларга секин таъсир этувчи комплекс минерал ўғитлар эса сувда қийин эрийди, ўсимлик томонидан секин ўзлаштирилади, 2-3 ой давомида таъсир этиб туриш хусусиятига эга[5-8].

Ҳозирги пайтла унумдор тупроқлар таркибидаги гумус моддалари камайиб кетаётганлиги сабабли органик ресурслардан фойдаланиб таркибида гумус моддалари бўлган ўғитлар ва ўсимликларни ривожлантириш стимуляторлари ишлаб чиқаришга ва уларни қишлоқ хўжалигида қўллашга алоҳида эътибор қаратилмоқда. Гумин моддалари тупроқда, торфда, кўмирда ва бошқа органик табиатда пайдо бўладиган мураккаб физик-кимёвий тизимнинг юқори молекуляр органик бирикмалари ҳисобланади. Улар озуқа элементлари тўплайдилар, катионлар миграциясида иштирок этади, заҳарли моддалар салбий таъсирини камайтиради,

ISSN 3030-3907

организмлар ривожланишига ва сайёрадаги иссиқлик балансига таъсир кўрсатади[9].

Бу усул билан олинган таркибида кальций, азот, фосфор, олтингугурт, гумин бирикмалари билан бойитилган комплекс биосуперфосфат минерал ўғити оддий суперфосфатга нисбатан юқори техник иқтисодий кўрсаткичларга эга бўлади. Гумин бирикмалари(леонардит) билан бойитилган биосуперфосфат минерал ўғитларнинг қўлланилиши тупроқ тузилишини яхшилайди ва унумдорлигини оширади, ўсимликларнинг қурғоқчилик ва совуққа чидамлилигини ошириб, пестицидларнинг салбий таъсирини камайтиради, уларнинг ривожланиш даврини қисқартиради ва ҳосилдорлигини ошириб, қишлоқ хўжалиги маҳсулотлари сифатини оширишга ёрдам беради.

ФОЙДАЛАНИЛГАН АДАБИЁТЛАР

1. Арисланов А.С. Разработка технологии получения кальций-содержащих азотно-фосфорных удобрений с водорастворимой формой сульфатов из фосфоритов Каратау и Центральных Кызылкумов: Дисс. ... канд. техн.наук. – Наманган- 2022. – 127 с.

2. Орибжонов М. Х., Арисланов А.С., Азизов В.З. Способ получения биосуперфосфатных удобрений содержащих гуминовые соединения на основе местного сырья. Международный научный журнал «Научный Фокус» № 30(100), часть 1. Ноябрь, 2025 С.177-180

3. Орибжонов М. Х., Бектемиров А. О., Арисланов А.С., Азизов В.З. Таркибида кальций, магний, фосфор, азот, олтингугурт, гумин бирикмалари тутган биосуперфосфат ўғитлар ишлаб чиқариш. Educational Research in Universal Sciences. VOLUME 4 | ISSUE 16 | 2025.С.35-41

4. Орибжонов М. Х., Арисланов А.С., Азизов В.З. Маҳаллий ҳомашёлар асосида таркибида кальций, магний, олтингугурт ва гумин бирикмалари тутган биосуперфосфат ўғитлар олиш усуллари. Journal of innovations in scientific and educational research.VOLUME-8 ISSUE-11 (30- November) 2025 С.42-46

5. Б.Қ.Мухаммадиев. Ўсимликларни озиқлантириш ва зараркунандалардан ҳимоя қилиш. –Т., ТошДАУ Нашриёт таҳририят бўлими. Монография. 2016, 237 бет.

6. Song Jina, Jin Xin, Wang, Xiaochang C., Jin, Pengkang. Preferential binding properties of carboxyl and hydroxyl groups with aluminium salts for humic acid removal. Chemosphere. 2019 - 11, 234: 478–487. doi: 10.1016/j.chemosphere. 2019.06.107

7. Б. С. Мусаев. Агрокимё. Дарслик. «Шарқ» нашриёт-матбаа акциядорлик компанияси бош таҳририяти Тошкент - 2001

ISSN 3030-3907

8. Zhang Shui-qin, Yuan Liang, Lin Zhi-an, Ll Yan-ting, Hu Shu-wen, Zhao Bing-qiang. Advances in humic acid for promoting plant growth and its mechanism[J]. Journal of Plant Nutrition and Fertilizers, 2017, 23(4): 1065-1076.
9. Қодирова Г.Қ., Шамшидинов И.Т, Нажмиддинов Р.Ю. Биогумусдан суюқ биоорганоминерал ўғитлар олиш жараёнини тадқиқ қилиш. Scientific-technical journal (STJ FerPI, ФарПИ ИТЖ, НТЖ ФерПИ, 2020, Т.24, спец.вып. №2) с.218-222

ISSN 3030-3907

UDC 691.175.5/.8

REVIEW OF RECENT ADVANCES IN POLYCARBONATE SYNTHESIS

Malika Mukhamadieva
Navoi State University , PhD Student
Bakhodir Mukhiddinov
Navoi State University of Mining and Technologies DSc. Professor

Abstract. Recent advances in polycarbonate synthesis have been driven by the urgent need for sustainable alternatives to petroleum-based polymers and effective strategies for carbon dioxide utilization. This review examines the latest developments in polycarbonate synthesis, encompassing bio-based feedstocks, innovative catalytic systems, and circular economy approaches. Key topics include the synthesis of bio-based polycarbonates from renewable resources such as isosorbide and terpenes, the copolymerization of CO_2 with various epoxides, and the development of functionalized polycarbonates with tailored properties. Novel catalytic systems—including ionic liquids, metal-organic complexes, and metal-free catalysts—are critically analyzed for their efficiency, selectivity, and environmental impact. The review also explores advanced synthetic methodologies such as melt chain extension, one-pot synthesis approaches, and reversible polycondensation techniques that enable precise control over molecular weight and end-group functionality. Particular attention is given to chemical recycling strategies that enable closed-loop material lifecycles, including the upcycling of polycarbonate waste and spent lithium battery electrolytes into valuable polymer products. Applications of these advanced polycarbonates span diverse fields including low-dielectric materials for electronics, flame-retardant materials with enhanced safety profiles, biomedical materials, and thermal insulation foams. Structure-property relationships are systematically examined to understand how monomer selection, polymer architecture, and functional group incorporation influence thermal stability, mechanical properties, optical characteristics, and processability. The integration of sustainability principles with high-performance material design represents a paradigm shift toward environmentally responsible polymer production that simultaneously addresses plastic waste management, carbon emissions reduction, and resource conservation.

Keywords: polycarbonate synthesis; bio-based polymers; CO_2 utilization; chemical recycling; catalytic systems; sustainable materials; circular economy

Аннотация. Последние достижения в области синтеза поликарбонатов обусловлены острой необходимостью разработки устойчивых альтернатив полимерам нефтяного происхождения, а также эффективных стратегий утилизации диоксида углерода. В настоящем обзоре рассматриваются современные направления синтеза поликарбонатов, охватывающие

использование биооснованного сырья, инновационных каталитических систем и подходов циркулярной экономики. Ключевые аспекты включают синтез биооснованных поликарбонатов из возобновляемых ресурсов, таких как изосорбид и терпены, сополимеризацию CO_2 с различными эпоксидами, а также разработку функционализированных поликарбонатов с заданными свойствами. Новые каталитические системы, включая ионные жидкости, металлоорганические комплексы и безметалльные катализаторы, подвергнуты критическому анализу с точки зрения их эффективности, селективности и экологического воздействия. В обзоре также рассматриваются передовые синтетические методологии, такие как удлинение цепей в расплаве, одностадийные (one-pot) методы синтеза и обратимые процессы поликонденсации, обеспечивающие точный контроль молекулярной массы и функциональности концевых групп. Особое внимание уделяется стратегиям химической переработки, направленным на создание замкнутых материальных циклов, включая апсайклинг отходов поликарбонатов и отработанных электролитов литий-ионных аккумуляторов с получением ценных полимерных продуктов. Области применения полученных поликарбонатов охватывают низкодиэлектрические материалы для электроники, огнезащитные материалы с повышенными показателями безопасности, биомедицинские материалы и теплоизоляционные пены. Систематически анализируются взаимосвязи «структура — свойства», позволяющие установить влияние выбора мономеров, архитектуры полимерной цепи и введения функциональных групп на термическую стабильность, механические характеристики, оптические свойства и перерабатываемость материалов. Интеграция принципов устойчивого развития с проектированием высокоэффективных материалов рассматривается как парадигмальный переход к экологически ответственному производству поликарбонатов, одновременно решающий задачи управления пластиковыми отходами, сокращения выбросов углерода и рационального использования ресурсов.

Ключевые слова: синтез поликарбонатов; биооснованные полимеры; утилизация CO_2; химическая переработка; каталитические системы; устойчивые материалы; циркулярная экономика

Annotatsiya. Polikarbonatlarni sintez qilish sohasidagi so‘nggi yutuqlar neft asosidagi polimerlarga barqaror muqobillar yaratish zarurati hamda karbonat angidridni samarali utilizatsiya qilish strategiyalariga bo‘lgan ehtiyoj bilan bog‘liq. Ushbu sharh maqolada polikarbonatlar sintezining zamonaviy yo‘nalishlari, jumladan bioasosli xomashyo manbalari, innovatsion katalitik tizimlar va aylanuvchi (sirkulyar) iqtisodiyotga asoslangan yondashuvlar keng yoritilgan.

ISSN 3030-3907

Asosiy masalalar qatoriga izosorbid va terpenlar kabi qayta tiklanuvchi resurslardan bioasosli polikarbonatlarni olish, CO_2 ning turli epoksidlar bilan sopolimerizatsiyasi hamda belgilangan xossalarga ega funksional polikarbonatlarni ishlab chiqish kiradi. Ion suyuqliklar, metall-organik komplekslar va metalsiz katalizatorlarni o‘z ichiga olgan yangi katalitik tizimlar ularning samaradorligi, selektivligi va ekologik ta’siri nuqtayi nazaridan tanqidiy tahlil qilinadi. Shuningdek, eritmada zanjirni uzaytirish, bir bosqichli sintez usullari va qaytar polikondensatsiya jarayonlari kabi ilg‘or sintetik metodologiyalar ko‘rib chiqilib, ular molekulyar massa va uchki guruhlar funksionalligini aniq nazorat qilish imkoniyatini berishi ta’kidlanadi. Yopiq material aylanishini ta’minlovchi kimyoviy qayta ishlash strategiyalariga, jumladan polikarbonat chiqindilari hamda ishlatilgan litiy-ion batareyalar elektrolitlarini yuqori qiymatli polimer mahsulotlariga aylantirish jarayonlariga alohida e’tibor qaratilgan. Ushbu ilg‘or polikarbonatlarning qo‘llanish sohalari elektronika uchun past dielektrik materiallar, yuqori xavfsizlik ko‘rsatkichlariga ega olovbardosh materiallar, biotibbiyot materiallari va issiqlik izolyatsion ko‘piklarni o‘z ichiga oladi. «Tuzilma — xossa» o‘zaro bog‘liqliklari tizimli ravishda tahlil qilinib, monomer tanlovi, polimer zanjiri arxitekturasi va funksional guruhlarning kiritilishi natijasida termik barqarorlik, mexanik xossalar, optik xususiyatlar hamda qayta ishlanuvchanlikka ko‘rsatadigan ta’siri aniqlanadi. Barqarorlik tamoyillarini yuqori samarali materiallar dizayni bilan integratsiyalash polikarbonatlar ishlab chiqarishda ekologik mas’uliyatli yondashuvga o‘tishning muhim yo‘li sifatida qaralib, plastik chiqindilarni boshqarish, uglerod chiqindilarini kamaytirish va resurslardan oqilona foydalanish muammolarini bir vaqtning o‘zida hal etishga xizmat qiladi.

Kalit so‘zlar: polikarbonatlar sintezi; bioasosli polimerlar; CO_2 utilizatsiyasi; kimyoviy qayta ishlash; katalitik tizimlar; barqaror materiallar; aylanuvchi iqtisodiyot

Introduction

The global polymer industry stands at a critical juncture, facing mounting pressures from plastic pollution, fossil resource depletion, and climate change imperatives. Polycarbonates, a class of engineering thermoplastics characterized by carbonate linkages (-O-CO-O-) in their polymer backbone, have long been valued for their exceptional combination of optical clarity, impact resistance, thermal stability, and dimensional stability [1]. Conventional polycarbonates, particularly bisphenol A polycarbonate (BPA-PC), have found widespread applications in automotive components, electronic devices, medical equipment, construction materials, and consumer products. However, the traditional production of polycarbonates relies heavily on petroleum-derived monomers and

ISSN 3030-3907

